

O'ZBEKISTON XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“

TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI
GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI.

“O'RTA OSIYO MAMLAKATLARI IQTISODIY IJTIMOY GEOGRAFIYASI”
FANIDAN

Ma'ruzalar matni

Tuzuvchi: dotsent K. Qurbonov,
k. o'q. G'apparov A.

JIZZAX -2012

KIRISH

Dunyo siyosiy haritasining XX asr 90-yillarida keskin ravishda o'zgarishi yangi siyosiy-iqtisodiy mintaqalarning vujudga kelishiga olib keldi.

5 ta muctaqil davlatlardan tashkil topgan O'rta Osiyo mintaqasi dunyo siyosiy kartasida juda tez o'z o'rnini topdi. Ko'plab rivojlangan davlatlar bu respublikalarni tezda tan olib, diplomatik aloqa o'rnatdilar. Chunki ayni vaqtda O'rta Osiyo davlatlari xalqaro siyosiy maydonda alohida rol o'ynaydilar.

Har bir respublika iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishda o'ziga xos yo'l tutmoqda. Bu davlatlardagi mavjud siyosiy va iqtisodiy hamda ijtimoiy resurslarni o'rganish, ularning tutgan yo'li, rivojlanish imkoniyatlarini bilish, bizning respublikamizning kelajagini ijtimoiy iqtisodiy jihatdan ta'minlovchi bugungi talabalar uchun zarurdir.

Geografik bilimlardan foydalangan holda mintaqaviy iqtisodiyotning imkoniyatlarini belgilash, muammlarning echimini topish, yangi yo'nalishlarni qidirish malakasini shakllantirish talabalarga qo'yiladigan asosiy talabdir.

Respublikalar iqtisodiy rivojlanish tarixi, shakllanish jarayoni va imkoniyatlarini, resurslardan foydalanish darajasini o'rganish orqali sobiq Ittifoq davridagi iqtisodiy rivojlanishda erishilgan yutuq va yo'l qo'yilgan xatolar, ularning sabab va oqibatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari muhimdir.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrda respublikalardagi iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni tahlil qilish, kelib chiqqan muammolar va resurslardan foydalanish masalalarini aniq bilish bilan talabalar sobiq Ittifoq davridagi iqtisodiy ijtimoiy siyosatning qanday natijalarga olib kelganligi va bu siyosat orqali yo'l qo'yilgan xatoliklarni qanday tuzatish yo'llarini mavjudligini anglab etadilar. Bunday bilimga erishish uchun talabalar bir butun holda mamlakatning iqtisodiy ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanishi, ijtimoiy masalalari, shuningdek har bir tarmoq va resurslarning shakllanish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqlari kerak. Shuningdek, har bir respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarini mustaqillikkacha va unga erishilgandan keyingi davrlar chizig'ida o'rganib, xulosa chiqarishlari kerak bo'ladi.

O'rta Osiyo davlatlari iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi kursi talabalarning geografik bilimlarini oshirishdan tashqari, mintaqaviy va xalqaro siyosiy, iqtisodiy maydonda yosh, mustaqil davlatlarning egallab kelayotgan o'rinlarini, erishayotgan yutuqlarini va bu yutuqlarga erishish uchun qilinayotgan ishlarning natijalari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Ushbu ma'ruza matnlari turli manbalardan foydalanilgan holda tuzilib, talabalarning mintaqaga haqidagi geografik bilimlarini mustahkamlaydi degan umiddamiz.

MAVZU: O'RTA OSIYO DAVLATLARINING GEOGRAFIK O'RNI

REJA:

1. O'rta Osiyo davlatlarining tashkil topishi
2. O'rta Osiyo davlatlarining kattaligi, chegaralari.
3. O'rta Osiyo davlatlarining geografik urni.

Tayanch iboralar: O'rta Osiyodavlatlari. Shimoliy, sharqiy, janubiy, g'arbiy chegaralari.

Mikro, makro, mezo iqtisodiy geografik urinlari. Tabiiy geografik urni.

ADABIYOTLAR

A. Karimov. O'zbekiston 21-asr busag'asida...

G. R. Asanov, Nabixonov M. I. Safarov. «O'zbekiston iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi. T. «Uqituvchi» 1994 y.

Markaziy Osiyo davlatlari iqt. ijt. geografiyasi. Toshkent 2003 yil. Uquv qullanma. K. uqituvchi Boltaev J.

M. Mamatqulov, I Safarov. O'rta Osiyogeografiyasi. Ma'ro'zalar matni. 2002 yil. Toshkent. TDPU.

Ro'ziev. «Markaziy Osiyo iqt. ijt. geografiyasi» 2000 yil Tyermiz.

T. Jumaboev Mark. Osiyo. Iqt. ijt geografiyasi. SamDU. 2001 yil.

O'rta Osiyo mamlakatlariga Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston mamlakatlari kiradi. Ushbu mamlakatlar 1991 yilga qadar sobiq SHo'rolar davlatining ittifoqdosh respublikalari edi. 1991 yildan boshlab, ushbu respublikalarning har biri mustaqil davlatlarga aylandi.

Har bir respublikaning o'z prezidenti, qonun chiqaruvchi oliy organi, oliy kengash, hukumat boshlig'iga ega.

Oktyabr tuntarilishiga qadar Qozog'iston CHor Rossiyasining eng qoloq chekka mustamlakalaridan biri edi. Qozoqlar ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechirganlar. Qozog'iston hududini Rossiya 18-asrda bosib ola boshladi. Uning Rossiya tomonidan bosib olinishi feodallarning o'zaro nizolariga chek quydi va qozoq xalqining feodal davlatlar quqon, Xiva, Buxoro davlatlari asoratidan qutqardi. Dastlabki rus qishloqlari Qozog'iston hududida 16-asr oxirida paydo bo'ldi. Bu vaqtda Ural daryosining ung sohili YOyiq kazaklari tomonidan o'zlashtirilayotgan edi.

Keyinchalik Qozog'istonning shimoliy chekkalarida Uraldan to Irtishgacha so'ngra esa, Ettisuvda ham mustahkamlangan istehkomlar, kazaklar chegarasi barpo etildi. Keyinchalik bu yerlarda shaharlar, yirik savdo markazlari barpo etildi.

Qozoq xalqi faqat Oktyabr to'ntarilishidan keyin o'z davlatiga ega bo'ldi. 1921 yil 26 avgustda Rossiya tarkibida Qozog'iston avtonom respublikasi tashkil topdi. 1936 yil 5 dekabrda Qozog'iston Respublikasiga aylantirildi. Oktyabr to'ntarilishidan to 1991 yilga qadar Qozog'iston respublikasi sobiq SHo'rolar davlati tarkibida rivojlandi. 1991 yildan keyin esa u mustaqil davlat sifatida rivojlanmoqda.

O'zbekiston hududini ham Rossiya tomonidan bosib olinishi 1865 yildan boshlandi. Bu davrda hozirgi O'zbekiston hududida Qo'qon va Xiva xonliklari, Buxoro amirligi mavjud edi.

Rossiya mustamlakachiligi davrida o'lkaning siyosiy ijtimoiy hayoti yanada og'irlashdi. Bir tomondan metropoliyaga to'liq tobe bulgan Buxoro amirligi, Xiva xonligi, ikkinchi tomondan va ularning katta maydonlarini o'z ichiga olgan Turkiston genyeral-gubynatorligi hamda bir qancha viloyatlar qadimiy Turkistonning yaxlitligiga katta putur etkazdi. Bu parokandalik Oktyabr tuntarilishidan keyin yangi bosqich kasb etdi. O'lka Sovetlarining 1917 yil noyabr oyida bo'lib utgan 3-s'ezdi hokimiyat ishchi soldat va dehqon depututlari sovetlari quliga utganligini e'lon qildi va bTurkistono'lka si xalq komissarlari kengashini tuzdi.

1918 yil aprelda o'lka sovetlarining 5-s'ezdi Turkistonxalqlarining sovet muxtoriyati e'lon qilingan va RSFSR tarkibida Turkiston muxtor SSR tuzildi.

1920 yilda Buxoro amirlilgi va Xiva xonligi hokimiyati zurlik bilan ag'darib btashlanib ularning urniga Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalari tuzildi.

Tabiiyki bunday siyosiy ma'muriy bulinish uzoq davom eta olmas edi. Birgina millatlar birinchi masalasining o'ziyoq hech kechiktirmasdan keskin choralar kurulishini talab qilar edi. Garchi asrlar davomida Turkiston– Urtta Osiyoda joylashgan tub yerli xalqlar alohida bulinib yashashga odatlanmagan bulsalarda, markazning hoxishiga kura yana aynan mutsamlakachilik tizimiga xos boshqaruv uslubi ixtiyor etildi, ya'ni milliy davlat chegaralarini utkazishga kirishildi.

1918 yil 8-aprelda Butun Rossiya Markaziy Ijroiya qo'mitasi va RSFSR XKS qoshida Turkiston ishlari buyincha maxsus komissiya tuzildi. Turkistonda Sovet milliy siyosati printsiplarini amalga oshirish, midlly davlat chegaradlari ishlarini tashkil qilishga kumaklashish maqsadida tuzilgan edi.

Ta'kidlash lozimki, Sovet hokimiyati o'zining dastlabki yillaridanoq Urta Osiyoda davlat chegaralarini belgilashda nozik, uta murakkab masalaga shoshma-shosharlik bilan qul urgan edi. Masalaning murakkabligi shunda ediki, birinchidan o'lka da joylashgan turli etnik guruhlariga mansub xalqlar asrlar davomida bir-biri bilan elkama-elka yondosh turib yashashga odatlangan. Ular urtasida moddiy ne'matlar ishlab chiqarishda hatto ma'lum ijtimoiy geografik mehnat taqsimoti ham qadimdan shakllanib kelgan edi. Bu ijtimoiy jarayonning bo'zilishi ma'lum iqtisodiy ijtimoiy noqulayliklarni keltirib chiqarishi shubhasiz edi.

Ikkinchidan yerli xalqlar hech vaqt biri ikkinchisidan ajralgan hududiy bulinishlar asosida joylashmagan edi. Aksincha, har qancha sinchikovlik bilan yondashilganda ham milliy chegaralanishni aniq, tug'ri tashkil qilish amri-mahol edi. Darhaqiqat shunday bo'ldi. Respublikalar sun'iy tarzda tashkil qilinganligi sababli ular mustaqilligini qulga kiritgan hozirgi davrda o'zaro munosabatlarda turli qiyinchiliklarga uchramoqda.

qolavyersa, Urta Osiyoda milliy davlat chegaralarini utkazish uchun hali zarur shart-sharoitlar etilmagan edi. Etnik uyushish jarayoni tugallanmagan, buning ustiga sinfiy kurash davom etar, milliy kadrlar etishmas, kartografik matyeriallari tayyor emas edi. Ana shunday sharoitda Urta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi Utkazilib, 1924 yil 27 oktyabrda O'zbekiston Sovet Sostialistik Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. Ushbu jarayon tufayli 1924 yildan boshlab mustaqil ittifoqdosh respublikaga aylantirilgan. Hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi 1925 yilda RSFSR tarkibida muxtor viloyat sifatida tashkil etildi, 1932 yildan boshlab esa MSSRga aylantirildi. U 1936 yildan boshlab O'zbekistonga qo'shib byerildi. Hozirgi kunda u O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi mustaqil respublika.

1991 yil 31 avgustda respublikamiz Oliy Kengashining sessiyasi O'zbekiston Respublikasining to'la mustaqilligini tantanali ravishda e'lon qilindi.

Og'o'z-turkman qabilalari turkman xalqining ajdodlari tarixi qadimgi asrlargi borib taqaladi, bu qabilalar hozirgi Turkmaniston hududida Kaspiy dengizi sohillaridan Sirdaryoning quyi oqimigacha va Kopettog' etaklaridan Emba daryosigacha bo'lgan masofada ko'chib yurganlar. Ularni qabila oqsoqollari idora qilganlar va ular siyosiy jihatdan bir-birlari bilan birlashishganlar. XVIII asrning birinchi yarmida turkmanlar O'zaro nizoda bo'lgan qabilalardan iborat bo'lib, bir davlatga birlashishgan edi. Turkmaniston Rossiya tomonidan bosib olganga qadar asrlar davomida turkmanlar tez-tez ajnabiylar xujumiga duchor bo'lib turar edi. 19 - asrning birinchi yarmida Mangistovga ko'chib yurgan 15 ming turkman xonadoni Rossiya fuqaroligiga o'tkazildi.

1869 yilda Krasnovodskka asos solingandan keyin 1881 yilda Rossiya qurilayotgan temir yo'l ustidagi Axaltekin vohasini egalladi. 1884-1885 yillarda Tajan va Murg'ob vohalari bosib olinib, Zakaspiy viloyati tashkil qilindi.

1924 yilda O'rta Osiyoda milliy chegaralarning o'tkazilishi natijasida Turkmaniston Respublikasi tashkil qilindi. Turkmaniston Respublikasi ham 1991 yildan keyin mustaqillikka erishdi.

Qirg'izlar Tyanshan tog'larida qadim zamonlardan buyon yashab keladilar. Ularning dastlabki qabilalari bu yerga eramizdan avvalgi 1-asrda kelib joylashgan, usha davrda qirg'izlar asosan Enisey daryosining yuqori oqimidagi yerlarda yashagan. Tyanshanda qirg'izlar yaylov chorvachiligi asosani quyi boqish va yilqichilik bilan shug'ullangan va ko'chmanchi hayot kechirganlar. Xo'jalikda ovchilik va soddaroq uy hunarmandchiligi ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Kirg'izistonni Rossiya bosib olganga qadar Farg'onada tashkil topgan O'zbek feodal Qo'qon xonligi ostida bo'lgan. Avvalo 1863 yilda Rossiya armiyasi tomonidan SHimoliy Qirg'izistonning bir qismi bosib olindi. Keyinroq 1876 yilda Qirg'izistonning qolgan qismi ham Rus armiyasi tomonidan bosib olindi.

Revolutsiyadan keyin 1926 yil 1-mart Qirg'iziston Avtonom Respublikasi tashkil qilindi. 1991 yildan boshlab barcha respublikalar kabi Qirg'iziston ham mustaqil davlat sifatida rivojlanmoqda.

Tojikiston hududida odamlar qadim zamonlardan buyon yashab keladi. Tojik xalqining shakllanishi O'rta Osiyoning boshqa xalklariga karaganda ancha ilgari tugallangan.

Tojiklar o'troq hayot kechirganlar va ular mohir dehqonlar sifatida mashhur bo'lganlar. Ular turli hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Ular eng qadim zamonlarda tog' vodiylarida va tog' etaklarida yashab kelgan bo'lsalar, hozir ham usha yyerlarda yashab kelmoqdalar. Tojikiston shaharlari Xo'jand va O'ratepa O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olingan keyin Buxoro xonligi protektorat qilib saqlab qolingan. Unda hozirgi Tojikistonning katta qismi ham bulgan. 1924 yilda Tojikiston avtonom sovet sostialistik respublikasi bo'lib, 1929 yilda ittifoqdosh respublikasi tashkil qilindi.

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARINING KATTALIGI VA CHEGARALARI

Markaziy Osiyo mamlakatlarining maydoni 3994 ming km.kv. bo'libsobiq shuolar davlati maydonining 17,7%ini tashkil etadi. Xududning kattaligi jixatdan hamdo'stlik mamlakatlari orasida Rossiya Fedyeratsiyasidan keyin ikkinchi urinda turadi.Markaziy Osiyo davlatlarining xududi shimoldan janubga va sharkdan garbga tomon katta masofaga cho'zilgan. Markaziy Osiyo davlatlari maydonining sharkiy va garbiy nuktalri orasidagi masofa 3000 ming km shimoliy va janubiy chekka nuktalari orasidagi masofa 2700 km ga teng.

Markaziy Osiyo davlatlari shimoli-g'arbiy va shimoldan juda katta masofada Rossiya Fedyeratsiyasi bilan chegaradosh, sharkda Xitoy Xalk respublikasi bilan, janubda Eron, Afg'oniston bilan chegaradosh. Afg'onistonning kambar bir kismi Tojikistonning Pomir qismini Pokiston va Hindistondan ajratib turadi. Markaziy Osiyo davlatlarining janubida Eron va Qozog'iston bilan chegaradosh bo'lishi ushbu davlatlar orkali Hind okeani havzasi mamlakatlari bilan birinchi navbatda Pokiston va Hindiston bilan har taraflama keng o'zaro aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlarini byeradi.

Markaziy Osiyo davlatlari chegaralarining muhim xususiyatlaridan biri ularning aksariyati tekisliklar orqali o'tishidir. Bu esa qo'shni davlatlar bilan keng ko'lamda transport aloqalarini rivojlantirish imkoniyatini byeradi.

Ayniqsa uning shimoliy g'arbiy va shimoliy qismlaridagi chegara tekisliklaridan o'tishi Rossiya Fedyeratsiyasi bilan keng ko'lamda aloqa qilish imkoniyatini byeradi.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING IQTISODIY-GEOGRAFIK URNI.

Har kandy davlatning iqtisodiy geografik o'rni xususiyatlari avvalo uning qayerda joylashganligi bilan bog'liqdir. Ma'lumki Markaziy Osiyo davlatlari Evrosiyo matyerigining qoq markazida, barcha dunyo okeanlaridan 3-4 ming km uzoqda joylashgan. SHu sababli dengizga tutash davlatlarga xos barcha qulayliklardan Markaziy Osiyo davlatlari mahrumdir. Demak, Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy-geografik o'rning barcha ijobiy va salbiy xususiyatlari ko'p jihatdan ana shu holatdan, shuning dek uning qo'shnihilik xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Joylarni, davlatlarning iqtisodiy-geografik o'rin xususiyatlarini atroflicha o'rganish,tahlil qilish va baholash iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning hamisha muhim tadqiqot ob'ekti bo'lib kelgan. Unga etarli baho byerish respublikaning hozirgi mustaqil rivojlanish pallasida alohida kasb etadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy urni, bir-biri bilan qo'shni joylashganligi hamda ularning urtasidagi kupchilik chegara tekislik orkali utishi, ularning bir-birlari bilan keng kulamda temir yo'l, avtomobil yo'llari, quvur transporti yo'llari orkali keng ko'lamda aloqa qilish imkoniyatini byeradi. Bundan tashqari ular bir-birlari bilan yuqori kuchlanishli elektr simlari bilan ham bog'langan.

Demak, Markaziy Osiyo mamlakatlarining mikrogeografik o'rni, ularning o'zlarining bir-birlari bilan iqtisodiy aloqalar olib borishda qulay hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining mezogeografik o'rnini analiz qilish ko'rsatadiki, bunda Markaziy Osiyo davlatlarining Rossiya Fedyeratsiyasi bilan katta masofada chegaradoshligi, ularning Rossiyaning turli iqtisodiy rayonlari, jumladan Volga buyi, Ural, G'arbiy Sibir va SHarkiy Sibir bilan keng ko'lamda iqtisodiy aloqa olib borishi uchun qulaydir.

SHu sababli ham Markaziy Osiyo mamlakatlari Rossiya Fedyeratsiyasi bilan temir yo'llari avtomobil yo'llari va quvur transporti bilan keng kulamda bog'likdir. Hatto Kozogiston davlati Rossiya Fedyeratsiyasi bilan yagona enyergiya bilan ham bog'liqdir.

Markaziy Osiyo davlatlarining g'arbiy qismida Kaspiy dengizi bilan chegaradoshligi ushbu davlatlarning Kavkazorti davlatlari hamda Rossiya Fedyeratsiyasining Dog'iston Respublikasi, Krasnodar o'lkasi, Qalmiq respublikasi bilan dengiz yo'li orkali aloka kilish imkoniyatini byeradi.

Markaziy Osiyo davlatlarining Xitoy, Eron, Afgoniston va Pokiston kabi davlatlar bilan qo'shni joylashganligi, ushbu davlatlar bilan ham keng ko'lamda iqtisodiy aloqalar olib borish imkoniyatini byeradi. Markaziy Osiyo davlatlari ushbu qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqa qilishda temir yo'l, avtomobil yo'li, dengiz yo'li, quvur transporti yo'llari orqali bog'langan. Bularga Ayago'z-CHuchuk, Urumchi temir yo'li, Tajan-Saraxs temir yo'li, Turkmanboshi, Eronning shimoliy qismi kabi temir yo'li, dengiz yo'llari va avtomobil yo'llari misol bo'la oladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining mezogeografik o'rnida ma'lum darajada noqulayliklar mavjuddir, ya'ni ular hamdo'stlikdagi mustaqil davlatlar bilan iqtisodiy aloqa qismida boshqa davlatlar hududi orqali o'tishga tug'ri keladi. Bu esa mol ayriboshlashda boj to'lashga, bu esa tovarlar qiymatining ortishiga olib keladi. SHu sababli ham hamdo'stlik davlatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlarining aloqalarini yanada takomillashtirish kelajakdagi asosiy vazifa hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlarining makrogeografik o'rnini analiz qilish, shuni ko'rsatadiki, ushbu davlatlar, ayniqsa iqtisodiy jihatdan kuchli rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqa qilish uncha qulay emas. Markaziy Osiyo davlatlari rivojlangan davlatlar bilan dengiz yo'li bilan bog'langan emas. Bu esa mol ayriboshlashda qator muammolarni keltirib chiqaradi. SHu sababli ham, Markaziy Osiyo davlatlari chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni yanada takomillashtirish borasida ancha ishlarni amalga oshirmokda. Ayniqsa Buyuk Ipak yo'lini tiklash, Pekin-Istambul temir yo'lini ko'rib ishga tushirish sohasida ancha ishlar amalga oshirmokdalar.

SHunday kilib Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografik o'rni mikro, mezo va makrogeografik qulay yoki noqulayligini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ushbu davlatlarning makro va mezogeografik o'rni unchalik qulay emas. Bu esa ushbu davlatlarning makrogeografik o'rnidagi noqulayliklarni yaxshilash borasidagi ma'lum ishlarni amalga oshirilishi kyerak.

Mustaqil ishlash uchun savollar

1. O'rta Osiyo davlatlarining tashkil topishi to'g'risida nimalar bilasiz?
2. O'rta Osiyo davlatlari qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh?
3. O'rta Osiyo davlatlarining mikro, mezzo va makro iqtisodiy geografik o'rning roli nimalardan iborat?

O'RTA OSIYO TABIATI TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI.

REJA

1. O'rta Osiyo yyer yuzasi tuzilishi a) tekisliklari b) tog'liklari,
2. O'rta Osiyo iqlimi va iqlim resurslari
3. O'rta Osiyo ichki suvlari va suv resurslari.
4. O'rta Osiyo tuproqlari
5. O'rta Osiyo O'simlik va hayvonot dunyosi.
6. O'rta Osiyo tabiiy resurslaridan foydalanilishidagi hozirgi kundagi muammolar va ularni muhofaza qilish.

Tayanch iboralar: tabiiy sharoit, tabiiy resurs (tugaydigan, tugamaydigan), tekislik, tog', qir, vodiy, plato, botiq, cho'qqi, delta, atmosfiera tsirkulyatsiyasi, quyosh radiatsiyasi, tsiklon, antitsiklon, iqlim mintaqasi, havo massalari, iqlim, ob-havo, byerk havza, daryo, ko'l, yyer osti suvi, mineral suv, grunt suv, artezian suv, kanal, suv ombori, zovur, ona jins, bo'z

tuproq, qora tuproq, kashtan, chirindi, tuproq unumdorligi: ksyerofit, mezofit, galofit, efemyer, efemyeroid, sudralib yuruvchilar, o'txo'r hayvonlar, yirtqich hayvonlar, qushlar, qizil kitob, O'rta Osiyo yyer yuzasi tuzilishiga ko'ra ikki qismga bo'linadi.

Tekislik qismi. O'rta Osiyoning shimoliy va shimoliy g'arbiy qismini egallagan. SHimolida Qozog'iston past tog'lari va Turg'ay platosi joylashgan, Markaziy Qozog'iston past tog'lari maydoni 700 ming km kv ga yaqin bo'lib g'arbdan sharqqa 1500 km ga shimoldan janubga g'arbida 950 sharqida 350-400 kmga cho'zilgan. Eng baland tog'i 1565m (Qarqarali), Qizilray 1550 m, Ulitov 1133 m. CHingiztov 1301 m. O'rtacha nisbiy balandligi 100-600 m ga teng.

To'rg'ay platosi To'rg'ay darvozasi orqali 2 ga bo'lingan bo'lib darvozaning absolyut balandligi 100-125 m, platoniki esa 200-300 m. To'rg'ay platosining janubi g'arbida myeridian bo'ylab 400 km ga cho'zilgan Mug'ajar tog'i joylashgan (eng baland nuqtasi Byer-CHogur 654 m). Ulardan janubda Turon tekisligi joylashgan bo'lib shimoldan janubga 2000 km, g'arbdan sharqqa 2500 km ga cho'zilgan, maydoni 2 mln. km kv. ga yaqin. Past tekislikning markaziy qismida Orol dengizi botig'i joylashgan bo'lib absolyut balandligi 50 m. ga yaqin. Orol botig'ining janubda Qoraqum va Qizilqum cho'llari joylashgan.

Qoraqum cho'llari shimoldan Ustyurt platosi va Amudaryo deltasi bilan chegaradosh. Uning markaziy qismida nisbiy balandligi 60-70 m pog'ona bo'lib Zaunguz yoki shimoliy Qoraqum platosi nomi bilan ma'lum. Qoraqumda bir necha botiqlar mavjud (Unguz, Akchakaya). Ularning ba'zilar osti dengiz sathidan pastda joylashgan. Masalan: Akchakaya botigi -92m. qoraqum cho'lining g'arbida Kaspiybo'yi past tekisligi joylashgan. Uning balandligi 25-26 m. Kaspiy dengizining shimoliy sharqiy qismida Mang'ishloq yarimoroli mavjud. YArimorolning janubiy qismida bir necha botiqlar joylashgan, ularning ba'zilarining osti dengiz sathidan pastda: qoragiyo(-132m), qashqarota(-47m), CHagali(-47m) va boshqalar. qoraqum cho'llarining shimoliy qismida Ustyurt platosi joylashgan bo'lib, u hamma tomondan chinklar bilan O'ralgan. Uning dengiz sathidan balandligi 190-340 m. Amudaryo va Sirdaryolar oralig'ida qizilqum cho'li joylashgan (maydoni 300000 km kv ga yaqin). Yer yuzasining dengiz sathidan O'rtacha balandligi 50-300 m va xilma-xildir. Uning markaziy qismida bir necha past tog'lar (Sulton Uvays 485 m, Bukantog' 764 m, Tomditog' 992 m, quljuqtog' 874 m, Ovminzatog' 639 m, Aritsontog' 693 m), botiqlar (Mingbuloq, Oyoqog'itma, Koraxata), qadimgi daryo O'zanlari (Akchadaryo, Janadaryo va boshqalar) hosil bo'lgan.

Qizilqumning shimoliy g'arbiy qismida Amudaryo deltasi joylashgan. U janubda Tuyamuyin torligidan (balandligi 125 m) boshlanib Orol dengizigacha (54 m) cho'zilgan. Deltaning umumiy maydoni 42220 km kv.

Orol dengizining shimoli-sharqiy qismida Katta Bo'rsiq, Kichik Bo'rsiq, Orolbo'yi Qoraqumi nomli cho'llari joylashgan. Balxash ko'lining janubiy qismida esa Sarieshikatrov, Tauqum, Mo'yinqum singari cho'llar mavjud.

Tog'lik qismi. SHimoli-sharqda Savur tizmasidan boshlanib, janubi-g'arbda Kopetdog' tog' tizmasida tugaydi.

Turkistonning ko'pchilik tog' tizimlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ularni sharqda bir tugundan boshlanib, g'arb tomon bir necha tizmalarga bo'linib ketishi, dengiz sathidan balandligini shu yo'nalishda pasayib borishi, tizmalarning birini ikkinchisidan tog' oraliq botiqlari orqali ajralib turishidir.

O'rta Osiyo tog'li qismining shimoli-sharqida Zaysan tog'oraliq botig'i joylashgan. Zaysan botig'ining janubida Savur tizmasi ko'tarilgan Uning baland nuqtasi (Muztog', 3816 m) Xitoy hududida joylashgan, Qozog'istonda esa balandligi 2930 m dan oshmaydi. Savurning g'arbiy qismida Manrak (1400-1500m), janubida Salmas-Jiltau past tog'liklari joylashgan.

Savur tizmasining janubida Torbog'otoy tizmasi joylashgan bo'lib, uning eng baland nuqtasi 2991 m ga ko'tarilgan, g'arbdan sharqqa 250 kmga cho'zilgan.

Torbog'otoy janubida Olako'l botig'i bo'lib, unda Olako'l Sassikko'llar hosil bo'lgan. Botiqning dengiz sathidan balandligi 370 m.

Olako'l botig'ining janubiy va g'arbi-janubiy qismini Jung'oriya Olatog'i egallagan va kenglik bo'ylab 450 km ga cho'zilgan. Eng baland nuqtalari Tishkan (4465m) va Sarikam (4242 m) dir. Jung'oriya Olatog'i bir qancha tizmalar va botiqlardan (Bartaliya) iborat. Jung'oriya Olatog'idan janubda Ili botig'i joylashgan, uzunligi 450 km, kengligi 120 km dan ortiq, balandligi 420-750 m dir.

O'rta Osiyo tog'li hududining katta qismini Tyanshan tog' tizmasi egallagan. Orografik tuzilishi jihatdan Tyanshan 3-ta qismga bo'lingan.

A) SHimoliy Tyanshan, bunga asosan 3-ta tizma: Iliorti Olatog'i (eng baland nuqtasi Talgar, 4973m) Kungay Alatau (CHotqo 1471m), va Kirg'iz (Alamiddin, 4875 m kiradi. SHimoliy Tyanshanning janubida Issikko'l botig'i bo'lib, botiqdagi ko'l yuzasi balandligi 1604 m.

B) Markaziy Tyanshan. Uning umumiy ko'rinishi uchburchak shaklida ya'ni g'arbdan sharqqa kamayib boradi, G'alaba (7439m), Xontangri (6995m) larga borib taqaladi. Markaziy Tyanshan 3 tomondan baland tog' tizmalari bilan O'ralgan. SHimoldan Tyerskay Alatau (Korako'l 5216 m) Janubi g'arbdan Farg'ona tizmasi (4680m), janubi sharqdan KO'kshag'altog' (Dankov 5982 m) YUqorida nomlari keltirilgan tizmalar orasida kenglik hamda shimoli sharqqa cho'zilgan bir qancha tizmalar, Inilchektau 5691, Sarijaz 4799, Burkulday 5049, Norintoo 4530, Etimtoo 4991, Susamirtoo 3947, va ularni bir biridan ajratib turuvchi botiqlar (Norin, Otboshi, Alabuka, Toxtogul va boshqalar) joylashgan va ular Tyanshan «sirt»lari deb ataladi.

V) G'arbiy Tyanshan. Uning shimoli sharqida Talas Alatau (Lapas 4484) ko'tarilgan. Bu tizmaga pyerpendikulyar holda (shimoli-sharqdan janubi g'arbga) bir necha tizmalar, CHotqol (4503m) qurama (Boboiob 3769m), Sandalash (4211m), Piskom Beshtor (4299m), Ugom (Sayram (4238m)) Korjantog' joylashgan, qozog'itsondagi qaratau ham G'arbiy Tyanshanga kiradi. Uning eng baland nuqtasi Mingjilqi (2176 m) ga ko'tarilgan.

Tyanshaning janubi sharqiy qismida Farg'ona botig'i joylashgan bo'lib u garbdan sharqqa 370 kmga cho'zilgan, kengligi esa 190 km. ga etadi, balandligi g'arbdan (320 m) sharqqa (1100m) ko'tarilib boradi.

Farg'ona botig'ining janubida Hisor-Oloy tog' tizimi joylashgan. Bu tizimga Oloy (580m), Turkiston(5621m), Nurota (Hayotboshi 2169m), Zarafshon (CHimtarg'a 5494m), Ziyoviddin-Zirabuloq (Zindontog' 1116 m), Hisor (4419m) va uning janubi garbiy tarmoqlari: Hazrati Sulton (4688m), Sumsar-SHyertog' (2692m), YAKkabog' (2998m), Beshnov (3448m), Eshonmaydon (2519m), Xontaxta (2936m), Maydanak (2753m), CHaqchar (3723m), Sarimas (1183m), KO'hitangtog' (3137m) va boshqalar. Hisor tizmasining janubida Janubiy Tojikiston botig'i joylashgan. Botiqning shimoliy qismida Hisor vodiysi pastda O'rta balandlik tog' tizmalari (Bobotog', Oqtog', Vaxsh, Hazratishoh va hokazo).

O'rta Osiyo tog'li qismining janubiy-sharqiy qismida Pomir joylashgan. Uning umumiy ko'rinishi to'rtburchak shakliga ega bo'lib 3 tomonidan baland tizmalar bilan O'ralgan. Pomirning shimolida Oloyorti, sharqida Sariko'l, janubida Vahan tizmalari ko'tarilgan g'arbda esa Panj daryosi oqib O'tadi. Pomirning shimoli-g'arbiy qismida ham baland tizmalar, Pyotr 1, Fanlar Akademiyasi, Darvoz ko'tarilgan. Mazkur tizmalardan janubda Pomir 2 ta qismga bo'linadi: a) G'arbiy Pomir bu qismida bir qancha tizmalar: Vanch, YAZg'ulom, SHug'non, SHohdara, Ishkoshim va boshqalar. YUzasi daryolar bilan zich va chuqur kesilgan: b) SHarqiy Pomirga Muzko'l, SHimoliy Alichur, Janubiy Alichur va keng daryo vodiylari bilan band.

O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy qismida Kopettog' tizmasi, Rizo(2942m) joylashgan. Uning shimoli-g'arbida esa Kyurendog 971m, Katta Balxan 1880 m, Kichik Balxan 777 m singari tizmalar ko'tarilgan.

Urta Osiyo iqlimi. Urta O siyo hududi shimoldan janubga qarab katta masofaga (2300 km dan ziyod) cho'zilgan shuning uchun uning iqlimi shimoldan janub tomon O'zgarib boradi. SHimoldan janubga har 100 km masofaga yillik harorat O'rtacha 0,9 ga, iyo'l harorati 0,3-0,4 ga, yanvar harorati esa 1,3-1,5 ga ko'tarilib boradi.

O'rta Osiyo iqlimining shakllanishida quyidagi omillar asosiy rol O'ynaydi.

Geografik O'rin. O'rta Osiyo Evroosiyo Evroosiyo deyarli markazida, okeanlardan juda uzoqda, shimoliy yarim sharning quyi geografik kengliklarida joylashgan. SHu sababli bu hududda keskin kontinental iqlim shakllangan. Janubiy kengliklarda joylashganligi sababli O'rta Osiyo hududi nisbatan katta quyosh radiatsiyasini oladi. Yillik quyosh radiatsiyasi uning shimolida 1sm ga 110 kkal, janubida esa 160-170 kkal tengdir. Uning shimoliy qismi (Qustanay) bir yilda 2050 soat quyosh nurini oladi, janubiy tomonga oshib boradi. Atsanada- 2102 soat, Atirauda- 2683 soat, CHimkentda 2892 soat, Tyermizda esa 3059 soat. Yillik harorati ham shimoldan janubga ko'tarilib boradi. Petropavlovskda 1,2, qizilO'rdada 8,9, Mirzacho'lda 13,3, Tyermizda 27,3. YAnvarning O'rtacha harorati. Petropavlovskda – 19, CHimkentda- 4,3, Toshkentda –1,1, qarshida-0,2, Tyermizda 2,8, SHyerobodda 3,6, Esenkulida 4,2. Iyo'lning O'rtacha harorati. Atsanada 20,4, Surxon – SHyerobod botig'ida 31, 32, Kaspiy dengizi qirgoqlarida 28-30.

2. Atmosfyera sirkulyatsiyalari (havo massalarining almashinuvi) O'rta Osiyo iqlimining shakllanishida muhim rol O'ynaydi. O'rta Osiyo hududida g'arb va janubiy g'arbdan (2-3 km dan 12 km gacha balandliklarda) Atlantika okeanidan nam havo massalari kirib keladi. Namlikni asosan shu havo massalari olib keladi va yomg'irlar bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'rta Osiyoning tekislik qismida yog'ingarchilikning miqdori tog'lik qismlarga qarab kamayib boradi. SHimoliy qismi mO'tadil mintaqada joylashganligi sababli yog'ingarchilik deyarli yil bo'yi bir xil taqsimlangan, lekin yog'ingarchilikni maksimumi eng shimolida iyo'l, janubroqda may oylariga to'g'ri keladi. YOg'ingarchilikning O'rtacha yillik miqdori 250-400 mm ni tashkil etadi.

O'rta Osiyo tekislik qismining subtropik mintaqasida joylashgan hududlarida esa yog'ingarchilikning asosiy qismi bahor fasliga to'g'ri keladi, O'rtacha yillik miqdori 200-300 mm. Amudaryoning quyi hududlarida 80-100 mm dan oshmaydi.

O'rta Osiyoning tog'li qismida yog'ingarchilik hamma fasllarda yog'ib turadi, yillik miqdori 800-1000 mm ga yaqin, maksimumi 2300 ga yetadi, biroq ba'zi qismlarida esa (SHarqiy Pomir) 76 mm oshmaydi.

O'rta Osiyo hududining shimoliy qismi ochiq, baland tog'lar deyarli yo'q. SHuning uchun shimoldan Arktika quruq va sovuq havo massalari bimalol kirib keladi. qish faslida shimoliy –sharqdan Osiyo antisiklonining, g'arbiy tarmog'idan ham sovuq havo massalari keladi. SHuning uchun Turkistonshimoliy qismining qishi ancha sovuq. Bu hududlarda yanvarning O'rtacha harorati 35-45, minimum harorat esa 50-55, ga, janubiy hududlarida 16-25 ga pasayadi.

Janubdan O'rta Osiyo hududiga tropik issiq havo massalari ham kirib keladi. Ular shimoldan kelayotgan havo massalari bilan to'qnashib, Turkistonning janubiy qismida atmosfer frontni hosil qiladi, bu esa siklonni keltirib chiqaradi, yog'inlar yog'ishiga olib keladi. SHuning uchun O'rta Osiyo tog' tizmalarining janubiy g'arbiy va g'arbiy yonbag'irlariga ko'pyog'in tushadi. Bahorda atmosfer fronti shimol tomonga siljiydi, buning natijasida eng ko'p(maksumumi) yog'in mart-aprel oylarida yog'adi. YOzda atmosfer fronti yo'qoladi, chunki shimoldan kelayotgan mO'tadil kengliklar havo massalari cho'llar, chala cho'llarda O'zgaradi va tropik havo massalariga yaqinlashadi, natijada atmosfer frontining shimoli va janubida havo harorati tenglasha boshlaydi, bu siklonlar faoliyatini susaytiradi va O'rta Osiyo hududi ustida quruq, ochiq ob-havo shakllanadi. Faqat baland tog'larda siklonlar hukm suradi, ular tog' tizmalarining to'sishi natijasida faollashadi. O'rta Osiyoning shimoliy hududlariga yoz kunlari Atlantika okeanidan g'arbiy siklonlar kirib keladi. YOz kunlari janubdagi cho'llarda yog'in yog'maydi.

Yer yuzasining tuzilishi O'rta Osiyo iqlimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, O'rta Osiyo hududi shimoldan ochiq, shu sababli Arktika sovuq havo massalari, hamda Osiyo antitsiklonining janubiy-g'arbiy tarmoqlari bimalol kirib kela oladi. Ikkinchidan, hudud janubdan baland tog'lar tropik havo massalarining kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Ular faqat Tajan va Murg'ob daryolari vodiylari, Kaspiy dengizi ustidan keladi. Bundan tashqari, Himolay tog'lari Hind okeanidan keladigan musson yomg'irlarini o'tkazmaydi. Uning g'arbi, janubiy

g'arbida joylashgan tog'lar (Katta Kavkaz, Kichik Kavkaz, Armaniston yassi tog'liklari, Zagros) g'arbdan (O'rta dengizdan) kelayotgan siklonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi va namgarchilikning katta qismini to'sib qoladi, yog'ingarchilikning miqdoriga ta'sir ko'rsatadi, bu ayniqsa Turkmaniston hududida yaxshi seziladi. SHuning uchun bu mamlakat hududida qishda ko'pincha quruq va ochiq havo kuzatiladi va harorat ancha yuqori bo'ladi. Bu hududda yozda tropiklarga nisbatan issiqroq. Iyulning o'rtacha harorati 26-320 (tropiklarda esa 24-280). Absolyut maksimum 50,20, yer yuzasida 790 gacha qiziydi. (Repetekda).

O'rta Osiyotog'larida har 100 metrga ko'tarilganda harorat 0,6-0,90 ga pasayadi, 3000-3500 m balandliklarda yilning o'rtacha harorati 00 dir.

O'rta Osiyo tog'lik qismida iqlim mintaqalari kuzatiladi. Tog'larning pastki mintaqalari kuzatiladi. Tog'larning pastki mintaqalari tekislik qismi cho'l mintaqasiga o'xshashdir. Iqlim mintaqasining shakllanishida, ularning yonbag'irlari va baland qismlariga g'arb va janubi-g'arbdan kelayotgan havo massalarining roli kattadir. Tog'larning bu yon bag'irlarida yog'ingarchilik ko'p, sharqiy yon bag'ri va ichki qismlarida (SHarqiy Pomir, Markaziy Tyanshan) juda kamdir.

Inson ta'siri. Inson O'rta Osiyohududi iqlimiga global miqyosida ta'sir eta olmaydi. Uning ta'siri o'zlashtirilgan yerlarda, suv omborlari va kanallar atroflarida sezilajdi. Aholining xo'jalik faoliyati natijasida yangi o'zlashtirilib, sug'oriladi, yangi shaharlar, aholi punktlari tashkil qilindi. Buning oqibatida havo harorati, shamollar yo'nalishi va kuchi, namgarchiliklar miqdori bir muncha o'zgaradi. Vohalarda xususan, sezilardli o'zgarishlar ro'y byeradi. Bunday yerlarda yozda qo'shni hududlarga nisbatan harorat 1,5-3,00 pastroq, sutkalik harorat amplitudasi kamroq, nisbiy namlik 10-15% oshadi. Orol dengizi sathining pasayishi ham atrofidagi hududlar iqlimiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Taniqli rus iqlimshunosi Alisov (1969) O'rta Osiyo hududida quyidagi iqlim mintaqalari va oblastlarini ajratgan:

1. Mo''tadil mintaq A) dasht kontinental oblasti. B) SHimoliy Turon kontinental oblasti.
2. Subtropik mintaq. A) Janubiy Turon kontinental oblasti. B) Pomir-Oloy tog' oblasti.

Tayanch tushunchalar:

1. Atmosfiera tsirkulyatsiyasi – Atmosfyeraning yer yuzasiga yaqin qismida havo massalarining harakati.
2. Tekshirish savollari:
3. O'rta Osiyo iqlimining shakllanishida qanday omillar asosiy rolni o'ynaydi?
4. O'rta Osiyo iqlim elementlarining o'zgarishi qanday omillarga bog'liq?
5. Turkiston hududi qaysi iqlim mintaqalari va oblastlarida joylashgan?

O'RTA OSIYONING ICHKI SUVLARI.

REJA:

1. O'rta Osiyoichki suvlariga umumiy tavsif va ularning shakllanilshidagi asosiy omillar
2. O'rta Osiyo daryolari.
3. O'rta Osiyo ko'llari.
4. O'rta Osiyo yer osti suvlari
5. O'rta Osiyoning hozirgi zamon muzliklari
6. O'rta Osiyoning suv omborlari va kanallari.

Ichki suvlar deganda daryolar, ko'llar va yer osti suvlari, hozirgi zamon muzliklari, suv omborlari va kanallar tushuniladi.

O'rta Osiyo ichki suvlarining shakllanishiga uning iqlimi, yer yuzasi va geologik tuzilishi katta ta'sir ko'rsatadi.

Gidrologik xususiyatlari jihatidan O'rta Osiyohududi ikkita qismga bo'linadi.

Tog'li qismi – ichki suvlar hosil bo'ladigan hudud. Bu hududda yog'ingarchilik miqdori ko'p. 4000 mingga yaqin (maydoni 1800 km kv. yaqinroq) muzliklar, doimiy qorlar mavjud. SHuning uchun daryolar zichligi katta.

Tekislik qismi – Suv sarflanadigan hudud. Tog'larda hosil bo'lga suv resurslari tekislik tomon harakat qilib, bu yerda bug'lanishga, ekinzorlarni sug'orishga va boshqa ehtiyojlarga sarflanadi, yer ostiga shimiladi.

DARYOLARI.

O'rta Osiyo daryolari quyidagi havzalarga kiradi:

SHimoliy Muz okeani havzasi – Irtish va uning irmoqlari – Ishim, Tobol, Quba, Ulug'ba, Buxtarma va boshqalar.

Qozog'iston byerk havzasiga – Tengiz – Kursalji ko'llariga quyiladigan daryolar – Nura, Qulano'tpes, Taldi va b.

Balxash – Olako'l havzasiga – Ili, Qorator, Lepsa, Oqsu, Ayago'z, Bo'kamas, O'rjar, Emal.

Kaspiy dengizi havzasiga – Emba, O'zen, Atrek.

Orol havzasiga – Amudaryo, Sirdaryo.

Issiqko'l havzasiga – 50 dan ortiq daryolar. Eng yiriklari. Juka, Jetig'iz, Qoraqol, Oqsuu, Jirg'alan.

O'rta Osiyo byerk havzasiga 30 dan ortiq daryolar kirib ulardan yiriklari; Murg'ob, Tajan, Fyeruza.

Daryolar O'rta Osiyo hududi bo'ylab, notekis joylashgan. Tekislik qismida daryolar kam, tog'li qismida aksincha.

Daryolar zichligi shimoldan janubga siyraklashib boradi. Har 100 km da ularning uzunligi tog'larda 12-16 km, tog' oldi hududlarida 2-4 km, dasht mintaqasida 4-6 km, chala cho'llarda 2-4 km, cho'llarda 1-2 km bo'ladi.

Tog'larning g'arbiy va janubiy-g'arbiy yon bag'irlariga yog'ingarchilik ko'ptushganligi sababli daryolar zichligi katta. SHuning uchun bu yonbag'irliklar «namgarchilik qutblari» deb yuritiladi. SHarqiy yon bag'irlariga yog'in kam tushganligi uchun daryolar zichligi kamroq va «qurg'oqchilik qutblari» deb ataladi.

O'rta Osiyohududida daryolar oqim moduli ham tog'lardan tekislik tomon kamayib boradi. Tog'larda har bir km kv dan o'rtacha 5-11 l suv hosil bo'lsa (Pomir, Tyanshan, Jung'oriya Olatog'i tog' tizimlarining g'arbiy va janubiy-g'arbiy yon bag'irlarida 20-50 l), chala cho'llarda – 0,5 l, cho'llarda 0,1-0,3 l dir.

O'rta Osiyo daryolari turli manbalardan (muz, qor, yomg'ir, yer osti suvlari) to'yinadi. Lekin ularning hissasi har-xil. Ba'zi daryolar (Sarisuv, To'rg'ay, Nura va b.) asosan mavsumiy qorlarning erishidan hosil bo'lgan suvlaridan, ba'zilar (Vaxsh, Panj, Zarafshon, Norin va b.) muz qorlari suvidan, ba'zi birlari (SHyerobod, G'uzor, Ohangaron, Keles va b.) yomg'ir suvlaridan to'yinadi. V.L.SHultsning ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyo daryolarining ko'pchiligi o'z suvining 10-15% muzliklardan (ba'zi daryolar: Panj, Zarafshon, So'x, CHu, Norin 20-30%) qorlar, yer osti suvlaridan 70-75%, yomg'irlardan esa 5-10% suvlaridan oladi. Bu daryolar boshlanadigan hududlarning absolyut balandligiga bog'liq. 3400-4900 balandliklardan boshlanuvchi daryoning to'yinishida asosiy manba muz, qorlar erishidan hosil bo'lgan suvlardir.

3400 m dan pastda boshlanuvchi daryolar – asosan qorlardan, undan pastroqda boshlanuvchi daryolar esa, mavsumiy qorlar va yomg'ir suvidan to'yinadi.

Daryolarning to'yinish xususiyatlariga qarab, O'rta Osiyodaryolarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

Muzlik - qor suvidan to'yinadigan daryolar. Bu guruhga kiruvchi daryolar. (Amudaryo va uning bir qancha irmoqlari, Zarafshon, So'x, Isfara, Isfayramsoy, SHohimardon, Issiqko'lga quyiluvchi daryolar va boshqalar) tog'larning juda baland qismidan boshlanib, ularda yil

mobaynida ikki marta suv ko'payadi. 1 – mart-aprel oylarda – mavsumiy qorlarning erishi va yomg'ir suvlaridan, 2-iyul-avgust oylarida – tog'lardagi muzliklar va doimiy qorlarning erishidan daryolarning suvi ko'payadi.

Qor-muzlik suvidan to'yinadigan daryolar. Bu guruhdagi daryolar (Norin, Qoradaryo, CHirchiq, Surxondaryo, Piskom, CHotqol, To'polondaryo va boshqalar) tog'larning pastroq qismida boshlanib, eng syersuv fasli iyun-iyol'dir. Bular ham mart oyidan suv ko'paya boradi.

Qorlar suvidan to'yinadigan daryolar. Bu guruhga kiruvchi daryolar O'rta Osiyo tekislik qismining shimolida (Qozog'iston byerk havzasiga kiruvchi daryolar) va tog'li hududlardagi ba'zi bir daryolar (Qashqadaryo, G'uzordaryo, G'ovasoy, Sangardak, Sangzor va b.) kiradi. Bular asosan mavsumiy qorlardan to'yinib, to'liq suv bahor faslida bo'ladi. Ularning oqimining deyarli 60-90% i shu faslda oqadi. YOz kunlari esa ularning ko'pchiligi qurib qoladi yoki yer osti suvlaridan to'yinadi.

Qor yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar. Bu guruhga kiruvchi daryolarning suv yig'adigan havzalari dengiz sathidan pastda joylashib, mart-aprel oylrida (mavsumiy qorlarning erishi va yomg'irlar tushishidan) suvi ko'payadi. YOz kunlari juda sayozlashadi. Bularning havzasida yomg'irlar jala holida yog'sa sellar kuzatiladi. Bu guruhga misol qilib, SHyerobod, Atrek, Murg'ob, Tajan, Ohangaron, Aris, Keles va shuningdek Kopetdog', qurama, CHotqol tog'laridan boshlanuvchi daryolarni ko'rsatish mumkin.

Yer osti suvidan to'yinadigan daryolar. Bu guruhga tog' oldi hududlari, yirik daryolar yon bag'irlaridan boshlanuvchi daryolar kirib, ular «qorasuvlar», «siob» lar deb ataladi. Bularning suv sarfi yil mobaynida kam o'zgaradi, ba'zilarida kuz oylari kamayadi.

O'rta Osiyodaryolari suvning harorati turlichadir. Muz qorlardan o'z suvini oluvchi daryolarning boshlanish qismlarida suvning harorati) daraja atrofida, tekislikka chiqavyerishda o'rtacha harorati 10-12 daraja, tekislikda esa 14-15 daraja ga ko'tariladi. qish kunlari bunday daryolar muzlaydi. Masalan, Sirdaryo quyi oqimida 3 oy, o'rta oqimida 2 oyga muzlaydi, Amudaryo 1-2 oy, Zarafshon 1-1,5 oy, CHu, Talas 3 oy, Ili, Lepsa, qoratol 2-3 oy muzlaydi.

Tog'larda daryolarning tez oqishi sababli muzlash hodisasi kam, shovush, shug'a hodisalari kuzatiladi. Agar daryolar yoyilib oqsa va nishabi kamroq bo'lsa muzlaydi.

O'rta Osiyotekislik qismining shimolida oquvchi daryo oktyabrning oxiri, noyabrning boshlanishidan 140-170 kuncha yoppasiga muzlaydi.

O'rta Osiyojanubi-g'arbiy qismida oquvchi daryolar har yili muzlamaydi. qish sovuq bo'lgan yillari ularda shovush-shug'alar kuzatiladi.

O'rta Osiyo daryolari tog'lardan boshlanib, tez oqqanligi, qirg'oqlari emirilishga chidamsiz tog' jinslaridan tashkil topganligi sababli loyqa oqiziq'larga boydir. Ular suvining har bir m³ da 0,01 – 22 kg gacha loyqalar mavjud. Bu har xil daryolarda bir xil emas, Ili daryosi suvining 1 m³ da 0,65 kg, CHu da 0,275 kg, Sirdaryoda 2,7 kg, Amudaryoda 3,7 kg, Qashqadaryoda 1,97 kg, Murg'obda 5,4 kg, Tajanda 16 kg, Atrekda 22 kg gachadir.

O'rta Osiyo daryolari o'rta hisobda bir yilda har bir kv km ga 100-200, ba'zi birlari 500, ayrimlari esa 2500 tonnadan ortiq tog' jinslarini yuvib, tekislikka olib kelib yotqizadi. Turkistondaryolari ichida bu jihatdan Amudaryo ajralib turadi. U o'rta hisobda har yili tekislikka 100-120 mln tonna loyqa keltiradi.

O'rta Osiyo daryolarining xalq xo'jaligida ahamiyati juda kattadir. Ular ekinzorlarni sug'orishda, arzon elektroenergiya olishda, shahar, qishloqlar aholisini, sanoat tarmoqlarini suv bilan ta'minlashda va boshqa maqsadlarda keng foydalaniladi. O'rta Osiyo hududidagi daryolar suvi ayniqsa, tog' oldi va tekislik qismlarida, ifloslanib ketgan va ketmoqda. Buning oldini olish uchun zarur chora – tadbirlar ishlab chiqilib, ular amalga oshirilishi kyerak.

KO'LLARI.

O'rta Osiyo hududida ko'llar uning tekislik va tog'lik qismlarida tarqalgan. Ularning ko'pchiligi tekislik qismidadir. Ko'llar Qozog'iston past tog'liklari, To'rg'ay platosi, Turon pasttekisligi, sug'oriladigan hududlar atrofi, daryo vodiylari, tog'larida tarqalgan. Ular botig'ining kelib chiqishi jihatidan bir qancha guruhlarga bo'linadi:

Tektonik ko'llar. Bu guruhga Turkistonning tekislik va tog'lik qismlarida joylashgan yirik ko'llar (Orol, Balxash, Zaysan, Tengiz, Olako'l, Issiqko'l, Sonko'l, CHatirko'l, qorako'l, Rangko'l, Sassiqlik va boshqalar) kiradi. Bularning maydoni, chuqurligi, suv hajmi kattadir.

To'g'on ko'llar. Bunga Sarez, YAshilko'l, Morg'o'zor, Kuchala, qurbonko'l va boshqalar kirib, ularning maydoni unchalik katta emas va Turkistonning tog'li qismida daryo yonbag'irlarining qulashi va surilishi natijasida hosil bo'lgan. Hozir bu hududda 45 ga yaqin to'g'on ko'llari mavjudligi aniqlangan. Lekin ko'pchiligi maydoni kichik, ba'zi birlari esa to'g'onlarning yuvilishi natijasida yo'qolib ketgan.

Qadimgi va hozirgi zamon muzliklari morenolari daryo vodiylarining to'sishidan kelib chiqqan ko'llar. Bular Turkistonning tog'li qismida hosil bo'lgan va ularning soni 70 ga yaqin. Bu guruhga kiruvchi ko'llarning eng yiriklari Zo'rko'l, YAshilko'l, Iskandarko'l, Ko'likalon, Zorko'l va boshqalardir. Bunday ko'llar dengiz sathidan juda katta balandliklarda hosil bo'lgan. Masalan Markaziy Tyanshandagi Jelqarag'ay ko'li 6110 m. da, Pomirdagi Zorko'l 4125 m. da joylashgan. Ba'zilarining uzunligi 24 km. gacha etadi. (Pomirdagi YAshilko'l). Bunday ko'llarning to'g'oni mutsahkam emas. SHuning uchun ular emirilib ketib, daryolarning quyi oqimida vayronagarchiliklarni keltirib chiqaradi.

Karst ko'llari keng tarqalgan. Ular karbonat va galogen tog' jinslari tarqalgan hududlarda uchraydi.

Karst ko'llari ikkita kichik guruhga bo'linadi:

Yer usti karst ko'llari. Bularga Hisortog' tizimining janubi-g'arbiy tarmoqlarida hosil bo'lgan Konbeshbuluq, Turobbobo, Ko'libetub, Xo'jabulg'ur, Hamkon ko'llari kiradi. Ularning maydoni katta emas. Ularning uzunligi 250 m. gacha, kengligi 200 m. gacha, chuqurligi 56 m. gachadir.

Yer osti karst ko'llari. Bular yer osti karst bo'shliqlarida (g'or) ichida hosil bo'lgan. Hozircha Turkiston hududida 35 ta yer osti karst bo'shliqlari bunday ko'llar mavjudligi aniqlangan. Bularning maydoni 1080 m² gacha, chuqurligi 45 m. gachadir.

Qayir ko'llari. Bular O'rta Osiyoning yirik daryolari o'rta va quyi oqimlarida hosil bo'lgan, maydoni katta emas, yoz kunlari ko'pchiligi qurib qoladi.

Antropogen ko'llar. O'rta Osiyotekislik qismida yangi yerlarning o'zlashtirilishi natijasida hosil bo'lgan. Bular zovurlar orqali tashlandiq suvlarning pastlik joylarga yig'ilishidan yoki tabiiy ko'llarning quyilishidan kelib chiqqan. Bularga misol qilib Aydarko'l, Sariqamish, Dengiz ko'llarini ko'rsatish mumkin. O. S. Nuriddinovning ma'lumotiga ko'ra 1989 yilga kelib 118 ta yangi antropogen ko'llar bunyod bo'lgan. Ularning suv hajmi 1936 yildan 1989 yilgacha 5 marta ko'paygan.

O'rta Osiyo ko'llarining morfometriyasi har xil. Tektonik jarayonlar natijasida kelib chiqqan ko'llarning maydoni, uzunligi eng kattadir. Masalan maydoni jihatdan eng katta ko'l Orol. Uning sathi pasayib bora boshlangunga qadar 66 ming km² dan ziyod bo'lgan. O'rta Osiyoning eng chuqur ko'li – Issiqko'l (702 m)

O'rta Osiyo ko'llari suvining harorati har xil. qancha dengiz sathidan balandda joylashgan bo'lsa, suvining harorati shuncha pastdir. Orol suvining harorati yoz kunlari yuzasida 27,0, qirg'oqlarida 30 gacha ko'tariladi. qishda esa 0. Balxash ko'lining sharqiy qismida 27-28,0, g'arbida 30-31,0. qishda 0 dan past. Issiqko'l suvi iyo'lda suv yuzasida 18,60, maksimum 20-23,0, 200 m chuqurlikda 4,30. Pomirdagi qorako'l suvining harorati 12,0, 6 oy muz bilan qoplanadi.

O'rta Osiyo hududida joylashgan ko'llarning deyarli hammasi (Issiqko'ldan tashqari) qish kunlari muz bilan qoplanadi. Orol har yili 152 kun (janubida 115 kun) qalinligi 43-76 sm li muz bilan qoplanadi. Balxash ko'li 125 kun (noyabrdan aprelgacha, qalinligi 60-70 sm) muzlaydi.

O'rta Osiyoning tekislik qismida joylashgan ko'llar suvining ko'pchiligi sho'rdir. Orol ko'liniki 10-11 %, Balxashniki g'arbida 1,95 g/l (syersuv Ili daryosi quyilganligi sababli, sharqida esa 5,0 gg'l. Tog'li qismida joylashgan ko'pchilik ko'llar suvi chuchuk. Faqat Issiqko'lniki sho'rroq (5,8%).

YYER OSTI SUVLARI.

O'rta Osiyo qurg'oqchil iqlimi mintaqalarida joylashgan bo'lishishga qaramasdan, yer osti suvlariga boydir.

Bu hududda yer osti suvlarining joylanishiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Tuproq suvlari – yer yuzasiga yaqin joylashib, namni yog'in (yomg'ir, erigan qor suvlari) va atmosferaga bug'laridan oladi, yozning issiq kunlarida sarflanadi.

Grunt suvlari. Yer usti suvlarining (yomg'ir, muz va qorlarning erishidan, daryo, kanallar) og'irlik kuchi ta'sirida shimilishidan hosil bo'lib, yer ostida suv o'tkazmaydigan tog' jinslari ustida joylashadi va harakat qiladi, bosimsizdir. Reliefning qulay sharoitida (ko'pincha joy daryolar bilan kesilgan bo'lsa) grunt suvlarining ma'lum qismi buloqlar sifatida yer yuzasiga chiqadi, ma'lum qismi esa baland joylardan (tog'lardan tog' oldi va tekislik hududlariga) yer ostiga o'tadi.

O'rta Osiyoning tog'li qismida grunt suvlari asosan chuchuk oqimli bo'lib, har bir km kv maydondan sekunda 12 litr, tog' oldi hududlarida esa 0,10 dan 2-3 l. sek. gachadir. Bular tekislik tomon yer ostidan oqadi. Lekin tog' oldi hududlari, tog' oraliq botiqlarida yoyilma konuslarning quyi qismlarida yer ustiga chiqadi, ayrim yujoylarda buloqlar, sho'rxokzorlar, botqoqlar hosil qiladi, bulardan daryolar boshlanib, ular «qorasuv»lar deb ataladi.

Turkistonning tekislik hududlarida hosil bo'ladigan grunt suvlar pastki qatlamlardan bosim ostida sizib chiqadigan yer osti suvlari hisobiga vujudga keladi. Bularning ba'zilar sho'r va tarkibida har xil tuzlar mavjuddir. Masalan Qizilqum va Surxondaryo, Qoraqumda 1 litr suvda 30-50 grammgacha, Farg'onada 70 grammgacha, quyi Amudaryoda 100 grammgachadir. Biroq cho'llardagi barxanlar va taqirlar ostida infiltratsiya va kondensatsiya jarayonlari natijasida bir necha metrda 30-50 metrgacha ayrim hollarda 250 metrgacha chuchuk suv linzalari hosil bo'lib, ularning zahirasi bir necha million m³ ga etadi. Qoraqum cho'llarida bular yasxon linzalari deb atalib, ular hisobiga Nebittog' shahri va boshqa aholi punktlari chuchuk suv bilan ta'minlanadi.

Qatlamlar orasidagi suvlar. Bular grunt suvlarining ostida joylashadi va artezian havzalari deb ataladi. Har bir artezian havzasida bir qancha suvli qatlamlar mavjud bo'lib, ular tog'li hududlardan kelayotgan suvlar, grunt suvlari, qisman yuvenil suvlardan to'yinadi.

O'rta Osiyo hududida bir qancha artezian havzalari (Amudaryo, Sirdaryo, Ustyurt, Farg'ona, Markaziy Qozog'iston va boshqalar) mavjuddir.

Mineral va termal suvlari. Bular artezian havzalarining juda chuqurda joylashgan suv qatlamlarida hosil bo'ladi va burg'ilar (skvajinalar) yordamida qazib olinadi. Masalan Toshkent, Polvontosh, CHortoq, CHimyon, CHust, Oltiariq, Jayronxona, CHEleken, Jarg'alon, Jalolobod va boshqalar. Tog' va tog' oldi hududlarida bunday suvlar yer yoriqlari orqali yer yuzasiga buloqlar sifatida chiqadi. Bularga misol qilib Garmchashma, Obigarm, Hojiobigarm, Olomiddin, Jarg'alon, Oqsuv, Arason, Ettio'g'iz, Arashan, Kouota va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Bunday suvlarning tarkibi, harorati har xildir. Masalan Toshkent mineral suvlari karbonat-xlorid-nitratli, harorati yer yuzasida 54-660, CHortoq - yod, brom, radonli, harorati 490 . Mineral va tyermal suvlarning harorati Ili botig'ida 500 dan ziyod, Farg'ona botig'ida (20 ta skvajinadan tortib olingan) 70-900 ga etadi, CHElekenda 750 gachadir.

Karst suvlari. O'rta Osiyoning tekislik va tog'li qismlarida karbonat va galogen tog' jinslari tarqalgan hududlarda hosil bo'ladi. Tekislik qismida bunday suvlarning katta zahirasi Turon plitasining fundamentida. Ular regional yer yoriqlarida sodir bo'ladigan tektonik haraktlar ta'sirida darz ketgan yerlarda, turli chuqurliklarda hosil bo'ladi, faqat ba'zi bir joylarda yer yuzasiga buloqlar sifatida chiqadi. (Irlir, Tomdi va boshqalar)Bunday yo'l bilan hosil bo'lgan karst suvlari Markaziy Qozog'iston past tog'liklari hududida ham keng tarqalgan.

Karst suvlari O'rta Osiyoning tog'li hududlarida ayniqsa keng tarqalgan. Bu hududlarda erozion kesilish zich va chuqur bo'lganligi sababli yer yuzasiga (asosan daryo vodiylari yon bag'irlarida) buloq sifatida chiqadi. Hidrogeolog va karstshunoslarning olib borgan tadqiqotlari

natijasida hozirga qadar 1700 ga yaqin karst buloqlari mavjudligi aniqlangan. Ularning sumimar debeti 46 m³. sek. dan ziyod. Ularning ba'zi birlaridan daryolar boshlanadi.

Karst buloqlari suvining rejimi yog'ingarchilikning miqdoriga karstlanuvchi tog' jinslarining qalinligiga, suv oluvchi maydonining katta kichikligiga bog'liq. Bular suvining harorati 100 dan 370 gacha. O'rta Osiyotog'laridagi karst buloqlari ham yer yoriqlari bo'ylab darz ketgan zonalaridan chiqadi.

O'rta Osiyo karst buloqlarining ta'mi ham har xil. Agar ular karbonat tog' jinslaridan chiqsa, suvi chuchuk, galogen tog' jinslaridan chiqsa – sho'rdir.

Yer osti suvlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati juda kattadir. Ular shaharlar, qishloqlar va boshqa aholi punktlarinm suv bilan ta'minlashda, ekinzorlarni sug'orishda, yaylovlarni suv bilan ta'minlashda, turli kasalliklarni davolashda va boshqa maqsadlarda keng foydalaniladi. Yer osti suvlari yer usti suvlariga nisbatan ancha toza, yer osti tog' jinslari orasida harakat qilish jarayonida tozalanadi, ifloslantiruvchi manbalardan tog' jinslari ularni saqlaydi. Biroq yer osti suvlarining zahirasi katta bo'lishiga qaramasdan. Ba'zi bir katta shaharlarni suv bilan ta'minlashga etmaydi. SHuning uchun ularning zahiralarini sun'iy ko'paytirish usullari (magazinlashtirish) ishlab chiqilgan va keng foydalanilmoqda.

HOZIRGI ZAMON MUZLIKLARI.

O'rta Osiyo tog'leri hozirgi zamon muzliklariga ancha boydir.

Bunga sabab:

g'arb va janubi-g'arbdan katta miqdorda nam havo massalarining kelishi.

YOg'ingarchilik miqdorining ko'pligi. (2350 mm. dan ko'proq).

Tog'larda havo haroratining pastligi natijasida bug'lanishning kamligi va yog'inning katta qismining qor holida yog'ishi.

Tog'larning dengiz sathidan ancha babland ko'tarilganligi.

O'rta Osiyotog'larida 2000 dan ziyod yirik muzliklar mavjud. Ularning umuiy maydoni 18100 km kv. Muzliklarning katta qismi Pomirda (maydoni 8341 km kv. hamma muzliklarning 48%, hududning 11% ni egallaydi.) joylashgan. Tyanshangning umumiy maydonining 5% ni muzliklar egallagan., hamma muzliklarning 46% ni tashkil etadi. 6% muzlik Oloy, Turkiston, Hisor, Pskom, Jung'oriya Olatog'iga to'g'ri keladi.

O'rta Osiyomuzliklari o'zida 2244 km kub dan ortiq chuchuk suv saqlaydi va muzliklar hamda qorning erishidan daryolar 37-40 km kub suv oladi.

Tog'larda muzliklar qor chizig'idan yuqorida hosil bo'ladi. Bu chiziq balandligi har xil, janubga qarab ko'tarilib boradi. Jung'oriya Olatog'ida 3000-3500 m, Terskay Olatog'ida 3800-4200 m, Oloyda 4200-4800 m, SHohdarada 4800-5200 m. Biroq , bu chiziq turli yonbag'irlarda har xil. O'rtacha janubiy va shimoliy yonbag'irliklarda qor chizig'ining farqi 100 m. dan 800 m. gacha. Turkistonning ko'pchilik muzliklari qor chizig'idan pastda joylashgan. Masalan Pomirdagi Geografiya jamiyati muzligi 1500 m, Oloyorti tizmasida 800-900 m. SHimoliy yonbag'irliklarda faqat qor pastda bo'lmasdan, muzliklar maydoni ham ko'proqdir. Masalan, Iliorti tizmasining shimoliy yonbag'rida muzliklar maydoni 297 km kv, janubida esa 187 km kv. Oloyorti tizmasida 751 km kv. (shimolida), 685 km kv. (janubida).

O'rta Osiyotog'larida bir qancha yirik muzliklar mavjud. Eng yirik muzlik Pomirdagi Fedchenkodir. Dengiz sathidan balandligi 2904-5330 m. Uning uzunligi 77,8 km, kengligi 1500-3100 m, maydoni 907 km kv, qalinligi 1000 m. dan (yuqori qismida), 700 m. (o'rta qismida), 300-400 m. gacha (quyi qismida). Muzlikdagi suv zahirasi 200 km kub. Fedchenko muzligining 37 irmog'i bor: Bivochiy (uzunligi 27,8 km, maydoni 197 km kv.) Nalivkin (14 km, 101 km kv.), Vitovskiy (12,6 km, 54 km kv.) va boshqalar.

O'rta Osiyomuzliklari ichida ikkinchi o'rinda Tyanshandagi Janubiy Inilchek turadi. Uning uzunligi 61 km. maydoni 829 km kv. , qalinligi 300-400 m, 30 ga yaqin irmoqlari bor, (eng kattasi Reznichenko 36,7 km).

O'rta Osiyomuzliklari iqlimning va ob-havoning o'zgarishiga qarab, o'z uzunlik va maydonlarini o'zgartirib turadi. Hozir muzliklar maydoni o'zgarib bormoqda. Masalan,

Fedchenko muzligi 1928-58 yillarda 10 m. ga qisqargan, hajmi 0,62 km kub. ga kamaygan. Tyanshandagi Mushketov muzligi 1956-63 yillar mobaynida har yili 1,36 mln km kubga kamaygan. Muzliklar doimo harakatda, lekin hamma qismida ham bir xil emas. Masalan, Fedchenko muzligining o'rta qismida bir sutkada 80 sm (292 sm. bir yilda), yon tomonida 30 sm (109,5 sm-bir yilda), yozda siljish kuchliroq (30-50%).

O'rta Osiyotog'larida muzliklarning bir qancha turlari tarqalgan: vodiy muzliklari, Turkistonturi, Al'p turi, osilma muzliklar, egar tur muzliklar, daraxtsimon muzliklar, qor va tsirk muzliklar.

SUV OMBORLARI.

O'rta Osiyo kanal va daryolarida hozirga qadar 50 ga yaqin suv omborlari bunyod etilgan. Barpo etilgan suv omborlarining ko'pchiligi irrigatsiya maqsadlarida qurilgan bo'lsada, ba'zilar (CHorvoq, qayroqqum, Norak, To'xtag'ul va boshqalar) enyergetik ahamiyatga ega. Bundan tashqari, suv omborlari daryolarda sodir bo'ladigan suv toshqinlariga, sellarga chek qo'yadi. Sel hodisalari Turkistondaryolarida tez-tez sodir bo'lib turadi. Turkistoniqlim sharoitida suv omborlarining rekreatsiya ahamiyati juda katta. Suv omborlari qirg'oqlarida ko'plab sanatoriy, pansionatlar, plyajlar barpo etilgan. Bunga CHorvoq, Toshkent, Uchqizil, Pachkamar, Qayroqqum va boshqa suv omborlari misol bo'la oladi.

Suv omborlarining baliqchilikda ham ahamiyati katta. CHunki ularda baliqlarning yashashi va urchish sharoiti yaxshilanadi.

O'rta Osiyodagi maydoni katta suv omborlariga Tuyamo'yin (650 km kv), CHordara (900 km kv), Qayroqqum (513 km kv) lar kiradi. Suv sig'imi jihatidan To'xtag'ul (19500 mln km kub), Norak (10400 mln km kub), Tuyamo'yin (7800 mln km kub), CHordara (5700 mln km kub) va boshqalar oldingi o'rinlarda turadi.

KANALLARI

Irrigatsiya maqsadlari uchun O'rta Osiyo hududida ko'plab kanallar qurilgan. Bularning ba'zi birlari tor, (Qoraqamish, Angor va boshqalar) qadimgi davrlarda ishga tushirilgan.

Bu hududda juda uzun kanallar ham barpo etilgan. Bular jumlasiga birinchi navbatda Qoraqum kanali kiradi. Bu kanal sug'orish va kichik kemalar qatnovi uchun qurilgan.

Ishlab chiqilgan loyiha bo'yicha kanalar Bosag'a qishlog'idan (Amudaryo qirg'og'i) boshlanib, Argman qishlog'i (CHEleken yarimorolida) tugashi kyerak edi.

Kanal bir qancha navbatlarga bo'lib qurilgan:

Birinchi navbati – Bosag'a qishlog'idan Murg'ob daryosigacha, uzunligi 400 km. ga yaqin. 1959 yilda ishga tushirilgan. Suv sarfi 130 m. kub sek.

Ikkinchi navbati – Murg'ob daryosidan Tajan daryosigacha, uzunligi 140 km, 1960 yilda ishga tushirilgan. Kanalning bu qismiyuda Xao'zxon suv ombori (435 mln m kub). ham barpo etilgan.

Uchinchi navbat – Tajan daryosidan Ashgabad – Go'k-Tepagacha. 1962-67 yillarda qurilgan, uzunligi 300 km, suv sarfi 300 m kub sek. Bu qismda Kopetdog', Qurtli nomli suv omborlari qurilgan.

To'rtinchi navbati – Go'k-Tepadan Gazandjikkacha, uzunligi 400 km.

SHu yerda kanal qurilishi to'xtagan.

Kanalning 450 km masofasida kemalar qatnaydi.

O'rta Osiyoning tog' va botiqlari tog' oldi tekislik hududlarida yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida turli yillarda ko'plab kanallar qurilgan. Ulardan asosiylari quyidagilar: Zang 1912 yil uzunligi 29 km, Dalvarzin 1929-30 yillar 46 km, Narpay 1929-34 yillar 105 km, Katta Farg'ona 1940 yil 270 km, Janubiy Farg'ona 1940 yil 162 km, Janubiy Mirzacho'l 1960 yil 125 km, Amu-Buxoro 1963-70 yillar 197 km, Amu-Qorako'l 1965 yil 52 km, Katta Andijon 1969 yil 109 km, Katta Namangan 1970 yil 132 km, qarshi magistral 1964-74 yy 195 km. Eskianhor 1955 yil 300 km va boshqalar.

O'RTA OSIYONING TUPROQ QOPLAMI.

O'rta Osiyoning maydoni katta. SHimoldan Janubga katta masofaga cho'zilganligi, iqlim sharoiti har xil bo'lganligi sababli, bu hududda turli xil tuproqlar hosil bo'lgan.

O'rta Osiyohududida turli tuproq turlari hosil bo'lishida quyidagi omillar asosiy rol o'ynagan:

Geologik tuzilishi. Ma'lumki tuproqlar hosil bo'lishida tog' jinslari ona jins vazifasini bajaradi. Turkiston hududida har xil litologik tarkibga ega tog' jinslari tarqalgan va ular nurash jarayonlari natijasida har qaysi hududda tog' jinslarining turli genetik guruhlarini vujudga kelgan. Markaziy Qozog'iston past tog'liklarida tub tog' jinslarining nurashi natijasida elyuviylar va delyuviylar hosil bo'lgan. Bularning qalinligi katta emas. Ular tuproqlar hosil bo'lishida ona jins vazifasini bajaradi. Turon tekisligida esa bu vazifani asosan qumlar, lyoslar, elyuviylar, delyuviylar bajaradi. Turkistonning tog'li hududida elyuviy, delyuviy, prolyuviy, chag'ir shag'alli toshlar, qisman lyoslar ona jins vazifasini o'taydi.

Iqlimiy. O'rta Osiyoning tekislik qismida issiq qurg'oqchil sharoitda dasht, chalacho'l va cho'llarga xos namgarchilik etishmaslik sharoitida iqlim hosil bo'ladi. Bunday sharoit tuproqlarda tuzlarning to'planishiga olib keladi. qurg'oqchilik davrlarida grunt suvlari kapillyar ko'tarilishi oqibatida o'zlari bilan tuzlarni olib chiqadi. Namgarchilik bug'lanib ketib, tuzlar tuproqlar tarkibida qoladi.

O'rta Osiyoning tog'li qismida tuproqlar vyertikal iqlim mintaqalari bo'ylab o'zgarib boradi.

O'simlik qoplami. O'rta Osiyoning tekislik qismida, ayniqsa cho'llarda o'simlik qoplami zich emas. SHuning uchun tuproqlar chirindi moddalariga boy emas. Tog'li qismi o'simliklarga ancha boy. CHirindi moddalari miqdori ko'proq.

Gidrogeologik sharoiti tuproqlar xususiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. qayerda grunt suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan bo'lsa sho'r tuproqlar hosil bo'ladi. Bu O'rta Osiyoning tekislik qismi uchun xosdir. Tog' oldi tog'li hududlarida tuproqlarning sho'rlanishi kuzatilmaydi.

YUqoridagi omillarga bog'liq holda quyidagi tuproq xillari tarqalgan:

To'rg'ay platosi va Markaziy Qozog'istonning shimoliy dasht zonasi qismida qora tuproqlar, Janubiy qismida esa kashtan tuproqlar tarqalgan.

Turon tekisligi hududida asosan cho'llar joylashgan bo'lib, ular ikkita iqlim mintaqasidir. SHimoliy cho'llar mo'tadil iqlim mintaqasida joylashgan va qo'ng'ir tuproqlarga o'xshash tuproqlar tarqalgan. Janubiy cho'llarda esa sur-qo'ng'ir tuproqlar uchratiladi.

O'rta Osiyotog'larida vyertikal tuproq mintaqalari mavjud.

Tog' oldi hududlarida bo'z tuproq turlari tarqalgan. O'rta bilandlik tog'larda (quruq dasht mintaqasida) jigarrang va qo'ng'ir rang o'rmon tuproqlari, quruq dashtlar mintaqasidan yuqoridagi mintaqada baland tog' o'tloq dashtlarida – och tusli qo'ng'ir tuproqlar, tog'larning eng baland qismlarida esa o'tloq tuproqlari tarqalgan.

O'rta Osiyoning daryo vodiylarining ming yillar davomida o'zlashtirilgan joylarida allyuvial tuproqlar hosil bo'lgan. Obikor yerlarda agroirrigatsion tuproqlar hosil bo'lgan bo'lib, uning qalinligi 70 sm ga etadi. CHirindi kam (1-2 %). Bunday tuproqlar tarqalgan yerlarda tuproqlarning qayta sho'rlanishi, botqoqlanishi kuzatiladi.

O'RTA OSIYO O'SIMLIKLARI.

O'rta Osiyohududi yer yuzasi, iqlimi va tuproq qatlami har xil bo'lganligi uning o'simliklariga katta ta'sir ko'rsatadi, har qismning sharoitiga moslashgan va har joyning o'ziga xos o'simlik turlari paydo bo'lgan.

O'rta Osiyoda 9000 ga yaqin o'simlik turlari mavjud. Bulardan 10% chala cho'l va cho'l mintaqalariga xos o'simliklar, 90% esa tog' o'simliklaridir.

Tekislik o'simliklari. O'rta Osiyoning bu qismida dasht, chala cho'l va cho'l o'simliklari tarqalgan. Dashtlarda turli o'tlar chimli, boshqoli o'simliklar, chala cho'llarda shuvoqli, boshqoli o'simliklar keng tarqalgan. Cho'llarda esa qurg'oqchilikka chidamli kuchli shamollarga va issiqqa moslashgan o'simliklar o'sadi (jo'zg'un, tyeresken, quyonsuyak, saksovul). Lyosli cho'llarda efemyerlar va efemyeroidlar keng tarqalgan. Tekisliklarda oqadigan daryo bo'ylarida to'qay o'simliklari o'sadi.

Tog' o'simliklari. O'rta Osiyotog'larida o'simliklar vyertikal mintaqalar bo'ylab tarqalgan. SHuningdek, shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa tomon borgan sari iqlimning o'zgarishi bilan o'simliklar turi ham o'zgarib boradi.

O'rta Osiyotog'larida har xil o'simliklar tarqalgan quyidagi mintaqalar ajratiladi:

Tog' cho'l mintaqasi. Bu mintaq tog' etaklari (adirlar), daryolarning yoyilma konuslari va tyerrasalarini egallaydi. Balandligi 300-500m. bu mintaqada efemyerlar, efemyeroidlar zich o'sadi. Soyabongullilar siyrak o'sadi. Daryo, qayir ba'zan o'zanlarida to'qayzorlar tarqalgan.

Tog' chala cho'l mintaqasi. 500- 1500m balandliklarni egallagan. O'simliklar zichroq lekin yer yuzasini sidiq'a qoplamagan. Bu mintaqada turli o'tlar, efemyerlar tarqalgan. Boshqolilar uchraydi.

Tog' quruq dasht mintaqasi 1250-1500 m balandliklardan boshlanib, 2200-3000 m largacha ko'tariladi. Bu mintaq Turkistonning deyarli hamma tog' tizmalarida uchratiladi. Mintaqada boshqoli o'simliklar keng tarqalgan bo'lib, uni chaloq-betaga dashtlari de atash mumkin, chunki ular yer yuzasining deyarli sidiq'asiga qoplab oladi. Chaloq betagalar orasida tikonli bodom, na'matak butalari uchraydi. Toshloq yerlarda shuvoq, izen o'sadi, efemyerlar keng tarqalgan.

Tog' chala cho'l va tog' quruq dasht mintaqasi Kopetdog' tizmasidan Issiqko'lning g'arbiy qismiga qadar uchraydi.

O'tloq o'rmon dasht mintaqasi 1200-1500 m dan boshlanib, 3000-3500 m gach bo'lgan balandliklarda bo'lib, yog'in mo'l tushadigan yerlarning iqlimi salqin, nam, shuning uchun turli o'simliklar ko'po'sadi. Tog' hududlarida turli o'rmonzorlar keng tarqalgan.

Subalp tipidagi o'tloqlar mintaqasi turli balandliklarda tog' tizmalarining joylashgan o'rni, namgarchilik miqdoriga bog'liq holda joylashgan. Masalan, Iliorti Olatovida 1500-1600 m, Farg'ona tizmasida 2500-2700 m, Oloy botig'ida 3100-3200 m dan boshlanadi.

Mintaqada o'tloqlar bilan birga qoraqarag'ay, oq qarag'ay o'rmonlari ham tarqalgan.

Alp tipidagi mintaq 3000-3500 m balandliklardan boshlanadi. O'simliklar o'sishi uchun sharoit (yozi qisqa, salqin, qishi sovuq, harorat amplitudasi katta) yaxshi emas. Bunday sharoit o'simliklar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun bu mintaqdagi o'simliklarning bo'yi past, tanasi, yerga yopishib o'sadi. Namgarchilik mo'l yerlarda to'ng'izsirt o'sadi. Bundan tashqari edelveys, yulduzo't, sariq ayiqtovon, erbaho, (ko'kgul), pushti qo'qongul, yovvoyi ko'knori, yostiqlimon chalabutalardan qiziltikon (akontolimon), toshyorargul va boshqalar tarqalgan.

O'RTA OSIYO HAYVONOT DUNYOSI.

Zoogeografik jihatdan O'rta Osiyohayvonot dunyosi boy va xilma-xildir. Bu o'lka hayvonot dunyosining tekislik va tog'li qismlarida tafovut kattadir.

Tekislik qismida yashovchi hayvonlar quruq, issiq nisbatan sovuq qish sharoitlariga moslashgan. O'simliklar siyrak.

Tog'li qismida relef murakkab, harorat past, yog'ingarchilik mo'l, yoz qisqa, qish uzoq davom etadi, o'simliklar qalin. Hayvonlar shunday sharoitga moslashgan. SHu sababli bu hududda sut emizuvchilar, qushlar ko'p, biroq sudraluvchilar kam.

Hayvonlar tabiatning harakatchan komponenti bo'lganligi sababli O'rta Osiyohududida boshqa hududlardan kirib kelgan hayvonlar ham mavjud. O'rta Osiyoning tekislik qismi dasht, chala cho'l va cho'l zonalariga bo'linadi. Bu hududlarda yashovchi hayvonlar tabiiy sharoitga moslashgan.

Dasht hududlari hayvonlari. O'rta Osiyoning eng shimoliy hududlarida uchraydi. Elik, bo'rsiq, bo'ri, tulki, quyon, oqquyruq, bayboq-sug'ur, katta yumronqoziq, chipor yumronqoziq, uch barmoqli qo'shoyoq, ko'rsichqon, dasht qora iloni, dasht kichik kaltakesagi, qushlardan tuvaloq, kichik turna, to'rg'ay, bedana, yirtqich qushlardan burgut, bo'ktargi, qora to'rg'ay, suv havzalarida o'rdak, g'oz, baliqchi, chayka, qorabuzov, qirg'ovul va b. yashaydi.

CHala cho'l mintaqasi hayvonlari. CHalacho'llarda yumronqoziq, qo'shoyoq, og'maxon shuningdek doimo inlarida yashovchi hayvonlar, sudraluvchilardan toshbaqa, kaltakesak, ilonlar, qushlardan – oq to'rg'ay, qora to'rg'ay, yilqichi qush, bulduruq, turna, tuvaloq, boyo'g'li, lochin, burgutlar yashaydi. Hasharotlardan – chayon, tarantul, falanga, qoraqurt, turli zaharli hasharotlar tarqalgan.

CHo'l hayvonlari. Issiqqa, qurg'oqchilikka, cho'l rangiga moslashgan hayvonlar, yumronqoziq, qo'shoyoq, ko'rsichqonlar, jayronlar, qulonlar, oqquyruqlar, barxan mushugi, bo'ri, tulkilar tarqalgan. Sudraluvchilardan echkiemar, qum kaltakesagi, Turkiston agamasi. Toshbaqa va ilonlarning bir necha turlari yashaydi.

O'rta Osiyo tekislik qismidagi to'qayzorlarda hayvonlar yashashi uchun sharoit yaxshi. Bunday hududlarda suv mo'l, o'simlik qoplami qalin. SHuning uchun turi, miqdori, atrofidagi cho'l va chala cho'llardan farq qiladi. To'qayzorlarda - chiyabo'ri, to'ng'iz, to'qay mushugi, bug'u-xongul, qoplon, quyon, suv kalamushi, qushlardan o'rdak, g'oz, baliqchi, qorabuzov, qizilg'oz, qurbaqa, chigirtka va boshqalar yashaydi. Ba'zi bir qushlar qishda janub mamlakatlariga uchib ketadi.

Tog'oldi hududlarda efemyer va efemyeroid o'simliklari tarqalganligi sababli toshbaqa, malla yumronqoziqlar mavsumiy hayot kechiradi. qushlardan tuvaloq, tojdor, so'fito'rg'ay, tasqara, burgut, miqqiy, qirg'iy, bedana, chil, kaklik, chumchuq va boshqalar yashaydi.

O'rta Osiyoning tog'li hududlarida turli mintaqalar mavjud bo'lganligi uchun turli sharoitga moslashgan hayvonlar tarqalgan. Jung'oriya Olatog'idan Pomirgacha tarqalgan O'rta Osiyotog' takasi Kopetdog'da uchramaydi, uning o'rniga shoxsiz taka, jayron tarqalgan. Jung'oriya Olatog'i, Tyanshan, Oloy, Pomir tog'larida O'rta Osiyoarhari, ko'ksug'ur, qizilsug'ur, ular uchrasa, Kopetdog'da hinditson, O'rta dengiz hayvonlari vakillaridan qoplon, gepard, giena (sirtlon), afg'on tulkisi, kobra, ko'lvor ilonlar tarqalgan.

Past tog'lar (adirlar) mintaqasida cho'llarga xos hayvonlar – cho'l toshbaqasi, dumaloqbosh kaltakesak, sug'ur, qo'shoyoq, sariq va malla yumronqoziq, echkiemar, tulki, bo'ri, bo'rsiq, quyon, Turkistonagamasi, jayron, qoplon, sariq ilon, kobra, chipor ilon, ko'lvor ilon va tog'larning balandroq qismlarida yashaydiganlari uchraydi. qushlardan burgut, chil, kaklik, bedana, ko'k qarg'a, ukki, chumchuq, boltayutar, so'fito'rg'ay, boyo'g'li va boshqalar tarqalgan.

Tog' chala cho'l quruq dashtlar balandlik mintaqasida kemiruvchilardan qo'shoyoq, malla yumronqoziq, so'g'o'r, dala sichqoni yashaydi. Bularning ichida mo'ynasining yaxshiligi bilan Menzbir sug'uri ajralib turadi. Yirtqichlardan tulki, bo'ri, bo'rsiq, yirik tuyoqlilardan arhar, jayron, boshqalardan jayra, sirtlon, qushlardan – so'fito'rg'ay, ko'k qarg'a, kaklik, kaltakesaklardan – Turkistonagamasi va boshqalar uchraydi.

Tog'dagi bargli o'rmon mintaqasining hayvonot dunyosi boydir. Sudraluvchilar kam. Bu mintaqada jayra, sirtlon, ayiq, to'ng'iz, tyanshan bo'rsig'i, o'rmon olmaxoni va boshqlar yashaydi. To'ng'izlar daryo bo'ylaridagi to'qayzorlarda masalan, Norin daryosining yuqori oqimigacha (3300 m) uchraydi. Mevalar pishganda ayiq va to'ng'izlar, eliklar ko'payadi.

Mintaqa qushlarga ham boy. Ulardan jannat hasharotxo'ri, kaptar, boyo'g'li, bulbul, qumri, g'urrak, zarg'aldoq, kaklik, chittak, uzunquyruq, qizilquyruq, tog' chumchug'i va boshqalar uchraydi.

qoragarag'ay, oqqarag'ay o'rmonzorlarida elik, bug'u, yirtqichlardan – silovsin, tosh suvsari, oqsichqon, ayiq, manul (yovvoyi mushuk) tarqalgan.

Archazorlarda o'rmon sichqonlari, tog'sichqonlari, qushlardan boltatumshuq, sariq tog' chumchug'i, chittak, kaklik va boshqalar hayot kechiradi.

YAylov balandlik mintaqalarida (2800-3000 m. dan balandda) relef murakkab, doimiy qor va muzliklar ko'p, qish davomli va sovuq, yoz qisqa va salqin, o'simliklari siyrak, daraxtlar yo'q. SHuning uchun hayvonot dunyosi boy emas. Hayvonot turi va soni pastki mintaqalariga nisbatan kamroq. Hayvonlar yashash muhitiga moslashgan. Mintaqaning qoyali va toshloqli yerlarida sut emizuvchilardan O'rta Osiyotog' takasi, kiyik, arhar, qor barsi, bo'ri, tyanshan ayig'i, tulki, muflon, kemiiruvchilardan qizil, ko'k va oltoy sug'uri, oq suvsar, qushlardan ular, boltayutar, tog' to'rg'ayi, hind g'ozi, alp chumchug'i, himolay qora kurkasi va boshqalar yashaydi.

O'rta Osiyoning suv havzalarida baliqlarning bir qancha turi bo'lib, ularning quyidagilari «qizil kitob»ga kiritilgan: katta kurakburun yoki qizil quyruq, filburun, mo'ylovbaliq, bahri baliq, amudaryo foreli, oddiy cho'rtan, tanga baliq, laqqa baliq, lyosh, ship, sazan.

Issiqko'lda sazan, osman, chebek va b.

Marinkalar hamma daryolarda uchraydi.

O'rta Osiyo mamlakatlari «Qizil kitob» ga kiritilgan hayvonlar: sut emizuvchilardan – katta shalpanquloq, ko'rshapalak, ko'k sug'ur, katta qo'shoyoq, qo'ng'ir ayiq, hindiston asalxo'ri, Turkiston qunduzi, sirtlon, silovsin, qoplon, gepard, xongul, jayron, arxar va boshqalar; sudralib yuruvchilardan - qurbaqabosh, ehkiemar, chipor kaltakesak, kobra va boshqalar; qushlardan – oq va qora laylak, qizil g'oz, oqqush, marmar o'rdak, uzun va oq dumli burgut, boltayutar, oq turna, tuvaloq va boshqalar.

O'rta Osiyo hayvonot dunyosini muhofaza qilishda uning hududida tashkil qilingan qo'riqxonalar va buyurtmaxonalarning roli juda kattadir.

AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI.

Reja:

1. O'rta Osiyo mamlakatlari aholisining oktyabr to'ntarilishidan oldingi rivoji.
2. O'rta Osiyo mamlakatlari aholisining oktyabr to'ntarilishidan keyin va Ulug' Vatan urushiga qadar rivojlanishi.
3. O'rta Osiyo mamlakatlari aholisining Ulug' Vatan urushidan keyingi rivoji.
4. O'rta Osiyo mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni.

Tayanch iboralar: 1. Aholining umumiy soni 2. Zichligi. 3. Tabiiy ko'payishi. 4. Mexanik o'sishi. 5. Milliy tarkibi. 6. SHahar aholisi. 7. qishloq aholisi. 8. qishloq manzilgohlari tiplari. 9. SHahar tiplari. 10. Mehnat resurslaridan foydalanish muammolari.

O'rta Osiyo davlatlari aholisi 60 mln dan ortiq kishini tashkil qiladi. Aholining soni jihatidan O'rta Osiyo davlatlari Hamdo'stlikdagi davlatlar ichida Rossiya Fedyeratsiyasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Revolutsiyadan keyin O'rta Osiyodavlatlarining aholisi 3,5 barobar ortdi. Bu davrda sobiq SSSR bo'yicha aholining soni 1,3 barobar ortdi xolos. O'rta Osiyo davlatlari aholisining tez o'sishi asosan tabiiy o'sish, qisman mexanik o'sish asosida yuz berdi.

Agar sobiq SSSR bo'yicha aholining tabiiy o'sishi har ming kishiga 1980 yilda 9,8, 1990 yilda 8,0 kishiga to'g'ri kelsa, O'rta Osiyo davlatlarida bu ko'rsatkich 1980 yilda 27,4 1990 yilda 26,0 kishini tashkil qildi. O'rta Osiyo davlatlarida tug'ilishning kattaligi tufayli har bir oilada o'rtacha 5,5 kishidan iborat bo'lsa, sobiq SSSR da bu ko'rsatkich 3,7 kishini tashkil qiladi. O'rta Osiyo davlatlarida aholining tez o'sishi nafaqat tug'ilishning kattaligi, balki revolyutsiyadan oldin qoloq bo'lgan o'lkaning moddiy va ma'naviy hayotining yuksak darajada rivojlanganligining oqibatidir. Bundan tashqari, revolyutsiyadan keyin, aholiga meditsina xizmatining yaxshilanishi evaziga o'lim keskin kamaydi.

O'rta Osiyo respublikalari aholisining tez o'sishiga mexanik o'sishning ta'siri ham katta. O'rta Osiyo aholisi XX asr boshlaridan buyon son jihatidan hozirgi kungacha 5,5 baravar o'sdi. Aholining o'sish suratlari ayniqsa keyingi 10 yilliklarda yanada tezlashdi.

Mintaqa aholisi o'sish dinamikasi (ming kishi hisobida)
1939-1998 yillar

Mamlakat	1939	1959	1970	1979	1989	1998	2007
O'zbekiston	6336	8109	11780	15391	19906	24000	
Qozog'iston	6094	9225	13009	14684	16638	16500	
Qirg'iziston	1458	2006	2934	3529	4291	4500	
Tojikiston	1484	1981	2900	3801	5112	7080	
Turkmaniston	1252	1516	2159	2759	3534	4600	
Mintaqa bo'yicha	16624	22977	32801	39164	49481	56600	

Bu davrda mintaqa aholisi (1939-1998) 3,5 baravar o'sgani holda bu ko'rsatkich eng ko'p O'zbekistonda (3,8 baravar) va Turkmanistonda (3,7 baravar), Tojikistonda (3,6 baravar), Qirg'izistonda (2,1 baravar), Qozog'istonda (2,7 baravar).

Aholining tabiiy o'sishi ko'rsatkichlari Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekistonda ancha yuqori, aksincha, Qozog'iston va Qirg'izistonda ancha past. Tabiiy o'sish ko'rsatkichlari 1995 yillar quydagicha:

Davlatlar	Tug'ilish	O'lim	Tabiiy o'sish (%)
Qozog'iston	19,9	8,1	11,8
Qirg'iziston	28,6	7,2	21,4
Tojikiston	32,2	6,6	25,6
Turkmaniston	34,0	7,1	26,9
O'zbekiston	33,1	6,5	26,6

Tabiiy o'sish ko'rsatkichlarini respublikalarda turlicha bo'lishiga ijtimoiy-iqtisodiy omillar eng ko'pta'sir etadi, shu bilan birga demografik omillar-aholining yosh va jinsiy, sotsial, milliy tarkiblari ham anchagina sabab bo'ladi. Jumladan, qaysi respublikalarda rusiyzabonlar xissasi katta bo'lsa, (Qozog'iston va Qirg'iziston respublikalarida) tabiiy o'sish ko'rsatkichlari past bo'ladi. Mahalliy millat vakillari ko'pchilikni tashkil qilganida esa (O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalarida) tabiiy o'sish ko'rsatkichlari aksincha ancha yuqori.

O'rta Osiyo mamlakatlari demografik ko'rsatkichlari

ko'rsatkichlar	Qozog'iston	Qirg'iziston	Tojikiston	Turkmaniston	O'zbekiston
Aholi soni					
Mln kishi					
1993 y	17.0	4.5	5.6	4.3	21.7
1995 y	16.9	4.4	5.8	4.5	22.7

2003 y	16.8	4.9	6.9	4.8	26.0
2007 y	15.5	5.2	7.1	5.4	26.5
Maydoni ming km kv	2717.3	198.5	143.1	488.9	448.9
Aholi zichligi kishi\km kv					
1993					
2007	6.3 5.7	22.7 26.2	39.1 49.6	8.8 11.1	48.3 59.0
Urbanizatsiya darajasi %	57	35	26	47	36
Tug'ilish koeffitsienti ‰					
1992	19.9	28.6	32.2	34.0	33.1
2006	20.0	23.0	26.0	25.0	24.0
O'lim koeffitsienti ‰ ⁰					
1992	8.1	7.2	6.6	7.1	6.5
2006	10.0	7.0	7.0	8.0	7.0
Go'daklar o'limi koeffitsienti ‰					
1992	26.2	31.5	45.9	43.6	37.4
2006	29.0	50.0	65.0	74.0	58.0
YAlpi tug'ilish koeffitsienti ‰					
1995	2.3 2.5	3.3 2.8	4.3 3.4	4.0 2.9	3.8 2.7
2025 yilgi aholi soni BMT bashorati mln kishi	17.1	6.6	9.4	6.6	32.9
2050 yilgi aholi soni BMT bashorati mln kishi	17.4	8.1	11.4	7.4	37.2

Aholining hududiy joylashishi mavzusi eng muhim mavzulardandir. U avvalo har qanday hududning iqtisodiy jihatdan qay darajada o'zlashtirilganligiga, u esa o'z navbatida hududlarning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Har 1 km² maydonga aholining o'rtacha zichligi O'zbekistonda 53, Tojikistonda 49, Qirg'izistonda 23, Turkmanistonda 9 va Qozog'istonda 6 kishidan to'g'ri keladi. Respublikamizning aholisi eng zich hududlarda 250-450 kishidan to'g'ri kelgan holda, siyrak hududlarda 1-2 kishi (Qozog'iston va Qirg'izistonning markaziy hududlarida) to'g'ri keladi.

O'rta Osiyodavlatlarining urbanizatsiya darajasi ham turlicha ko'rsatkichlarga ega. Bu ko'rsatkich Qozog'istonda eng yuqori 56%, keyingi o'rinlarda Turkmaniston 47%, O'zbekiston 38%, Qirg'iziston 36% va Tojikiston 32% turadi. Muhim tomoni shundaki dehqonchilik tarmoqlari ahamiyati eng yuqori bo'lgan respublikalar aholisining aksariyati xaqiqatdan ham qishloq joylarda joylashgan va qishloq xo'jalik ishlari bilan band. Tabiiy sharoiti qurg'oqchil va asosan tog'-kon sanoati kattaroq ahamiyatga ega bo'lgan Qozog'iston va Turkmaniston respublikalarida shahar aholisi salmog'I boshqa mintaqa respublikalariga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Mintaqada faqat 2 ta millionyer shaharlar (Toshkent va Olma-ota), O'zbekiston va Qozog'istonda 3 tadan 300 000 ortiq, Bishkek, Dushanbe, Qarag'anda va Ashxobod shaharlarida 500-650 mingdan aholi bor.

O'rta Osiyodagi ko'p shaharlar asosan aholisi 50 ming kishigacha bo'lgan shaharlar hisoblanadi. Eng yirik shaharlari Toshkent (2109 ming), Alma-Ata(1151ming), Bishkek (650 000), Dushanbe (1090 000), Ashgabad (610 000), Karag'anda(550000), Namangan(385ming), Samarqand (374ming), Andijon(332 ming), Buxoro(246ming), Nukus(202 ming), Farg'ona (192 ming) va boshqalar. Shaharlar aholisi asosan migratsiya xisobiga, ya'ni qishloqlardan shaharlarga ko'chib kelishi xisobiga ortib bormoqda. Bundan tashqari yangi yerlarning o'zlashtirilishi natijasida, tabiiy resurslar topilib ishga tushirilishi natijasida ham (YAngiyer, Moylisoy, Fyero'za va boshqa) yangi shaharlar barpo etilgan.

Mintaqada shaharlar aglomeratsiyalari ham tashkil topgan. Eng yirik aglomeratsiyalarga Toshkent, Dushanbe, Bishkek, Qarag'anda, Farg'ona, Marg'ilon va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

O'rta Osiyo davlatlari mehnat resurslari etarli ta'minlangan. Ayniksa bu ko'rsatkich O'zbekiston va Tojikistonda yuqori xisoblanadi. Mintaqa aholisining bandlik darajasi bir-biriga o'xshash. Deyarli barcha respublikalarda aholisining yarmiga yaqini qishloq xo'jaligida band. Aholining 20% dan ortiqrog'i sanoatda, 33% i esa xizmat ko'rsatish soxalarida band.

O'RTA OSIYO MAMLUKATLARI XO'JALIGI

Reja.

1. O'rta Osiyodavlatlari sanoat tarmoqlari.
2. O'rta Osiyodavlatlari qishloq xo'jaligi tarmoqlari.
3. O'rta Osiyodavlatlari transport tarmoqlari

O'rta Osiyodavlatlari xalq xo'jaligi og'ir sanoat, oziq-ovqat va engil sanoat bilan birgalikda rivojlangan qishloq xo'jaligi majmuasidan iborat. Mintaqa MDH davlatlari orasida xom ashyo etishtirishga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. 80-yillarning boshlarida sobiq Ittifoqning 5 % sanoat maxsulotini, 16 % qishloq xo'jalik maxsulotini etkazib byerilgan.

Xozirgi kunda ham MDH davlatlarida etishtiriladigan paxtaning 95% i O'rta Osiyo davlatlariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari bug'doy, sholi, makkajo'xori kabi ekinlar ham ko'petishtiriladi. SHuningdek ko'plab miqdorda rangli metallar—surma, mis (1998 yili Qozog'istonda 324,8 ming tonna yoki jaxonning 5,6 foiz misi qazib chiqarilgan. MDH da Rossiyadan keyin ikkinchi o'rin), ko'plab miqdorda neft, gaz, ko'mir qazib chiqariladi.

Ayrim MDH davlatlarida neft va gaz qazib chiqarish

Davlatlar	Neft mln. t		Gaz mln.m ³	
	1990 y	1995 y	1990 y	1995 y
+ozoliston	25,8	20,5	6,6	5,9
Rossiya	516	307	597	595

Turkmaniston	5,7	4,7	81,8	32,3
O'zbekiston	2,8	7,8	38	47,5
Ukraina	5,3	4	26,2	18,8
O'zbekiston % xisobida	0,5	2,3	5,1	6,8
JAMI	555,6	344	749,6	698,8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki 1990 yilga nisbatan 1995 yilga kelib MDH davlatlarida neft va gaz qazib chiqarish nisbatan kavaygan. Respublikamizda esa aksincha mustaqillik yillarida neft va gaz qazib chiqarish nisbatan ortgan. Buning asosiy sababi Buxorova Qashqadaryo viloyatlarida yirik neft konlari topilib ishga tushirilganligidir.

MDH davlatlaridagi neftni qayta ishlash zavodlari

Davlatlardagi zavodlar	quvvati barrel. kun	Xom ashyo	Manba	Tashib keltirish	Ishlash xolati
Qozog'iston CHimkent Pavlador Atirau	160,000 162,666 104,000	Neft kondensat Neft Neft	Tyumen, Turkmaniston O'zbekiston, Tyumen, Atirau, Qozog'iston	Truboprovod, temir yo'l Truboprovod Truboprovod,	Ishlaydi
O'zbekiston Farg'ona Buxoro	156,204 51,383	Neft kondensat Neft kondensat	Farg'ona Buxoro Buxoro	Truboprovod, temir yo'l Truboprovod,	Ishlaydi
Turkmaniston CHorjuy Krasnovodsk	120,493 88,000	Neft-kon- densat Neft	Tyumen- CHimkent Buxoro orqali Ozarboyjon Turkmaniston	Truboprovod, temir yo'l Truboprovod, tankyer	Ishlaydi
Qirg'iziston Kant Orlovka Kirgail/KRS	7,500 1,500 10,000	Kondensat Kondensat Neft kondensat	O'zbekiston va Tyumen oblasti O'zbekiston Farg'ona vodiysi va Qirg'iziston		Ishlaydi

Manba: O'zbekiston neftni qayta ishlash aksionyerlik kompaniyasi ma'lumotlari.(T.2001).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki Markaziy Osiyodagi eng yirik neftni qayta ishlash zavodlari Qozog'istonning Pavlodar va CHimkent, O'zbekistonning Farg'ona zavodlaridir. Bu zavodlarda bir kunda 156.204 barreldan 162.666 barrelgacha neft qayta ishlanadi. Tozalangan neft mahsulotlari iste'molchilarga temir yo'l va quvur transporti orqali etkazib byeriladi.

Ko'mir kazib chikarish buyicha Qozog'iston Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinda turadi.

Oltin qazib chikarish bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari ichida Rossiyadan keyin 2-urinda, dunyoda esa 8-o'rinda turadi. (Dunyoda eng ko'p JARda 620 t, Rossiyada 150 t, O'zbekistonda 75 t)

Endi mintaqa sanoat majmualariga baho byeradigan bo'lsak, ulardan yoqilg'i-energetika majmui sobiq Ittifoqda ishlab chikarilgan elektr enyergiyaning 11,1%, neft 6,0%, gaz 16,7%, ko'mir 20,2%i to'g'ri kelgan.

Mintaqada IES lar hissasi Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekistonda ancha (90%) yuqori. GES lar hissasi esa tog'li Tojikiston va Qirg'izistonda (90%) yuqori.

Neftning 60%i Qozog'iston va 23%i O'zbekiston xissasiga tugri keladi.

Qirg'iziston va Tojikistonda bu tarmoq ahamiyati past.

Gaz ishlab chikarishda O'zbekiston(55%) va Turkmaniston etakchilik kiladi.Bu tarmoq ham Tojikiston va Qirg'izistonda ahamiyati past.

Ko'mir sanoatida 95%ga yakini Qozog'istonga, 3,5%i O'zbekistonga to'g'ri keladi. Turkmanistonda esa bu tarmok shakllanmagan.

Kora metallurgiya sanoati Qozog'istonda rivojlangan bo'lib, MDH da RF va Ukr R dan keyin turadi.(O'r. Osiyoda QozR 88%, O'zbR 10%).

Rangdor metallurgiya ham Qozog'iston xissasi ancha katta , ayniqsa, alyuminiy, qo'rgoshin, rux, xrom, mis, ishlab chikarishda. Ikkinchi respublika O'zbekistonning xissasi esa oltin , uran, volfram qotishmalari, mis, ayrim tarqoq matyeriallar ishlab chikarishda yuqori, Rangdor metallurgiya sanoati Turkmanistonda tarmoq sifatida shakllangan.

Kimyo sanoati mintaqada asosan tog kon kimyosi, neftni kayta ishlash va mineral ugitlar ishlab chikarish ahamiyatiga ega.Mineral ugitlar ishlab chikarish sanoati O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmanistonda rivojlangan. Tojikiston va Kirgizitsonda esa bu tarmok tashkil kilinmagan.

Mashinasozlik sanoati, yuqorida qayd etilganidek, asosan kishlok xujaligi vatog kon sanoatiga xizmat kilishga ixtisoslashgan. Eng asosiy tarmoklari:

qishloq xo'jaligi dexqonchilik sohalarida ishlashga mo'ljallangan turli mashina va uskunalar ishlab chikaruvchi korxonalar Qozog'iston (70%), O'zbekistonda (6%) ishlab chikariladi.

Traktorlar asosan O'zbekistonda (56%) va Qozog'istonda (44%)

Ekskavatorlar O'zbekistonda (71%)va Qozog'istonda (29%) ishlab chikarilmoqda.

Bu soxada respublikalar mustaqilligi yillarida ayniqsa katta siljishlarga erishilmoqda. Ayniqsa O'zbekistonda mutlaqo yangi mashinasozlik tarmoqlari yaratildi. Jumladan, O'rta Osiyoda xozircha yagona avtomobilsozlik markazlari Asaka va Samarqandda yaratildi, radio, telemexanika, maishiy xizmat ishlab chikarish korxonalari tashkil qilindi.

Qurilish matyeriallari sanoatining bir qator yo'nalishlari deyarli barcha respublikalarda mavjud. TSement sanoati ana shunday tarmoqlardandir. Mintaqada ishlab chikariladigan tsementning taxminan 42% i Qozog'iston, 40% O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi.

Engil sanoat mintaqaning barcha respublikalari xalq xo'jaligida muhim o'rin tutadi. Paxta tozalash, to'qimachilik, trikotaj, tikuvchilik, poyafzal kabi tarmoqlari uning asosiy yo'nalishidir.

Jumladan, paxta tolasining 63,5% O'zbekistonda, 19,7% Turkmanistonda, 8% ga yaqini Tojikistonda. Ip gazlamalarining 61% O'zbekistonda, 17% Qozog'istonda, 11% Qirg'izistonda , shoyi gazlamalarining 46% i O'zbekistonda, 30% dan ortig'i Tojikistonda, 14% Qozog'istonda,

poyabzal maxsulotlarning 52% O'zbekistonda, 30% ga yaqini Qozog'istonda ishlab chiqarilmoqda.

Oziq-ovqat sanoati sanoatning xalq itsemoli mollari ishlab chiqaradigan ikkinchi muxim tarmog'idir. U axolining birinchi navbatdagi tirikchilik vositalarini ishlab byerishibilan birga ayniqsa ahamiyatlidir va mintaqada tarmoqning ko'plab soxalarini har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Uning eng muximlaridan:

Go'shtning 69% Qozog'iston, 17% O'zbekiston, 7% Qirg'iziston;

O'simlik moyining 65% O'zbekiston, 15% Turkmaniston, 10% Qozog'iston, 8% Tojikiston;

Meva sabzovot konsyervalarining 61% O'zbekiston, 16% Qozog'iston, 11% Tojikiston xisobiga ishlab chiqarilmoqda.

Takrorlash uchun savollar:

O'rta Osiyorespublikalari iqtisodiyotida sanoatning qay darajada rivojlanganligani taxlil qiling?

Qozog'iston va O'zbekistonda og'ir sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasi qanday sabablarga ko'ra ancha yuqori?

Axoli iste'moli mollari ishlab chiqarish tarmoqlari ahamiyati qaysi respublikalarda ahamiyatli va uning sabablari nimada?

O'RTA OSIYONING QISHLOQ XO'JALIGI.

REJA:

1. Agrosanoat majmuasi (ASM) xaqida tushuncha, uning tarkibi, iqtisodiyotda tutgan o'rni.
2. O'O ASM ning xususiyatlari, respublikalarda tutgan o'rni.
3. O'O dexqonchiligi tarmoqlari.
4. O'O chorvachiligi tarmoqlari.
5. O'O ASM tarkibidagi sanoat tarmoqlari.
6. Mustaqillik va yangi iqtisodiy munosabatlar davrida O'O ASMi rivojlanish istiqbollari.

Tayanch tushunchalar:

qishloq xo'jaligi tarmoqlari nisbati - qishloq g'o'jaligi maxsulotlari etishtirishda dexqonchilik va chorvachilik tarmoqlari xissasi.

Sug'orma dexqonchilik – sun'iy sug'orish asosida faoliyat ko'rsatsdigan dexqonchilik.

1. Agrosanoat majmui (ASM) respublikalar iqtisodiyotining xozirgi davr qishloq xo'jaligining muxim tarkibiy qismi bo'lib, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini samarali ravishda etishtirish va itse'iolchilarga etkazishdan iborat.

ASM ning jamiyat iqtisodiyotidagi asosiy vazifasi bo'lib axolini etarli darajada ozik-ovqat, sanoat tarmoklarini xilma-xil xom ashyo mahsulotlari bilan ta'minlash xisoblanadi.

O'ORning ASMning asosiy bo'g'ini bo'lib ularning qishloq ho'jalik tarmoqlari hisoblanadi. Ishlab chiqarilayotgan YAIM ning Qozog'iston va Turkmanistondagi

38,9-39,5% gacha bo'lgan qismi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi (1992 yil.) SHunga mos ishchi kuchining ham o'rtacha 42-44% (faqat Qozog'istonda 23,2) ana shu soxalarda ish bilan band. O'O ASM ning asosiy bo'g'ini bo'lib ularning qishloq xo'jalik tarmoqlari hisoblanadi.

qishloq xo'jaligining boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan eng muhim farqi ularning yer-suv, tabiiy-iqlimiy sharoitlar bilan chambarchas bog'langanligidir. SHu sababli har bir respublikada o'ziga xos qishloq xo'jaligi ixtisosligi shakllangan. Jumladan, Qozog'iston

asosan tabiiy nam asosida faoliyat ko'rsatadigan dehqonchilik va cho'l-yaylov chorvachiligi, O'zbekiston va Turkmanistonda asosan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik va chorvachilik, Tojikiston va Qirg'izistonda esa tog'li sharoitga xos dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosida O'rta Osiyoda yer suv resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari turadi. O'O mintaqasida haydaladigan yerlar jami qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning 14,0% ga to'g'ri kelsa, bu ko'rsatkich Qozog'istonda 15,8%, Qirg'izistonda 12,1%, Turkmanistonda 3,2% va O'zbekistonda 16,1% ni tashkil qiladi.

Ma'lumki, yer nafaqat qishloq xo'jaligida, balki, jamiyat ijtimoiy hayotida katta o'rin tutadi. Xalq orasida bekorga «Barcha boyliklarning otasi mehnat bo'lsa, onasi yerdir» deyilmaydi. SHuni e'tiborga olib, O'rta Osiyo respublikalarida aholi jon boshiga haydaladigan yerlarning ko'rsatkichini keltiramiz. 1992 yil hisobiga ko'ra, respublikalarda ular quyidagicha: Qozog'istonda 2,1 ga, Qirg'izistonda 0,30 ga, Tojikistonda 0,14 ga, Turkmanistonda 0,30 ga, O'zbekistonda 0,20 ga. Ma'lumki, O'O mintaqasi iqlimi o'ta qurg'oqchilligi bilan ajralib turadi, shu sababli unda qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy shartlaridan biri bo'lib sun'iy sug'orish turadi. Sug'oriladigan maydonlar hajmi, 1990 yil hisobiga ko'ra Qozog'istonda 2,3 mln ga (jami haydaladigan yerlarning 6,5%), Qirg'izistonda 1,0 mln ga (71,4%), Tojikistonda 0,7 mln ga (87,5%), Turkmanistonda 1,3 mln ga (100%) va O'zbekistonda 4,2 mln ga 93,3% ni tashkil etadi.

Ko'rinib turibdiki, bir tomondan har bir respublikada (Qozog'iston bundan mutsasno) aholi jon boshiga nihoyatda kam miqdorda haydaladigan yerlarning to'g'ri kelishi, ikkinchi tomondan ishlov byeriladigan asosiy yerlarning sug'orilishi, ularda yer- suv resurslari naqadar ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

qishloq xo'jaligining rivojlanish omillari ta'sirida O'O respublikalarida quyidagi ixtisoslashish kelib chiqqan: Qozog'iston jami qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymatining yarmidan ko'pi chorvachilik hissasiga to'g'ri keladi. Qirg'izistonda dehqonchilik va chorvachilik hissalarini bir-biriga yaqin nisbatga ega. Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonda dehqonchilik nisbati chorvachilikdan ancha yuqori.

Dehqonchilikda ekiladigan ekinlar tarkibi (1992 y % hisobida)

Davlatlar	Donli ekinlar	Texnika ekinlari	Kartoshka ,sabzovot Poliz	Em-xashak
Qozog'iston	65,0	0,3	0,2	34,5
Qirg'iziston	45,6	1,7	1,8	50,9
Tojikiston	32,5	35,1	3,5	28,9
Turkmaniston	23,1	45,4	2,1	29,4
O'zbekiston	28,6	40,5	4,8	26,1

Respublikalarda mustaqillik siyosati va bozor munosabatlariga o'tish dehqonchilik tarkibida ham o'ziga xos o'zgarishlar keltirib chiqarishi tabiiy. Jumladan O'zbekiston, Turkmaniston respublikalarida o'zini-o'zi g'alla bilan ta'minlash vazifasi qo'yilgan va ularning xissasi ancha ko'tarilgan.

CHorvachilik tarkibi (1992 yil mln bosh hisobida)

davlatlar	qoramol	sigir	qo'y echki	va	Yilqi	CHo'chqa	Parranda
Qozog'iston	9,6	3,6	34,4		1,7	2,6	99,66
Qirg'iziston	1,1	0,5	8,7		0,3	0,2	10,4
Tojikiston	1,2	0,5	3,1		0,05	0,1	4,4
Turkmaniston	1,0	0,4	5,8		0,02	0,2	5,9
O'zbekiston	5,3	2,2	10,3		0,1	0,5	26,22

Fyermyerchilik harakatining boshqa mulkchilik shakllarining rivojlanishi va boshqa munosabatlariga o'tish davri, tabiiyki bu yo'nalishda ham ancha o'zgarishlarni keltirib chiqargan.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'O iqtisodiyotida ASMning o'rni va ahamiyati?
2. O'O respublikalari dehqonchiligi hususiyatlarini tahlil qiling?
3. O'O respublikalari chorvachiligi xaqida gapiring?
4. Mintaqa ASM ning rivojlanish itsiqbollari qanday muammolarni hal qilishni talab qiladi?

TRANSPORT VA IQTISODIY ALOQALARI

REJA:

1. Transportning mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.
2. O'rta Osiyotransport tarmoqlarining tarkibi va ular o'rtasidagi tafovutlar.
3. Transport tarmoqlarining O'rta Osiyomamlakatlarida rivojlanish itsiqbollari.
4. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati.
5. Tashqi iqtisodiy aloqalarning O'rta Osiyodavlatlari mustaqillik yillarida rivojlanishi.

Transport barcha tarixiy rivojlanish bosqichlarida davlatlar iqtisodiy taraqqiyotining hal qiluvchi tarmoqlaridan bo'lib kelgan. U asosan moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari qatoriga kirib, xalq xo'jalik mollari va aholi (mehnat resurslari)ning hududlararo tashilishi, taqsimlanishi va qayta taqsimlanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Oddatda transportni tirik organizm deb tasavvur qilinadigan jamiyat – iqtisodiyotning qon tomirlariga taqqoslaydilar. Transport ishida o'zilish va to'xtab qolish sodir bo'lsa iqtisodiyotda ham jiddiy parokandaliklar yuz beradi. Bu transportning davlat iqtisodiyotida katta o'rin tutishini bildiradi.

Transport tarmoqlari bajaradigan ish harakteriga ko'ra har bir iqtisodiyotda alohida tarmoqlar tizimini talshkil etadi. U quruqlik (temir yo'l, avtomobil, quvur transporti), suv (dengiz va daryo transporti), havo hamda elektron transport tarmoqlariga bo'linadi. Ular turli sharoit va texnologiyada harakat qilganliklari sababli bajaradigan ishlari tannarxi ham turlicha bo'ladi. Odatda eng arzon tannarx dengiz va quvur transporti bo'lib, eng qimmat tannarxda havo va avtomobil transportlari yuk va yo'lovchi tashiladi. Transport tarmoqlarining bajargan ishi ishning umumiy hajmi va yuk oboroti hisobida baholanadi. Transport tarmog'ining yil davomida

talshigan yuki uning umumiy yuk tashish hajmini va o'sha tashilgan yukning o'rtacha qancha masofaga tashilishi ko'rsatkichiga ko'paytirilgani natijasi transport tarmog'ining bir yil davomida bajargan yuk oboroti hajmini keltirib chiqaradi.

Transport tarmog'ining qancha ish bajarganligi va uldarning hissasi mamlakatning yuk tashish tabiiy geografik sharoitlariga ko'ppihatdan bog'liqdir. Masalan dengiz bo'yida joylashgan mamlakatlarda yuk tashishda nisbatan dengiz transporti, tog'li hududlarda havo transporti ahamiyatliroq. Markaziy Osiyo tipik kontinental davlatlar mintaqasi bo'lganligi sababli ularda avtomobil va temir yo'l transport tarmoqlari alohida ahamiyatga ega.

Yuk tashish hajmiga ko'ra, garchi barcha O'rta Osiyo davlatlarida avtomobil transporti (uning hissasi tog'li Tojikiston va Qirg'izistonda mutlaqo katta) ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo'lsada, u asosan qisqa masofalarga yuk tashish xususiyatiga ega bo'lganligi uchun, yuk oboroti ko'rsatkichi bo'yicha O'rta Osiyo respublikalarida (Turkmaniston bundan mustasno) temir yo'l transporti katta ustunlikka ega.

O'rta Osiyo davlatlarida 1993 yil ma'lumotlariga ko'ra, asosiy transport tarmoqlari bo'yicha yo'llar uzunligi quyidagicha (ming km hisobida)

	Temir yo'l transporti		Avtomobil transporti		
	Yo'llar uzunligi Ming km hisobida	1 ming km ² maydonga yo'llar zichligi	Yo'llar uzunligi	SHundan asfalt- langan yo'llar	Asfalt yo'llar 1 km ² ga zichligi
Qozog'iston	14,4	5,3	87,9	82,6	30,66
Qirg'iziston	0,4	2,1	36,7		
Tojikiston	0,5	3,4	27,7	12,4	152,33
Turkmaniston	2,15	4,4	25,7	16,5	33,8
O'zbekiston	3,5	7,3	83,0	71,1	158,9

Barcha transport tarmoqlari respublikalarda samarali ravishda bozor munosabatlariga o'tish jarayonida o'zlarining amaliy hissalarini qo'shmoqdalar. Ularning ichki rayonlararo va tashqi davlatlararo yuk tashishini qulaylashtirish maqsadida respublikalarda yangoi yo'llar qurilsh, yuk tashish tannarxlarini arzonlashtirish harakatlari olib borilmoqda.

Davlatlar iqtisodiyotining taraqqiyotiga tadshqi iqtisodiy aloqalar (siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, madaniy) suv bilan havodek zarur.

Faqat barcha yo'nalishlardagi tashqi iqtisodiy aloqalarni riojlantirish orqaligina har qanday davlat, shu jumladan O'rta Osiyodavlatlari o'z iqtisodiyotlarini ilg'or mamlakatlar darajasidda rivojlantira olishlari, jahon hamjamiyatida o'zlariga mos o'rinlarni egallashlari mumkin. Bunday aloxqalarni yaxshi tashkil qilish shartlaridan biri albatta davlatlararo totuvlik, siyosiy barqarorlik hamda zamonaviy aloqa yo'llariga ega bo'lishdir. Bu borada mustaqillik yillarida ancha muhim ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Har bir O'rta Osiyodavlati, jumladan O'zbekiston, respublikalarning tashqi iqtisodiy aloqalar, birinchi navbatda, tashqi savdo eksport salohiyatlarini oshirish, xorijiy invetsitsiyalarni jalb etishga alohida e'tibor byermoqdalar. Tashqi savdo geografiyasida ham mahsulotlar savdosi

tarkibida ham tub o'zgarishlarga erishilmoqda. Mintaqaning asosiy davlatlari – O'zbekiston, Qozog'istonda tashqi savdo hamkorlari bo'lib rivojlangan davlatlar maydonga chiqmoxqda hamda xom-ashyo mahsulotlariga nisbatan its'emolga tayyor mahsulotlarni eksportga chiqarishda sezilarli yutuqlar qo'lga kiritilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'rta Osiyorespublikalari transport tarmog'i, tashqi iqtisodiy aloqalarda va milliy iqtisodiyotni oyoqqa turg'izish yo'lida tobora samarali xizmat qilmoqda.

QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI.

REJA:

1. Qozog'iston Respublikasi jahon siyosiy haritasida
2. Hududiy kattaligi, chegaralari, iqtisodiy-geografik o'rni.
3. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.
4. Aholisi va mehnat resurslari.
5. Xo'jaligi.

Tayanch tushunchalar:

Qirg'iz avtonom oblasti – 1920 – 25 yillar davomida Qozog'iston Respublikasi ana shunday atalgan.

Qo'riq Respublikasi – Sobiq SSSR respublikalari orasida eng ko'p qo'riq va bo'z yerlar o'zlashtirilganligi sababli Qozog'iston shunday nom olgan.

Ligyerlovchi metallar – po'lat va prokat ishlab chiqarishda ularning sifatini keskin oshirishda qatnashadigan metallar. Ular volfram, molibdden, tantal, niobiy, vanadiy va boshqalar.

Ochiq usulda qazib chiqarish – yer yuzasiga yaqin joylashgan ayrim mineral boyliklarni, utski qatlamlarni olib tashlab, zamonaviy texnik vositalar yordamida qazib chiqarish. Hozirgi davrda ko'mir temir rudasi, ayrim rangdor metallar, kimyoviy va qurilish matyeriallaridan iborat minerallar shu yo'l bilan qazib olinmoqda. Odatda ularning tannarxi shaxta usulida qazib chiqarishga nisbatan ancha arzon tushadi.

Qozog'iston Respublikasi sobiq SSSR ning barbod bo'lishi tufayli MDH davlatlari orasidaeng so'nggilaridan bo'lib mustaqilligini e'lon qildi. (16.12. 1991). SHuning bilan birga jahon siyosiy haritasida o'ziga xos xususiyatlardagi maydoni va iqtisodiy imkoniyatlariga ko'ra eng yirik davlatlardan biri yuzaga keldi.

Aslida Evrosiyo markaziy qismidagi keng tekisliklarni o'zida birlashtirgan bu o'lkada tarixiy davrlarda turli o'lkalar yuzaga kelgan. YOki ular O'rta Osiyoda turli davrlarda yuzaga kelgan o'lka n va qudratli davlatlar tarkibiga kirgan. XVI – XIX asrlar davomida u asta – sekin CHor Rossiyasi tomonidan bosib olindi. 1920 yilda Qirg'iz avtonom viloyati, 1925 yilda Qozog'iston ASSR (RSFSR tarkibida) va 1936 yil 5 dekabriddan boshlab Qozog'iston SSR maqomida shakllangan edi. Qozog'iston Respublikasi poytaxtlari rollini ham turli davrlarda turli shaharlar o'tadilar. Bular Orenburg(1920-1925 yy), Qizil O'rda (1925-1929 yy) va Olmota (1929-1998 yy. So'nggi poytaxti etib Ostona (oldingi Oqmola (TSelinograd)) shahri tanlandi.

Hozirgi vaqtda Qozog'iston respublikasi ma'muriy-hududiy tarkibida 14 ta viloyat mavjud.

Qozog'iston Respublikasining umumiy maydoni 2,7 mln km² dan ortiq, mintaqa hududining 2/3 qismidan ko'prog'ini tashkil qiladi. Kattaligiga ko'ra u MDH da Rossiyadan keyin 2, jahonda esa 9 chi o'rinda turadi. Ammo aholisining soni (...)ga ko'ra ancha orqada.

Qozog'istonning geografik o'rni ham o'ziga xos. U Evrosiyo matyerigining markazi, O'rta Osiyo mintaqasining shimoliy tomonini egallaydi. Uning hududi Rossiya Fedyeratsiyasi va Turkiyaga o'xshab Evropa va Osiyo qit'alarida joylashgan.

Uning hududi shimoldan janubga 1800 km, g'arbdan sharqqa esa, 3000 km ga cho'zilgan va quruqlikda 5 ta davlat (Rossiya, Xitoy, Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmaniston) bilan chegaradosh. CHegaralarining umumiy uzunligi 11587 km ni tashkil etadi. SHuningdek 600 km masofada Rossiya, Ozarbayjon, Turkmaniston bilan Kaspiy dengizi orqali ham chegaralarga ega.

Respublikaning iqtisodiy geografik o'rni ham nisbatan qulay. O'rta Osiyodavlatlarini shimol, g'arb va sharq bilan bog'lovchi asosiy temir yo'l va avtomobil yo'llari ustida joylashgan. Boshqacha aytganda Qozog'iston, Rossiya, Xitoy va Yaponiya hamda Evropa davlatlari bilan bog'lanish imkoniyatlariga ega. Uning Kaspiy dengizi bilan tutashligi ham IGO' qulayligini oshiradi.

Tabiiy sharoitiga ko'ra O'rta Osiyo respublikalaridan ancha farq qiladi. Relief xususiyatlariga ko'ra uning hududi asosan tekisliklardan (2/3 qismi) tashkil topgan. qolgan 1/3 qismi tog'lar va yassi tog'liklardan iborat. Umuman respublikaning g'arbiy, shimoliy va markaziy qismlarini tekisliklar egallagan. Asosiy tog'lari shimoliy-sharqiy tomondagi Rudali Oltoy, janubiy-sharqiy va janubiy chegaralar bo'ylab Jung'oriya Olatovi, Torbog'otoy, Tyan - SHan tog'lari tizmalari, qoratorov va respublikaning markaziy mintaqasi bo'ylab g'arbdan sharqqa tomon cho'zilgan Qozog'iston yassi tog'ligi, shimoldan janubga tomon cho'zilgan ancha pastqam Mug'ojar (Ural tog'ining janubiy davomi) va respublikaning chekka janubiy-g'arbiy qismidagi Mang'itsov bu o'lkaning asosiy tog' va yassi tog'larini tashkil qiladi. Uning reliefi iqtisodiy geografik nuqtai nazardan qaraganda ijobiy xususiyatlarga ega. Boshqacha aytganda, hududni iqtisodiy o'zlashtirishda (ekin maydonlariga aylantirish, yo'llar, aholi punktlari, korxona qurishda va boshqalar) ortiqcha qiyinchiliklar bo'lmaydi.

Iqlimi turli ob'ektiv sabablarga (hududning kattaligi va g'arb, janubiy-g'arbiy hamda shimoliy tomonlardan tabiiy to'siqlarga ega emasligi va boshqalar) ko'ra xilma-xil, keskin kontinental harakterga ega. YOz asosan issiq va davomli o'tadi. Iyul oyining o'rtacha t^0 si janubiy rayonlarda $+26^0$ S dan, shimolda $+19^0$ S gacha tebranadi. Mutloq maksimum $+46^0$ S ga etadi. YOz respublikaning shimoliy va sharqiy hududlari va baland tog'larni hisobga olmaganda, yog'ingarchiliksiz, quruq o'tadi. qish esa Rossiyaning shimoliy hududlaridan qolishmaydigan darajada qahraton, yanvar oyining o'rtacha harorati janubda -50^0 S dan shimolda -60^0 S gacha etadi. Mutloq minimum -48^0 S dan -53^0 S gacha etadi. Sovuqsiz kunlar shimolda 110 kundan janubda 190 kungacha davom etadi. O'rtacha yog'ingarchilik ko'rsatkichlari respublikaning g'arbiy va janubiy g'arbiy tekis cho'l hududlarida 100 ml dan shimoliy va shimoliy sharqiy rayonlari tomon ko'payib boradi va 300 ml dan 600-700 ml gacha etadi. YOg'ingarchilik asosan baland tog'li hududlarga ko'ptushadi. Tabiiy sharoitning bunday harakteri respublika hududida asosan kenglik bo'ylab (shimoldan janubga qarab) o'rmon-dasht, dasht, chala cho'l va cho'l tabiiy geografik mintaqalanish (zonalanish)ning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Tabiiyki, bu mintaqalar iqtisodiy geografik jihatdan turlicha ahamiyatga ega. Jumladan, o'rmon-dasht, dasht va tog' oldi mintaqalari dehqonchilik (asosan tabiiy namlik asosida) uchun, boshqa mintaqada esa chorvachilik uchun ahamiyatlidir.

Tabiiy resurslarga Qozog'iston ancha boy. Ayniqsa tabiiy mineral resurslar ko'lami va xilma-xilligi bo'yicha. U MDH davlatlari orasida mis, qo'rg'oshin, rux, kumush, volfram, xrom, vismut, vanadiy, barit zahiralari bo'yicha birinchi, neft, molibden, kadmiy, boksit, fosforit, asbets zahiralari bo'yicha ikkinchi, ko'mir, temir rudasi ko'plab turdagi mineral qurilish materyallari zahiralari bo'yicha uchinchi o'rinlarni egallaydi. Hozirgi vaqtda Qozog'istonda 500 dan ortiq ko'mir, 200 dan ortiq neft va tabiiy gaz, 2000 dan ortiq mis va 1000 dan ortiq turli rangdor metall konlari borligi aniqlandi.

Qozog'iston yoqilg'i mineral resurslari bilan ayniqsa yaxshi ta'minlangan. Ko'mirning yarmi toshko'mir, yarmi esa qo'ng'irko'mir.

Qarag'anda ko'mir havzasi respublikaning barcha konlariga nisbatan eng ahamiyatlidir. U yagona kokslanadigan ko'mir konidir va asosan shaxta usulida qazib chiqariladi. Unda 14mld. tonna ko'mir zahirasi jamlangan.

Ekibatso'z ko'mir havzasi ko'mir qatlamlarining qalinligi va yer yuzasiga yaqin joylashganlik sharoitlariga ko'ra qazib chiqarishda eng yaxshi qulayliklarga ega. Uning havzasining uzunligi 13, eni 6 km. ko'mir qatlamining qalinligi 175m ni tashkil qiladi. Uning umumiy zahirasi 12 mld tonnadir. Ekibasto'zga yaqin joyda respublikaning uchinchi ko'mir havzasi – Moyko'ba (zahirasi 10 mld tonna, shuning 2 mld tonnasini ochiq uchulda qazib chiqarishmumkin) joylashgan. To'rtinchi yirik qo'ng'ir ko'mir havzasi Ubagan (zahirasi 40 mld

tonna) Qustanay viloyatida joylashgan bo'lib, To'rg'ay yo'lagi bo'ylab asosan shimoldan janubga tomon 800 km ga cho'zilgan va 65 m gacha qalinlikka ega. SHuningdek, Kendyerli, Belokamennoe (SHarqiy Qozog'iston viloyati), Koljat, Tengiz-Korjon ko'l, Langan kabi ko'mir konlari ham mavjud.

Qozog'iston neft zahiralarga ko'ra ham O'rta Osiyoda eng boy respublikadir. Asosiy konlari Ural-Emba-Oqto'ba va Mang'ishloq (Mang'istov) neft – gazli mintaqalarida joylashgan. Aniqlangan zahiralarga ko'ra neft 2,5 mlrd tonna va tabiiy gaz 1,5 trln m³ ni tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda 60 ta kon faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikada dastlabki neft konlari 20-asr boshlarida aniqlangan. (Dossor-Manat), 60-yillar davomida Mang'ishloq (Jetiboy, O'zen, Tasbulat kabilar) konlaridan foydalanish boshlandi. Ularning nefti engil uchuvchan moddalarga boy bo'lib uning salbiy xususiyati tarkibida smola va parafin birikmalarining ko'pligidir(50%). 70-80 yillar davomida eng itsiqbolli Bo'zachi, Tengiz, qalamqas, qrajanbas, qizil O'rda viloyatida qumko'l konlari aniqlangan. Bular orasida o'zining kattaliogiga ko'ra Tengiz (jahondagi eng yirik 5 talikka kiradi). So'nggi yillarda bir qator gaz konlari ham aniqlandi. Bular Utsyurtdagi Jaman, quyonquloq, CHo'lishti, Oqqo'l, qiziloy, hamda Mang'ishloq yarim oroli janubidagi Oymasha konlaridir. Qozog'iston neft va gaz konlari zahiralari ko'pligiga qaramay joylashgan o'rni ancha noqulayligi bilan ajralib turadi. Ular aholi eng siyrak va qurg'oqchil g'arbiy rayonlarda joylashgan va asosan its'emol rayonlaridan juda uzoqda.

Metall rudali mineral resurslari bo'yicha Qozog'iston nafaqat MDH da balki, jahondagi eng boy mamlakatlardandir. Muhimi u ham qora, ham rangdor metallarga boy.

Ayniqsa, rangdor metall rudalari xilma-xilligi va jzahiralarga ko'ra ajralib turadi. Hozirgi vaqtda 74 ta mis koni aniqlangan. Bular Jezqazg'an, Sayak, qo'ng'iroq, Bo'zchako'l, CHatirko'l va boshqalar. Polimetall konlari oorasidda Ziryanova, Uts-Kamenogorsk, Leninogorsk, Zmeinogorsk, Belosuv (SHarqiy Qozog'iston) Tekeli, Achchisoy eng yiriklaridan hisoblanadi. SHuningdek, boksit(Arqaliq, To'rg'ay) xromit(Danskoe), volfram, molibden, kumush, oltin, nikel kabilarning ham 10 larcha konlari mamlakatning turli hududlari bo'ylab joylashgan.

Qozog'iston O'rta Osiyo davlatlari orasida ancha temir rudalariga ega bo'lgan davlat ham hisoblanadi. Uning hissasiga MDH davlatlarining umumiy hissasining 17% to'g'ri keladi. Qustanay viloyati Sokolov, Sarbay, Kochar, Ayak, Lisakovskiy, Markaziy Qozog'istonda Otasuv, Qorajon, SHimoliy Orolbo'yi kabi temir ruda konlari eng ahamiyatlidir. SHuningdek Respublika marganets konlariga (Jezdi) ham nisbatan boy.

Kimyoviy mineral resurslari ham ancha xilma-xil va boy. Bu xil resurslarning asosini fosforit konlari tashkil qiladi. Qorotov fosforit konlari zahirasi va sifat ko'rsatkichlariga ko'ra MDH dagina emas balki, jahondagi eng yirik konlardan hisoblanadi. Bundan tashqari Aktyubinsk fosforit koni ham respublika xalq xo'jaligida ahamiyatlidir.

Qozog'istonda tuz mineral boyliklari juda xilma-xil va keng ahamiyatga ega. Tuz zahiralari shunchalik kattaki, ularni respublika hududiga yoyib chiqilsa, 70 sm li qatlamni tashkil qilgan bo'lar edi. Tuzlarning deyarli barcha turlari bor.

Noruda qurilish mineral resurslari ham katta zahiralarda va xilma-xillikda mavjud. Ular orasida asbest (Jetiqlara), grafit, slyuda, flyuorit, dolomit, ohaktosh kabilar alohida ahamiyatga ega. Boshqa xil tabiiy resurslardan Qozog'iston deyarli barcha turdagi tugamaydigan resurslar (quyosh radiatsiyasi, shamol, geotermal kabilar) ga ancha boy. Respublikaning eng muhim boyliklaridan biri yer fondi bo'lib, u ko'rsatkichlariga ko'ra MDH da eng yirik respublikalardan biri hisoblanadi. SHuning bilan birga suv va o'simlik resurslariga ancha kambag'aldir. Yer yuzasining faqat 3,8 qismi o'rmonli hududlardan hisoblanadi, shuningdek rekreatsiya resurslarining imkoniyatlari ham juda katta. Xilma-xil tabiiy landshaftlar, ko'llar (ularning soni 40 mingdan ortiq) mineral suv manbalari va shifobaxsh balchiqlar va boshqalar respublika rekreatsiya resurslarining asosini tashkil qiladi.

AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI.

Qozog'iston Respublikasi aholisi MDH davlatlari orasida eng ko'p millatlilardan biridir. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, unda 110 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. Buning asosiy

sababi, aholisining o'ziga xos dinamikasidir. Uning aholisi soni quyidagicha o'zgarib bordi (mln kishi hisobida): 1926 yil – 6,0; 1939 yil – 6,1; 1959 yil – 9,3; 1979 yil – 14,7; 1989 yil – 16,5; 1995 yil – 16,7; 1997 yil – 15,9.

Ko'rinib turibdiki, 1939 – 1959 yillar va 1959 – 1979 yillar orasida aholi son jihatidan ancha o'sgan. Birinchi davrda og'ir urush darlari bo'lishiga qaramasdan aholi o'sishiga asosiy sabab, sobiq SSSR ning g'arbiy va markaziy rayonlaridan anchagina sanoat korxonalari va aholining evakuatsiya qilinganligidir. Ikkinchi bosqichda aholining tez ko'payganligining sababi, ushbu davrda Qozog'istonda keng doirada qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish ishlarining davom ettirilganligi va eng muhimi g'arbiy rayonlardan millionlab turli millat vakillarining bu respublikaga ko'chirib keltirilganligidir.

So'nggi 1989 yil aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, respublika aholisining milliy taribiga qozoqlar 39,7 % (1959 yilda 30% edi), ruslar 37,8% (42,7%), ukrainlar 5,4%, nemislar 5,8%, o'zbeklar 2% boshqa millat vakillari 9,3% ni tashkil qiladi. 1959 va 1989 yillar orasida evropalik millat vakillari hisssasi tobora kamayib, mahalliy millat vakillari hisssasi ortib bormoqda. Buning o'ziga xos sabablari mavjud.

Sunggi yillarda Qozog'iston aholisi dinamikasida kuzatilayotgan salbiy ko'rsatkichlar sabablari aholining mexanik(migratsion)harakati bilan bog'liqdir. Tushunarli sabablarga ko'ra, 90 yillar davomida Qozog'istonda migratsion saldo uzluksiz salbiy ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Masalan, 1996 va 1997 yilolar orasida respublika aholisi 180,6 mingga kamaydi.

Aholining hududiy joylashishi, tabiiy sharoiti va hududning iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilish darajasiga bog'liq holda turlichadir. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Qozog'iston aholisinig o'rtacha zichligi har 1 km² maydonga 5,8 kishini tashkil qiladi. Bu MDH da eng past ko'rsatkichdir. Janubiy va SHimoliy Qozog'istonning intensiv dehqonchilik rayonlarida aholining o'rtacha zichligi eng yuqori bo'lib, 20 – 25 kishini tashkil qiladi. Ammo, g'arbiy va markaziy Qozog'istonning cho'l hududlarida bu ko'rsatkich 1 – 2 kishidan ortiq emas.

Qozog'istonda urbanizatsiya darajasi 1997 yilda 56% ni tashkil qilgan. Respublika aholisining 55%i mehnat yoshidagilardir.

Qozog'iston respublikasidagi 14 viloyat 5 ta iqtisodiy rayonga birlashtirilgan. Eng ko'p aholi Janubiy Qozog'iston hududida istiqomat qiladi. 6,5 mln kishi zichlik 9,1 kishi. Keyingi o'rinlarda SHimoliy Qozog'iston 4,4 mln kishi, zichlik 7,3. G'arbiy Qozog'iston 2,2 mln kishi, zichlik 3,1. Markaziy Qozog'iston 1,7 mln kishi, zichlik 4,2.

Xo'jaligi. Hozirgi Qozog'iston respublikasi iqtisodiyoti indutsrial-agrar haraktyerga ega. Tarixiy davrlar davomida asosan ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan bu o'lka xo'jaligida 19 asr oxirlarida rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 77% aholi chorvachilik va 18 % aholi dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Sobiq SSSR davrida Qozog'istonning boy tabiiy boyliklarining o'zlashtirilishi natijasida hozirgi davr sanoatning asosiy tarmoqlari yaratildi, transport kommunikatsiya va shaharlar tizimi bunyod qilindi. Respublika so'nggi vaqtlarda sobiq SSSR ning 40% rux, 6% qo'rg'oshin, 90% sariq fosfori, 95% xrom rudasi, 35% ga yaqin mis va boshqa turdagi sanoat mahsulotlarini etkazib byerayotgan edi.

Respublika xo'jaligining etakchi tarmog'i sanoatdir. Hozirgi vaqtda hududiy mehnat taqsimotida Qozog'iston ixtisoslashgan tarmoqlari – rangdor metallurgiya , ko'mir, ximiya (o'g'it ishlab chiqarish), mashinasozlik, chorvachilik, don xo'jaliklari bilan ishtirok etadi. YAngi ixtisoslashgan tarmoqlardan qora metallurgiya, neft, elektroenergetika tarmoqlari hisoblanadi.

Qozog'iston xo'jaligida etakchi o'rin tutuvchi sanoat o'z navbatida 2 ta yirik guruhga bo'linadi: qazib oluvchi va qayta ishlovchi sanoatlar.

Ikkinchi tomondan barcha sanoat tarmoqlari og'ir sanoat(A guruh) ya'ni ishlab chiqarish va mehnat qurollari va engil sanoatga (B guruh) ya'ni xalq itsoe'mol buyumlari ishlab chiqarishga bo'linadi.

Qozog'iston sanoatida A guruh tarmoqlarining V guruh tarmoqlaridan ustunligi yaqqol kuzga tashlanib turadi.

Qozog'iston rangli metallurgiya sanoati 50 ga yaqin rangli va nodir metallar, rangli metallurgi sanoati asosida esa 70 ga yaqin turli xil ximiyaviy mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu

tarmoqlarning yarmiga yaqini (47%) qo'rg'oshin-rux sanoatiga 30% mis, 8% ga yaqini alyuminiy, qolgani esa oltin qazib olish, titan va magniy ishlab chiqarish, volfram-molibden tashkil etadi.

Qo'rg'oshin va rux sanoati SHarqiy, Janubiy, va Markaziy Qozog'istonda rivojlangan. Oltoyda asosiy rangli metallurgiya kombinati ishlab turibdi. Uts-Kamenogorsk va Leninogorsk kombinatlarida rudalarni kompleks qayta ishlashni va undan 25 xilga yaqin rangdor metall eritib olishni ta'minlaydi. Qustanay oblatsida boksitdan foydalanish asosida Pavlodarda alyuminiy zavodi ishlab turibdi.

Mis qazib olish va eritish Qarag'anda oblatsidagi Balxash va Jezqazg'an tog' metallurgiya kombinati hamda qarsaqbay mis eritish zavodlaridir. Barcha zavodlar Balxashbo'yi va Jezqazg'an konlari asosida ish olib boradi. Irtish mis eritish zavodi mis kontsentratlarini Oltoy ruda boyitish kombinatidan oladi.

Qora metallurgiya Qozog'iston xalq xo'jaligining ixtisoslashgan muhim tarmog'idir. U respublika og'ir sanoatining yosh tarmoqlari qatoriga kiradi. Aktyubinsk yaqinidagi fyerroxrom(temir xrom) zavodi Qozog'iston metallurgiyasining yirik korxonasidir. Mug'ojardan shimoliy g'arbda joylashgan Xromtov konlari bu zavodning xom-ashyo bazasi hisoblanadi.

Respublikaning yoqilg'i sanoati ko'mir-neft' va gaz sanoatlarini birlashtiradi. Kokslanuvchi ko'mirni Qozog'istondan tashqari uran metallurgiya zavodlarida ishlatiladi. Ekibatso'z havzasida ochiq usul bilan qazib olingan ko'mir yirik GRES larda yoqiladi. Neft sanoati muhim o'rinlarni egallaydi. Mang'ishloq yarim orolida (O'zen, Jetiboy), Emba havzasida, qizil O'rda viloyatidagi konlar hamda Atirau, Pavlodar, CHimkent neftni qayta ishlash zavodlari katta ahamiyatga egadir. Neft konlaridan neftni qayta ishlash zavodlariga quvurlar orqali neft yuboriladi.

G'arbiy Qozog'iston – Fors qo'ltig'i neft quvuri orqali xorijiy davlatlarga yuboriladi.

Qozog'istonda gaz sanoati eng yosh sanoat hisoblanadi. Tabiiy gaz asosan janubiy Mang'ishloq va Ustyurt platolaridan shuningdek Emba va Mang'ishloq neft konlaridagi yo'ldosh gazlardan iboratdir. Qazib olingan gazning bir qismi o'sha joyning o'zidagi gazni qayta ishlash zavodlariga – YAngi O'zen, Janajo'l va Tengizda qayta ishlansa, asosiy qismi O'rta Osiyo–Markaz, Buxoro – Ural magistral gaz quvurlari orqali jo'natiladi. Respublikamizning janubiy qismi esa Buxoro-Toshkent – CHimkent – Taraz – Bishkek – Almata gaz quvurlaridan foydalaniladi.

Hozirgi kunda Qozog'iston 8 mlrd m³ gaz qazib olinadi. Ehtiyojni qondirish uchun esa 18 mlrd m³ gaz kyerak. Kelajakda gaz qazib olish 44 mlrd m³ ga etishi mo'ljallanmoqda.

Elektroenergetika sanoati respublika xalq xo'jaligining muhim tarmog'idir. Asosan ko'mir va tabiiy gaz bilan ishlaydigan issiqlik elektr tsantzialari elektroenergetikaning asosini tashkil etadi. Hozirgi paytda 8 ta GRES, 50ta issiqlik elektr markazlari, 20 ta GES hamda 1ta AES ishlab turibdi.

Qozog'iston mashinasozlik kompleksi nisbatan kam rivojlangan. Ularning ba'zilari: Ostnadagi Qozoqselmash, TSelinogratselmash, Pavlodarda o'rmalovchi kuchli traktorlar ishlab chiqaradigan zavodlar mavjud. Qustanay va Olmaotada turli qishloq xo'jalik mashinalari va ularning ehtiyot qismlari ishlab chiqariladi. Qarag'andada tog'-kon uskunalari zavodi, Olmaotada tog' metallurgiyasi va enyergetika uskunalari zavodlari, Ust – Kamenogorskda rangli metallurgiya uchun mashinalar ishlab chiqaradigan korxonalar, Atirauda neft sanoati uchun mashinalar ishlab chiqaradigan korxonalar bor. 1992 yilda CHimkent va Olmaota avtomobil remonti korxonalarida Rossiya bilan hamkorlikda Liaz, PAZ avtobuslari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Qozog'istondagi ximiya sanoati asosan mahalliy xom-ashyo asosida ishlaydi. Aktyubinsk va Tarozda fosforit o'g'itlari, Qarag'andada azot o'g'itlari ishlab chiqariladi. CHimkentda fosforli tuzlar, Temirtovda sintetik spirt, Atirauda polietilen ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Qozog'istonda oziq-ovqat sanoati orasida go'sht etishtirish yaxshi rivojlangan. qishloq xo'jalik xom-ashyosi asosida engil sanoatda qo'y tyerisini oshlash, charm poyafzal, to'qimachilik rivojlangan.

QISHLOQ XO'JALIGI.

Qozog'iston qishloq xo'jaligi ixtisoslashgan tarmoqlardan biridir. Asosan donli ekinlar etishtiriladi. Donli ekinlardan bug'doy, eng ko'p ekilib u barcha donli ekin maydonining 2/3 qismini egallaydi. Bundan tashqari donli ekinlardan tariq, sholi, arpa ekiladi. Texnika ekinlaridan paxta kungaboqar, qandlavlagi ko'proq ekiladi.

CHorvachilik qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlaridan biri bo'lib, ayniqsa qo'ychilik yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari qoramol, yilqichilik, tuyachilik bilan ham qadimdan shug'ullanib kelinadi.

Qishloq xo'jaligi respublikada notekis rivojlangan. Jumladan sug'orib dehqonchilik qilish Janubiy Qozog'istonda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu yerda qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelinadi. Asosiy ekinlari paxta, qandlavlagi, tamaki, sholi, makkajo'xori hisoblanadi. Bundan tashqari bog'dorchilik va uzumchilik ham katta ahamiyatga ega. CHorvachilikda qo'ychilik, qoramolchilik etakchi tarmoq hisoblanadi. Respublikaning shimoliy qismi esa ko'proq don etishtirishga ixtisoslashgan. Bu yer mamlakatning asosiy ekin ekiladigan maydoni ham hisoblanadi. Dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik ham rivojlangan. CHorvachilikda qoramolchilik va cho'chqachilik etakchi tarmoq hisoblanadi. SHuningdek yilqichilik ham katta ahamiyatga ega. CHorvachilikka ixtisoslashgan mintaqalardan yana biri G'arbiy Qozog'iston hisoblanadi. Uning chalacho'l va cho'l hududlarida qorako'lchilik, shimoliy hududlarida yirik shoxli qoramolchilik rivojlangan. Uning xo'jaligida yilqichilik, baliqchilik ham o'ziga xos o'rinlarda turadi. Dehqonchilik nisbatan kam rivojlangan. Asosiy ekinlari bug'doy, arpa hamda poliz ekinlari hisoblanadi. SHudgor qilinadigan hududlar respublikaning 10 foizga yaqin hududini tashkil etadi.

Markaziy Qozog'istonda yaylovlar ko'p bo'lib, bu yerda ham qo'ychilik, qoramolchilik, yilqichilik hamda tuyachilik rivojlangan. Yirik shaharlar atrofida sut-go'sht chorvachiligi, qurg'oqchil mintaqalarda go'sht chorvachiligi ustun turadi.

Dehqonchilikda don etishtirish rivojlangan. SHu bilan birga texnika ekinlaridan pista va zig'ir etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. SHarqiy Qozog'iston o'zining chorvachiligi bilan ajralib turadi. Bu yerda sut-go'sht chorvachiligi (qoramolchilik) hamda cho'chqachilik rivojlangan. Bundan tashqari respublikaning yagona bug'uchilik rivojlangan mintaqasi hisoblanadi. Tog'li hududlarda asalarichilik bilan ham shug'ullanishadi. Bu mintaqada lalmikor dehqonchilik rivojlangan.

TRANSPORTI.

Qozog'iston hududining katta qismi quruqlik bo'lib, ularda tabiiy suv yo'llari juda ham kam. SHu sababli yuk va yo'lovchi tashishda quruqlik transportining ahamiyati kattadir.

Respublikada tashiladigan yuklarning 90 foizi avtomobil va temir yo'l transportlari hissasiga to'g'ri keladi. SHuningdek mamlakatda yuk va yo'lovchi tashishda suv, havo, va quvur transportlari ham ishtirok etadi.

Qozog'iston transporti asosan sobiq Ittifoq davrida rivojlangan. Mamlakatda mavjud bo'lgan temir yo'lining (14,5 ming km) 85 foizi, shuningdek avtomobil, havo, quvur transportlari to'lig'icha o'sha davrda shakllangan.

Mamlakat transportida temir yo'l transporti etakchi hisoblanadi. Temir yo'llar uzunligi bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinda turadi. Dastlabki temir yo'llari - Transsibir va Orenburg-Toshkent yo'nalishlari revolyutsiyadan oldin qurilgan. Hozirgi kunda respublika hududida parallel va myeridional yo'nalishda bir necha magistral yo'llar ya'ni, myeridional yo'nalishda – Transqozog'iston (Petrovsk-Qarag'anda-Mointi-CHuv), Turksib (Aris-Olmaota-Semipalatinsk) va Orenburg-Qizil O'rda-Toshkent, parallel yo'nalishda Transsibir, O'rta Sibir (Magnitogorsk-Ostona-Pavlodar-Barnaul) temir yo'llari ishlab turibdi.

Temir yo'lda asosan ko'mir, temir rudasi, rangli metallar, don, neft va neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, qurilish matyeriallari kabi yuklar tashiladi. Mamlakat yuk oborotining 73, foizi temir yo'l transportiga to'g'ri keladi.

Respublika transportida avtomobil transporti ham katta ahamiyatga ega. Avtomobil yo'lining uzunligi 115 ming km ga etadi. SHundan 93 ming km dan ortiqrog'i qattiq qoplamli yo'llardir. Qozog'iston avtomobil yo'llarining uzunligi bo'yicha ham Rossiya va Ukrainadan keyin 3-o'rinda turadi. Mamlakat yuk oborotida avtomobil transporti hissasiga 14,5 foiz yuk to'g'ri keladi.

Eng yirik avtomagistral yo'llar Janubiy Qozog'iston hududiga to'g'ri keladi. Bu yo'l Olmaotani Toshkent, Bishkek, CHimkent shaharlari bilan tutashtiradi. Mamlakat xo'jaligida Olmaota-CHilik-Qarag'anda-Oqmola-Ko'kchatov-Petropavlovsk, Qarag'anda-Qustanay-Atirau, Oqtov-Jetiboy-YAngi O'zen yo'llari ham katta ahamiyatga ega. Avtomobil transporti rayonlararo, xo'jaliklararo hamda boshqa mintaqalar orasida yuk tashishda o'ziga xos o'rinlarda turadi.

YUk tashish hajmi bo'yicha keyingi o'rinlarda quvur transporti turadi. Bu respublikaning eng yosh transport tarmog'i hisoblanadi. Quvur orqali neft va neft mahsulotlari, gaz kabilar tashiladi. Uning umumiy uzunligi to'rt ming km dan ortadi.

Respublika hududida daryo va ko'llar kam bo'lishiga qaramasdan Qozog'iston suv yo'llarining umumiy uzunligi 4 ming km atrofidadir. Suv yo'li orqali daryo kemachiligi rivojlangan. Ko'pchilik suv yo'llari avtomobil va temir yo'l yo'q bo'lgan joylarda rivojlanganligi sababli katta ahamiyat kasb etadi. Tashiladigan yuklarning asosiy qismi qurilish matyeriallari, non mahsulotlari, o'rmon va yog'ochsozlik, neft va neft mahsulotlari, ko'mir va boshqalardir. Suv yo'li orasida Irtish daryosi katta ahamiyatga egadir. Uning hissasiga suvda tashiladigan yuklarning 90 foizi to'g'ri keladi. (Zaysan ko'li bilan birga uzunligi 1750 km) Ikkinchi o'rinda Ural daryosi turadi, uning uzunligi 1100 km ga etadi. Ili, Ishim, Sirdaryo daryolaridan foydalanish ancha qiyinchiliklar tug'diradi.

Kaspiy dengizida dengiz transporti rivojlangan. Kaspiy dengizi Respublikani 2300 km masofada yuvib turadi. Neft konlarining ochilishi natijasida dengizda yuk tashish rivojlandi. Bu yerda Atirau portidan tashqari Oqtov, Bautiko va Yeraliev portlari qurilgan. Bu portlar orqali Qozog'iston, Ozarbayjon, Dog'iston va Turkmaniston Respublikalari hamda quyi Volgabo'yi rayoni bilan aloqa qilinadi. Dengiz orqali neft va neft mahsulotlari, qurilish matyeriallari, baliq, mashina va dastgohlar xalq iste'mol buyumlari tashiladi.

Hududning kattaligi sababli eng tez transport – havo transporti ham katta ahamiyatga ega. Respublikaning ko'plab shaharlaridan yaqin va uzoq xorij mamlakatlariga havo yo'llari ochilgan. Respublikaning havo yo'llari 1000 km dan ortadi. Barcha oblast markazlarida zamonaviy aeroportlar qurilgan. Har yili o'rtacha Qozog'iston aeroportlaridan sakkiz million yo'lovchi, 80 ming tonna tez buziluvchi va qimmatbaho yuklar tashiladi.

Respublika mustaqillikka erishganidan so'ng yangi yo'llar qurilishi davom etmoqda. Qozog'istondan Xitoyga ochilgan temir yo'li shular jumlasidandir. Bundan tashqari Eron va Turkiyaga O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari orqali qurilayotgan temir yo'l ham katta ahamiyatga ega. SHuningdek aloqalarni yaxshilash maqsadida yangi yo'llar loyihalari ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy rayonlari.

Barcha iqtisodiy rayonlar tabiiy sharoiti va resurslarining xilma-xilligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Qozog'iston Respublikasi iqtisodiy rayonlari bo'yicha ma'lumot
(1 yanvar, 1995 yil)

	Egallagan maydoni Ming km kv	Aholi soni		Aholining o'rtacha zichligi		SHahar va qishloq aholisi nisbati	
		Mln kishi	%	Kishi km kv.	%	SHahar	Qishloq
G'arbiy Qozog'iston	736,1	2,2	27,0	3,2	13,2	58	42
SHimoliy Qozog'iston	565,7	4,4	20,8	8,4	26,6	49	51
Markaziy Qozog'iston	428,0	11,8	15,7	5,8	10,8	82	18
SHarqiy Qozog'iston	283,3	1,7	10,4	7,0	10,2	57	43
Janubiy Qozog'iston	711,8	6,5	26,1	10,7	39,2	42	58
Qozog'iston Respublikasi jami	27249	16,6	100,0	7,0	100,0	56	44

Qozog'iston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari aslosida S. R. Yerdavletov tomonidan tuzilgan.

Janubiy Qozog'iston – sug'orib dehqonchilik qiladigan, intensiv qishloq xo'jaligi rivojlangan yirik mintaqadir. Bu yerda qadimdan qimmatbaho texnika ekinlari: paxta qand lavlagi, tamaki hamda donli ekinlardan sholi va makkajo'xori etishtiriladi. SHuningdek bog'dorchilik va uzumchilik bo'yiocha ham oldingi o'rinlarda turadi. qo'ychilik ham yaxshi rivojlangan. Janubiy Qozog'iston mamlakatning yirik sanoat rayoni hamdir. Bu mintaqada fosforit va polimetall rudalari qazib olish, rux va qalay ishlab chiqarish, supyerfosfat, har xil mashina va datslgohlar ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Iqtisodiy rayon engil va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublikada birinchi o'rinni egallaydi.

SHimoliy Qozog'iston asosiy aholi yashaydigan hududlardan biri bo'lib, bu MDH ning eng yirik don xo'jaligi va go'sht-sut chorvachiligi mintaqasi hisoblanadi. SHu bilan birga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashda ham alohida o'rinda turadi. Ayniqsa go'sht, sut, un, un mahsulotlari sanoati yaxshi rivojlangan. Bu mintaq respublikaning yirik temir rudasi qazib chiqarish, hamda boshqa tog'-kon sanoati markazi ham hisoblanadi. SHular asosida mintaqada qora va rangli metallurgiya sanoati rivojlanib bormoqda. SHuningdek mashinasozlik, ko'mir va elektroenergetika sanoati ham yaxshi rivojlangan.

Markaziy Qozog'iston – nafaqat respublikaning balki, MDHdagi eng yirik ko'mir va temir bazasi hisoblanadi. SHuningdek bu yerda rangli metallurgiya, ko'pmetall talab etuvchi mashinasozlik hamda kimyo sanoati yaxshi taraqqiy etgan. YAngi yerlarning o'zlashtirilishi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari – don etishtirish, go'sht va sut mahsulotlari ishlab bchiqarish rivojlanib bormoqda.

SHarqiy Qozog'iston – mamlakatning va MDH davlatlarining eng yirik rangli metallurgiya va Gidroelektroenergiya ishlab chiqarish markazi hisoblanadi. SHuningdek

mintaqa iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi ham katta ahamiyatga ega. Don etishtirish, go'sht chorvachiligi, qo'ychilik asosida engil va oziq -ovqat sanoati yaxshi rivojlangan.

G'arbiy Qozog'iston – mamlakatning yagona neft qazib olish sanoati rivojlangan mintaqadir. SHu bilan birga bu yerda nikel va xrom qazib chiqarish, neft sanoati mashinasozligi hamda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Mintaqada baliq ovlash va ularni qayta ishlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa chorvachilik va donchilik yaxshi rivojlangandir.

Bu barcha beshta iqtisodiy rayon Qozog'iston Respublikasi yagona xalq xo'jaligi kompleksini tashkil etadi va geografik mehnat taqsimotida katta o'ringa egadir.

G'ARBIY QOZOG'ISTON

To'rtta viloyatni o'z ichiga oladi. Bular G'arbiy Qozog'iston, Aktyubinsk, Atirau va Mang'ishloq. Bu iqtisodiy rayon mamlakatning eng katta hududini egallaydi, aholisi soni bo'yicha esa uchinchi o'rinda turadi. Respublika hududining 27% i, aholisining esa 13,2% ni tashkil etadi. Aholi zichligi eng past bo'lib, 1 km kv ga 3,2 kishi to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich respublika umumiy ko'rsatkichidan deyarli ikki marta pastdir. Mintaqa hududi sharqqa tomon asta-sekin ko'tarilib boradi. Bu yerda Ural tog'larining janubiy qismi bo'lgan Mug'ojar tog'i joylashgan. Bu tog' qadimgi, emirilgan va past tog' bo'lib, eng baland nuqtasi Boqtiboy – uning balandligi 656 m ni tashkil etadi. Mang'ishloq yarim orolida Oqtov tog'i joylashgan. Uning balandligi 700 m dan oshmaydi.

G'arbiy Qozog'iston foydali qazilmalarga boy, asosiy boyligi neft bo'lib, u ko'plab MDH davlatlariga eksport qilinadi. Mang'ishloq yarim orolida neftdan tashqari marganets, ko'mir, temir rudasi, fosforit, ohaktosh kabi foydali qazilmalar topilgan. Mug'ojar tog'larida esa temir rudasi konlari topilgan. SHuningdek Aktyubinsk viloyatida fosforit, xromit, nikel, kobalt rudalari, marmar, shisha qumi, ohaktosh va boshqa qimmatbaho minerallar topilgan. Xrom, nikel, kobalt rudalari zahirasi bo'yicha Qozog'iston MDHda oldingi o'rinlarda turadi. YUqoorida ta'kidlaganimizdek mintaqa hududida aholi zichligi ancha past. Eng yuqori ko'rsatkich uning shimoliy qismida bo'lib, 1 km kv ga 10 kishi. Hozirgi kunda jami aholisining 58% shaharlarda istiqomat qiladi. SHahar aholisi asosan viloyat markazlarida (Aktyubinsk, Atirau, Mang'ishloq) ko'pchilikni tashkil etadi. Bu viloyatlardan farqli o'laroq G'arbiy Qozog'istonviloyatida qishloq aholisi ko'proq. Mintaqada 14 ta shahar bo'lib, shundan yarmi Aktyubinsk viloyatiga to'g'ri keladi. Yirik shaharlari Aktyubinsk, Oqtov, Atiraular bo'lib, bularda 150-300 ming kishi istiqomat qiliadi. Bundan tashqari Oqsoy, YAngi O'zen, Xromtov, CHelkar kabi shaharlar ham bor.

G'arbiy Qozog'iston MDH davlatlaridagi kelajagi porloq neft-gaz mintaqasi hisoblanadi. Datsdlab bu yerda Jetiboy, Uzen konlari, keyinroq Tanga, Tasbulat, Karamandibas konlari ochilgan edi. Hozirgi kunga kelib yangi konlar: SHimoliy Bo'zagan, Qalamqas, Qarajanbas va boshqalar topildi. Mintaqada Makat –Beynov, SHEvchenko-O'zen temir yo'li tortilgan. Oxirgi stantsiyasi asosida YAngi O'zen shahri tashkil etildi.

Mang'ishloqda qazib olinadigan neft O'zen- Atirau- Samara quvur transporti orqali Volgabo'yiga O'zen-Aqtau neft quvurlari orqali Oqtov portiga keltirilib, MDH davlatlariga jo'natiladi.

Mintaqa hududida Mang'ishloq HICHM rivojlanmoqda. Bu HICHM si neftni qayta ishlash, gaz va kaliy sanoati va qurilish matyeriallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Uning geografik o'rni juda qulay bo'lib, hududidan Volgabo'yi, SHimoliy Kavkaz, Ural, Kavkazorti va O'rta Osiyorespublikalarini tutashtiruvchi temir yo'llari o'tgan. G'arbiyQozog'istonda respublikaning asosiy gaz konlari joylashgan. Lekin gaz qazib chiqarish hozirda ko'pemas. qazib olingan gaz Qozog'iston (YAngi O'zen) gazni qayta ishlash zavodida tozalanib iste'molga jo'natiladi. Bir qismi esa O'rta Osiyo– Markaz gaz quvuri orqali Rossiyaga o'zatiladi.

Atirau viloyatida neft-gaz kompleksidan tashqari metallurgiya kimyo sanoat kompleksi ham shakllangan. Mintaqaning kimyo sanoati, neft-gaz sanoatidan tashqari xilma-xil kimyo xom-ashyosi qazib olish sanoati bilan ham chambarchas bog'liq. Mintaqada Atirau polietilen va Oqtov platsmassa zavodlari ishlab turibdi.

G'arbiy Qozog'istonda oziq-ovqat sanoati ham, ayniqsa baliqni qayta ishlash yaxshi rivojlangan. MDH davlatlarida ovlanadigan osyotr balig'ining 70% ni G'arbiy Qozog'iston iqtisodiy rayoni etkazib byeradi. Baliq asosan Kaspiy dengizida va Ural daryolarida ovlanadi. Bu yerda MDH davlatlaridagi eng yirik konsyerva kombinatlaridan biri – Atirau baliq-konsyerva kombinati joylashgan. SHuningdek mintaqada un va un mahsulotlari go'sht, sut ishlab chiqarish ham yaxshi taraqqiy etgan.

G'arbiy Qozog'iston xo'jaligida qishloq xo'jaligi ham etakchi o'rinda turadi. Ayniqsa chorvachilik yaxshi rivojlangan bo'lib, chorvachilikda etakchi tarmoqni qo'ychilik egallaydi. Mintaqaning janubiy chalacho'l va cho'l hududlarida qorako'lchilik yaxshi rivojlangan. SHimoliy hududdlarida esa yirik shoxli qoramollar boqiladi. qadimdan mintaqada yilqichilik bilan shug'ullanib kelishadi. Janubiy-g'arbiy hududlarida tuyachilik rivojlangan bo'lib, umumiy soni bo'yicha respublikada birinchi o'rinni egallaydi.

Dehqonchilik mintaqada kam rivojlangan. Bu yerda respublikaning atigi 10% shudgor qilinadigan yeri joylashgan. Dehqonchilikda ldonchilik etakchi o'rin egallaydi. Asosan bug'doy, tariq, arpa ekiladi. SHuningdek poliz ekinlari, kungaboqar etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

G'arbiy Qozog'istonda tabiiy va iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, bir qancha qishloq xo'jaligi zonalari ajratiladi.

1. G'arbiy Qozog'iston va Aktyubinsk viloyatlarining shimoliy qismlari dexqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Bu yerda intensiv dexqonchilik rivojlangan bo'lib asosan bug'doy etishtiriladi. YOrdamchi tarmoq esa gusht-sut chorvachiligi va mayin junli quychilik xisoblanadi.

2. Aktyubinsk va G'arbiy Qozog'istonning markaziy qismlari chorvachilik va dexqonchilikka ixtisoslashgan. Bu yerda go'sht va jun etishtirish etakchi urinda turadi. Dexqonchilik esa yordamchi tarmoq xisoblanadi.

3. G'arbiy Qozog'iston va Aktyubinsk viloyatining janubiy qismlari. Atirau va Mang'ishloq viloyatlari barcha xududlari chorvachilik zonalari xisoblanadi. Mintaqa gusht va jun uchun quychilik qorakulchilik yilqichilik va tuyachilikka ixtisoslashgan.

Mintaqa transportida etakchi urinni temiryo'l transporti egallaydi. Avtomobil va suv yo'llari transporti ham katta ahamiyatga egadir. Respublikaning boshqa hududlariga nisbatan quvur transporti oldingi o'rinlarda turadi. SHuningdek dengiz transporti ham yaxshi rivojlangan.

G'arbiy Qozog'istondan ko'plab sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari qo'shni rayonlarga tashiladi. Asosiy olib chiqiladigan mahsulotlar neft va neft mahsulotlari gaz, nikel rudalari, xromit, turli xil mashinasozlik mahsulotlari, baliq, konsyerva, trikotaj, tikuvchilik mahsulotlari, mineral o'g'it va boshqalar.

SHIMOLIY QOZOG'ISTON

To'rtta viloyatni o'z ichiga oladi. Bular Qustanay, SHimoliy Qozog'iston, Aqmola va Pavlodar viloyatlaridir. Hududiga ko'ra uchinchi o'rinda, aholisi soniga ko'ra ham uchinchi o'rinni egallaydi. Respublika hududining 20,8 foizini, aholisining 26 foizini tashkil etadi. Aholi zichligi bo'yicha Janubiy Qozog'istondan keyin turadi.

Mintaqa hududi asosan tekislikdan iborat. SHimoliy qismi G'arbiy Sibir tekisligi bilan qo'shilgan bo'lsa, janubiy qismi Qozog'iston past tog'laridan iborat (balandligi 300-400 m).

SHimoliy Qozog'iston foydali qazilmalarga juda boy. Bu yerda yirik temir rudasi konlari, toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, boksit, rangli va nodir metabllar, qurilish matyeriallari va boshqa konlar topilgan. Mintaqada yirik boksit (Arqaliq), oltin (Stepnyak, Maykalen), asbest (Jetig'ara), osh tuzi va mirabilit (Pavlodar), tsement xom-ashyosi, oyna qumlari konlari joylashgan.

SHimoliy Qozog'istonda 4,4 mln. kishi istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 km kv. ga 8,5 kishini tashkil qiladi. Aholi milliy tarkibi juda xilma-xil. SHimoliy Qozog'iston va Qustanay viloyatlarida aholi zichligi yana ham yuqori bo'lib, 10-15 kishiga to'g'ri keladi.

Aholining milliy tarkibida qozoqlar va ruslar ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari ukrainlar, beloruslar, tatar, udmurt, boshqird, mordva, nemis va boshqalar ham yashashadi.

Qozoqlar barcha hududlarda joylashgan. Lekin asosiy qismi markaziy va janubiy qismlarda yashashadi.

Mintaqa aholisining 49 foizi shaharlarda yashaydi. SHimoliy Qozog'iston viloyatida qishloq aholisi 5 foizni tashkil etadi. SHimoliy Qozog'istonda 24 shahar va 45 shahar tipidagi posyolka bor. Pavlodar (61%) va Aqmola (59%) viloyatlarida shahar aholisi ko'pchilikni tashkil etadi. Yirik shaharlari viloyat markazlari hisoblanadi. Eng yirik shahar Pavlodar bo'lib, 350 ming dan ortiq aholi yashaydi. SHuningdek Astana (280 ming), Petropavlovsk (250ming), Qustanay (225), Kokchetav, Rudniy, Lisakovsk, Ekibasto'z, Yermak, Irtish kabi shaharlari ham bor. SHimoliy Qozog'istonda Maykuba ko'mir havzasi joylashgan bo'lib, uning zahirasi 10 mlrd tonna atrofida deb baholangan. Arzon ko'mir asosida Ekibastuz yoqilg'i enyergetika kompleksi rivojlangan. Elektroenyergeriya Ekibastuz-Ural-Markaz, Ekibastuz-Qorator, Ekibastuz-Barnaul elektr uzatish liniyalari orqali MDH davlatlariga yuboriladi.

SHimoliy Qozog'istonda temir rudalari qazib chiqarish, boksit, ko'mir, asbest, qurilish matyeriallari kabi sanoat tarmoqlari shakllangan. Oxirgi o'n yilliklarda sanoat tarmoqlari keskin o'sdi. Oziq-ovqat va engil sanoat hajmiga nisbatan og'ir sanoat tez rivojlandi.

Qora metallurgiya Qustanay temir havzasidan qazib olish va boyitish asosida rivojlangan. Magnitli rudalarni Sokolov-Sarboy hamda Kochar tog' boyitish kombinati byeradi.

Mashinasozlik sanoati qishloq xo'jaligi uchun mashina va dastgohlar etkazib byeradi. Bular Pavlodar traktor zavodi, Astanadagi ikkita qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi, Makinsk va Atbazardagi qishloq xo'jalik mashinalari detallari zavodi va boshqalardir.

Rayon iqtisodiyotida oziq-ovqat sanotai katta ahamiyatga egadir. Bu tarmoq jami sanoat mahsulotining to'rtidan bir qismini tashkil etadi. Etakchi tarmog'i go'sht sanoatidir. Petropavlovsk, Qustanay, Kokchetav, Astana, Pavlodar, Ekibastuz kabi shaharlarda yirik go'sht kombinatlari joylashgan.

SHimoliy Qozog'iston - respublikaning yirik don etishtirishga ixtisoslashgan mintaqasi hisoblanadi. Uning hisobiga respublikadagi 60 foiz ekin maydoni, 80 foiz non mahsulotlari ishlab chiqarish to'g'ri keladi. SHu bilan birga SHimoliy Qozog'iston yirik chorvachilik rayoni hamdir. Mintaqada respublikaning 50 foiz yirik shoxli qoramoli, 60 foiz cho'chqa, 30 foiz yilqi, 16 foiz qo'y va echkilar boqiladi.

CHorvachilik – shimoliy qismida sut va go'sht, janubiy qismida go'sht-jun etishtirishga ixtisoslashgan. Yirik shoxli qoramollar Qustanay, SHimoliy Qozog'iston viloyatlarida, qo'y va echkilar Pavlodar, Aqmola, Qustanay viloyatlarida, cho'chqa Qustanayda, SHimoliy Qozog'istonda va Aqmola viloyatlarida ko'pchilikni tashkil etadi. Deyarli barcha viloyatlarda yilqichilik va parrandachilik rivojlangan. Ayniqsa Qustanay yilqisi zotlari ko'plab boqiladi.

SHimoliy Qozog'iston Rossiyaning Ural va G'arbiy Sibir iqtisodiy rayonlari bilan chegaradosh bo'lib, uning hududidan Transsibir, O'rta Sibir, Janubiy Sibir, Transqozog'iston transport yo'llari kesib o'tgan. SHuningdek Irtish daryosi - Qozog'istonning asosiy suv yo'li hisoblanadi. SHu sababli tashqi iqtisodiy aloqalarda temir yo'l transporti va suv transportining ahamiyati kattadir.

Keyingi yillarda boshqa zamonaviy transport turlari (avtomobil va quvur)ning ahamiyati ortib bormoqda.

Rayondan asosan temir rudasi, ko'mir, elektroenyergeriya, alyuminiy, traktorlar, buldozyerlar, qishloq xo'jalik mashinalari, kimyoviy mahsulotlar, oziq-ovqat, to'qimachilik mahsulotlari, neft mahsulotlari chetga olib ketiladi.

Don mahsulotlari, qurilish matyeriallari, tuz, neft mahsulotlari tashishda Irtish daryosining ahamiyati kattadir. Daryo orqali G'arbiy Sibirdan SHarqiy Qozog'istonga va aksincha tranzit yuklari ham tashiladi.

MARKAZIY QOZOG'ISTON

Iqtisodiy rayonga ma'muriy jihatdan bitta Qarag'anda viloyati kiradi. Maydonining kattaligi va aholisi soniga ko'ra iqtisodiy rayonlar orasida to'rtinchi o'rinda turadi (maydoni 428

ming km kv., aholisi 1,8 mln kishi). Respublika hududining 15,7 foizini, aholisining 10,8 foizini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km kv ga 5,8 kishidan to'g'ri keladi.

Iqtisodiy rayon Nura va Sarisu daryolari havzasida joylashgan. Relefi tekislikdan iborat bo'lib, mutlaq balandligi 400-500 m dan oshmaydi. Mintaqa yer osti boyliklariga nihoyatda boy. Bu yerda MDHning eng yirik ko'mir, mis, volfram, molibden, rux, qalay, nodir metallar, temir rudasi, kimyoviy xom-ashyo va qurilish matyeriallari konlari topilgan.

Markaziy Qozog'iston hududida doimiy oqar daryolar kam. Asosiy daryolari Nura va Sarisu bo'lib, qorlarning erishidan to'yinadi. SHu sababli daryo bahor oylarida to'lib oqadi. YOzda Nura daryosidan tashqari barcha daryolari qurib qoladi. SHu sababli daryo suvlaridan unumli foydalanish maqsadida suv omborlari qurilmoqda.

Ko'llar soni 200 atrofida bo'lib, tog'li mintaqalarda chuchuk suvli, tekisliklarda sho'r suvli ko'llar joylashgan. Ba'zilar shifobaxshligi bilan ahamiyatlidir.

Mintaqaning janubi-sharqiy qismida Balxash ko'li joylashgan bo'lib, xo'jalik faoliyatida muhim o'rin egallaydi. SHu bilan yer osti suvlari ham ko'p, ulardan ayniqsa janubiy qismlarda foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Markaziy Qozog'istonda aholi zichligi nisbatan past. Faqatgina G'arbiy Qozog'istondan oldinda turadi. Aholi mintaqa hududida notekis joylashgan. Ko'pchiligi mintaqaning shimoliy qismida shahar va shahar tipidagi posyolkalarda istiqomat qiladi. Eng yuqori zichlik Qarag'anda va Temirtov rayoni hududida bo'lib, 1 km kv ga 120 kishi atrofida to'g'ri keladi. Aksincha Betpaqdala va Balxashbo'yida esa 1 km kv ga 2-3 kishini tashkil etadi. Iqtisodiy rayonning shimoliy qismida shahar va qishloqlar avtomobil va temir yo'llar bo'yida, daryo va ko'l sohillarida joylashgan bo'lib, ancha yirikligi bilan ajralib turadi. Janubiy qismida ovullar joylashgan va ular juda kichik, tarqoqdir.

Rayon aholisi milliy tarkibi xilma-xil bo'lib, 30 dan ortiq millatlar istiqomat qiladi. Qozoqlar va ruslar ko'pchilik bo'lib, jami aholining 60% ni tashkil qiladi.

Iqtisodiy rayon aholisining 82% shaharlarda yashaydi. Bu MDH davlatlaridagi eng urbanizatsiyalashgan mintaqalardan ekanligini bildiradi. Rayonda 10 ta shahar va 50 dan ortiq ishchi posyolkalari bor. Eng yirik shaharlari Qarag'anda, Temirtau, Jezqazg'an, Saran, SHaxtinsk, Balxash va boshqalar.

Markaziy Qozog'iston Donbass, Kuzbass kabi MDH davlatlarining sanoati rivojlangan markazlaridan biridir. Sanoatining etakchi tarmog'ik ko'mir sanoati, rangli va qora metallurgiya, mashinasozlik va kimyo sanoati. Rayon respublikada qazib olinadigan toshko'mirning hammasi, cho'yan, po'lat, prokat hamda ko'plab miqdorda rangli metallarni etkazib byeradi. Markaziy Qozog'iston korxonalarida tog'-kon sanoati uchun mashina va dastgohlarning asosiy qismi ishlab chiqariladi. Bundan tashqari mintaqada rezina – texnika mahsulotlari, qurilish matyeriallari, poyafzal, trikotaj va tikuvchilik matyeriallari ishlab chiqariladi. Sanoat korxonalaridan eng mashhurlari to'liq tsikli Qarag'anda metallurgiya kombinati, Temirtov «Qozog'iston magniti», Balxash tog'-metallurgiya kombinati, Jezqazg'an metallurgiya kombinati va boshqalardir.

Markaziy Qozog'istonning katta qismi yaylovlardan iboratdir. SHu sababli bu yerda qo'ychilik, yilqichilik, yirik shoxli qoramollar, tuyachilik yaxshi rivojlangan. qishloq xo'jaligida don etishtirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mintaqaning shimoliy va janubiy qismlarida daryo vodiylarida dehqonchilik bilan shug'ullaniladi. Asosiy ekinlar bug'doy, texnika ekinlaridan esa kungaboqar va zig'irdir.

Markaziy iqtisodiy rayon chorvachiligida qo'ychilik va qoramolchilik etakchi o'rinda turadi. SHaharlar atrofida va sug'oriladigan yerlarda sut-go'sht chorvachiligi yo'lga qo'yilgan. qo'ychilik barcha hududlarda, qoramolchilik esa mintaqaning janubiy qismlarida rivojlangan.

Mintaqa xo'jaligida temir yo'l transporti etakchi o'rinda turadi. Bu yerdan Transqozog'iston temir yo'li o'tgan. Avtomobil va havo transporti mintaqani MDH davlatlari bilan bog'laydi. Markaziy iqtisodiy rayondan ko'plab yuklar Uralga, Volgabo'yiga, SHarqiy va Janubiy Qozog'iston hamda O'rta Osiyo respublikalariga tashiladi. Asosiy tashiladigan yuklar

ko'mir, marganets, rangli va qora metallar, don mahsulotlari, xalq iste'mol buyumlari va boshqalardir.

SHARQIY QOZOG'ISTON.

Bu iqtisodiy rayon bitta – SHarqiy Qozog'iston viloyatidan iborat. Respublika hududining atigi 10% ni tashkil etadi. Aholisining soniga ko'ra ham respublikada so'nggi 5 o'rinda turadi(10%). Aholi zichligi 1 km kv ga 7 kishiga to'g'ri keladi.

Uning hududi Irtish daryosining yuqori havzasida Xitoy bilan chegaradosh joylashgan. Janubi sharqdan shimoliy g'arbga tomon Irtish daryosi oqib o'tadi. Suv yo'li orqali G'arbiy Sibir va Uralga chiqish imkoniyatiga ega. SHarqiy Qozog'iston Turksib temir yo'li orqali G'arbiy va SHarqiy Sibir, Janubiy Qozog'iston hamda O'rta Osiyo Respublikalari bilan bog'langan.

Tabiiy sharoit juda xilma-xil. Bu yerda baland Janubiy Oltoy tog'lari, Oltoyoldi dashtlari, Qozog'iston past tog'larining sharqiy qismi, Balxash, Olako'l botig'i, Irtish dashtlari joylashgan. Tabiiy sharoitining xilma-xilligi bo'yicha faqatgina Janubiy Qozog'istondan keyinda turadi. Tabiiy boyliklari bo'yicha esa Ural bilan tenglasha oladi.

SHarqiy Qozog'iston tog'lari tabiiy resurslarga boy. Oltoy tog'larida mingga yaqin rangli metallar konlari topilgan. Asosiy boyligi polimetall rudalari, ya'ni rux, qalay, mis, oltin, kumush, surma, simob, volfram, molibden va boshqa nodir metallardir.

SHarqiy Qozog'istonda yonuvchi foydali qazilmalar nisbatan kam. Ulardan Kendyerli toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir koni hamda Zaysan botig'idagi yonuvchi slanets konlari ahamiyatlidir.

SHu bilan birga bu yerda qurilish uchun zarur bo'lgan tabiiy tosh matyeriallar ko'plab tarqalgan. Bundan tashqari barcha hududlarda gips, ohaktosh, sement xom-ashyolari ham uchraydi.

SHarqiy Qozog'istonda ayniqsa uning tog'li hududida daryo va ko'llar ko'p. Asosiy daryosi Irtish bo'lib, uning boshlanishi respublikadan tashqarida, Mongoliya Oltoyidadir. Irtishning yirik irmoqlaridan Kurchum, Buxtarma, Ulba kabilar syersuv va GES lar qurish uchun qulaydir. Respublikaning 50% gidroenergiya zahirasi SHarqiy Qozog'istonga to'g'ri keladi. Uning bir qismidan hozirgi kunda foydalanilmoqda. Ko'plab GESlar qurilgan bo'lib, ularning eng yiriklari Ust-Kamenogorsk, Buxtarma GESlaridir. Daryolarning ko'pchiligi sug'orishga sarflanadi. SHarqiy Qozog'iston ko'llari juda go'zal. Ulardan Zaysan, Marqako'l, Sassiqlik va boshqalar kattaligi bilan ajralib turadi. Marqako'l ko'li Oltoyidagi eng yirik ko'l bo'lib, dengiz sathidan 1485 m balandda joylashgan. Bu yerda Marqako'l qo'riqxonasi joylashgan.

SHarqiy Qozog'iston respublikaning boshqa hududlariga nisbatan o'rmon resurslariga boy. Mamlakatning 40% dan ortiq o'rmonlari shu yerda joylashgan. Aholisining soniga ko'ra oxirgi o'rinda bo'lsada, zichligi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Rudali Oltoy va shimoliy-g'arbiy tog' oraliq'i botiqlarida aholi zichligi ancha yuqori. Yirik aholi punktlari ham shu yerda joylashgan. qishloqlar ham ancha katta. Zaysan botig'i Qozog'iston past tog'larida aholi zichligi nisbatan kam.

SHarqiy Qozog'iston aholisining deyarli 90% ni ruslar va qozoqlar tashkil etadi. SHuningdek ukrainlar, tatarlar, mordvalar, bolgarlar, nemislar va boshqa millatlar ham yashaydi.

Qozoqlar jami aholining 30% ni tashkil etadi va ular asosan Qozog'iston past tog'larida, Torbog'otoyda, Zaysan botig'ida joylashgan.

Mintaqa aholisining 57% shaharlarda istiqomat qiladi. Urbanizatsiya darajasiga ko'ra Markaziy va G'arbiy Qozog'istondan keyinda turadi. Bu ko'rsatkich respublika o'rtacha ko'rsatkichidan atigi 1% yuqori. Rayonda 9 ta shahar va 30 ga yaqin shahar tipidagi posyolka bor. Eng yirik shaharlari Semipalatinsk, Ust-Kamenogorsk bo'lib, ularda 300 mingdan ortiq aholi yashaydi. SHuningdek nisbatan yirikroqlari Leninogorsk, Ziryaynovsk, Ayago'z va boshqalardir.

Semipalatinsk – respublikadagi eng sanoat markazlaridan biri bo'lib, asosiy transport tuguni hamdir. Semipalatinsk go'sht kombinati MDH davlatlaridagi yirik korxonalardan biri hisoblanadi. (uchinchi o'rinda). SHaharda 3 ta oliy o'quv yurti, 10 dan ortiq texnikumlar mavjud.

Ust-Kamenogorsk – mamlakatning va MDH davlatlarining eng asosiy rangli metallurgiya markazidir. Bu yerdagi kombinatda qalay, rux, oltin, kumush, volfram, molibden, kadmiy kabi 20 dan ortiq minerallar olinadi. Rangli metallurgiya iqtisodiy rayonning ixtisoslashgan tarmog'i hisoblanadi. Mintaqada Leninogorsk, Zioryanovsk, Glubokoe, Ust – Talovka kabi rangli metallurgiya markazlari bor.

Kimyo sanoati rangli metallurgiya bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa oltingugurt kislotasi ishlab chiqarish rivojlangan. Kimyo va rangli metallurgiya sanoati elektrenyergiyani talab etadi. SHu sababli daryolarga ko'plab GESlar qurilgan.

Bundan tashqari KuzBASS ko'miri asosida ishlaydigan IES lar ham bunyod etilgan. Bular Semipalatinsk, Ust-Kamenogorsk, Leninogorsk, Zioryanovsk kabilardir. Barcha elektrostantsiyalar Oltoy enyergiya sistemasiga birlashtirilgan.

Enyergetika va rangi metallurgiya SHarqiy Qozog'istonning asosiy sanoat tarmoqlari hisoblanadi. Bular bilan bog'liq ravishda mashinasozlik va qurilish matyeriallari sanoati ham rivojlangan. Ust-Kamenogorskda «Vostokmash» korxonasida metallurgiya zavodlari uchun mashina va dastgohlar ishlab chiqariladi. Semipalatinskda kabel zavodi qurilgan.

SHarqiy Qozog'istonda sanoat bilan birga qishloq xo'jaligi ham katta ahamiyatga ega. qishloq xo'jaligida chorvachilik etakchi o'rinda turadi. Mintaqa hududining 80% yaylov uchun qulay. CHorvachilikda qo'ychilik yaxshi rivojlangan va barcha hududlarda boqiladi.

Qoramolchilik Oltoy, Torbog'otoy etaklarida sut-go'sht chorvachiligiga, qolgan hududlarda go'sht-sut etishtirishga ixtisoslashgan. Evropa millatiga mansub aholi cho'chqachilik bilan shug'ullanadi. SHarqiy Qozog'iston respublikadagi bug'uchilik rivojlangan asosiy mintaqadir. Bug'uning shoxlaridan meditsinada foydalaniladigan dori olinadi.

Oltoy va Torbog'otoy yonbag'irlarida asalarichilik rivojlangan. Bu yerda olinadigan asal MDH dagi eng toza asal hisoblanadi.

Dehqonchilik chorvachilikdan keyingi o'rinda turadi. Sug'orib dehqonchilik qilishga nisbatan lalmikor dehqonchilik ustun bo'lib, ekin ekiladigan yerlarning 70% ga donli ekinlar ekiladi. Ayniqsa bug'doy etishtirish yaxshi rivojlangan. Tog' yonbag'irlarida suli, tariq, grechka etishtiriladi.

Texnika ekinlaridan kungaboqar etishtirishga ixtisoslashgan.

JANUBIY QOZOG'ISTON

Janubiy Qozog'iston qizil O'rda, Janubiy Qozog'iston, Jambul va Olmaota viloyatlarini o'z ichiga oladi.

Respublika maydonining 26% ni aholisining 6,5% ni tashkil etadi. Mintaqa hududining kattaligi bo'yicha SHilmoliy Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. SHu bilan birga bu mintaqada aholi zichligi eng yuqori bo'lib 1 km kv ga 10,7 kishi to'g'ri keladi. Bu rayon mamlakatning iqtisodiyoti rivojlangan hududlaridan biridir. Uning qulay tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, agrosanoat komplekslaridan – paxtachilik, donchilik meva va uzum etishtirish, qand lavlagi, tamaki, sholi etishtirishga ixtisoslashishiga olib keldi.

Janubiy Qozog'istonda sanoat ham yaxshi rivojlangan. Unda tog'-kon sanoati, kimyo, mashinasozlik, qurilish matyeriallari, engil va oziq-ovqat sanoati yaxshi rivojlangan. Bu rayonda Olmaota sanoat o'zeli, CHimkent va qorator – Jambul huududiy ishlab chiqarish majmuilari rivojlangan.

Janubiy Qozog'iston hududida qadimdan bir qancha xalqlar yashab keladi. Mintaqa aholisining 45% ga yaqini qozoqlar, 40% ga yaqinini ruslar tashkil qiladi. Bundan tashqari ukrain, o'zbek, uyg'ur, dungan, tatar va boshqalar yashaydi. Janubiy Qozog'istonda qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil etadi. Bu yerda 25 ta shahar, 50 shahar tipidagi posyolka joylashgan. qadimgi shharlardan Taraz, SHimkent, Turkistonbilan bir qatorda yosh sanoat shaharlari Tekeli, Langar, Kentau, Qaratau, Janatas va boshqalar bor. Mintaqada Respublikaning yirik shahri Olmaota joylashshgan bo'lib, yaqin vaqtlargacha poytaxt vazifasini bajargan. Aholisi 1 mln 200

kishini tashkil etadi. Almata yirik sanoat va madaniyat markazidir. SHaharda 20 ga yaqin oliy o'quv yurtlari, 100 dan ortiq ilmiy-tekshirish institutlari joylashgan. SHimkent – aholi soni bo'yicha respublikada uchinchi o'rinda turadi. Mintaqadagi yirik sanoat markazlaridan biri. SHahar 12-asrda Buyuk Ipak yo'li bo'yida vujudga kelgan. SHaharda 70 dan ortiq sanoat korxonalari mavjud. Ulardan asosiy kimyo, farmatsevtika, qo'rg'oshin zavodi, temirchilik presslash, fosforit, neftni qayta ishlash, shina va boshqalardir. SHuningdek Qozog'istondagi yirik tsement zavodi ham shu shaharda joylashgan. Ko'plab yirik korxonalar qishloq xo'jalik mahsulotlari: paxta tozalash, yog'-ekstraksiya, qorako'l, konsyerva va boshqalarni qayta ishlashga ixtisoslashgan.

Taraz – Janubiy Qozog'istonning uchinchi yirik shahridir. Aholisi 310 ming kishidan ortiq. qadimgi shaharlardan biri bo'lib, 6-asrlarda tashkil topgan. SHaharda sariq fosfor ishlab chiqarish, supyerfosfat zavodi, charm-poyafzal, jun, shakar zavodi va boshqalar joylashgan. SHahar Qorotov-Jambul HICHM ning asosi. Bu yerda MDH dagi eng yirik fosforit havzasi joylashgan. Taraz - respublikaning yirik oziq-ovqat va engil sanoat markazidir.

TURKMANISTON RESPUBLIKASI.

UMUMIY TA'RIFI.

Reja:

1. Tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari.
2. Aholisi, jinsiy, milliy va yosh tarkibi.
3. Xo'jaligi: sanoati, qishloq xo'jaligi va transporti.
4. Ichki tafovutlar.

Turkmaniston O'rta Osiyo davlatlarining janubiy g'arbiy qismida, Kaspiy dengizi va Amudaryo orasida joylashgan. Uning maydoni 488,1 ming km kv bo'lib, O'rta Osiyodavlatlarining 12,2 foizini tashkil etadi. Hududining kattaligi bo'yicha O'rta Osiyoda ikkinchi o'rinda turadi. Aholisi mln kishi. Poytaxti Ashxobod shahri. Aholi zichligi 1 km. kv ga 11,1 kishi to'g'ri keladi. Respublika shimolda Qozog'iston, shimoli sharqdan O'zbekiston, janubda Afg'oniston va Eron bilan chegaradosh. G'arbiy qismida Kaspiy dengizi joylashgan. Respublika indutsrial-agrar mamlakat bo'lib, iqtisodiyotining asosini sanoat tashkil etadi. Xalqaro mehnat taqsimotida neft-gaz qazib chiqarish, hamda paxta etishtirish bilan ishtirok etadi. Turkmaniston chetga ko'proq neft va neft mahsulotlari, natriy-sulfat, elektroenyergiya, tsement xom-ashyosi, paxta yog'i, poliz ekinlari, qorako'l tyerisi eksport qiladi. Bundan tashqari Turkmanistondan neft sanoati uchun mashina va uskunalar ham chetga sotiladi.

TABIIY SHAROITI VA BOYLIKLARI.

Turkmanistonning tabiiy sharoiti va yer usti tuzilishi juda xilma-xildir Bu yerning relefida past tekisliklar, cho'kmalar, yirik cho'llar, tog' oralg'i botiqlari, balandligi 3 ming metrga etadigan tog'lar uchraydi. Hududining 80 foizini qoraqum cho'llari egallagan bo'lib, CHo'l shimoldan janubga 450 km, g'arbdan sharqqa esa 880 km ga cho'zilgan. Tog'li mintaqalar esa Respublikaning janubiy va janubiy sharqiy qismlarida joylashgan bo'lib, 8 foizga yaqin hududini egallaydi. (Turkman-Xuroson tog' sitsemasi).

Tog' oralg'i botiqlari, tog' oldi, daryo vodiylari, vohalar esa respublika hududining 12 foizini tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, respublikaning katta hududi tekisliklardan iborat bo'lib, sharqdan g'arbga (Kaspiy bo'yi) tomon pasayib boradi. Tekislikning katta qismi dengiz sathidan 0-200 metrgacha bo'lib, Kaspiy bo'yi pasttekisligi va Sariqamish ko'li dengiz sathidan pastda joylashgan. Eng past nuqtasi Oqjaksoy bo'lib, -81 metrdir.

Respublikaning iqlimi kontinental quruq iqlimdir. qishi iliq, yozi issiq va quruq bo'ladi. Iqlimning issiqligi subtropik ekinlar etishtirish imkonin byeradi. YOg'in miqdorining kamligi tog'larda kam qor tushishiga sabab bo'ladi. SHu sababli daryolari kichik va kam suvlidir. Turkmaniston hududining 80%da doimiy oqar suvlar yo'q. Daryolar asosan janubi sharqiy

rayonlardagina mavjud. Eng yirik daryosi Amudaryo bo'lib, u respublikaning sharqiy qismidan oqib o'tadi. Kichik daryolardan Murg'ob, Tajan daryolarining suvi to'lig'icha sug'orishga sarf bo'ladi. Atrek daryosi esa o'z suvini Kaspiy dengiziga quyadi. YAylov chorvachiligida yer osti suvlari katta ahamiyatga ega. Ko'llarining aksariyati sho'r ko'llardir.

Respublika iqtisodiyoti rivojlanishiga qoraqum kanali katta ta'sir ko'rsatgan.

Turkmaniston respublikasining mineral xom ashyolarga boyligi xo'jaligini kompleks rivojlantirishga imkon byeradi. Respublika hududidan tabiiy gaz, neft, ozokyerit, ohaktosh, gips, granit, mirabilit (glauber tuzi), g'isht va sement xom-ashyolari kabi turli foydali qazilmalar topilgan.

Respublika ayniqsa yoqilg'i enyergetika resurslarga boy. Mamlakat gaz qazib chiqarish bo'yicha MDH davlatlari orasida ikkinchi o'rinda turadi. (Rossiyadan keyin). Respublikada ettita neft-gaz mintaqasi ajratiladi.: G'arbiy Turkmaniston, Markaziy Qoraqum, Beurda- Xiva, CHorjo'y, Orqaungo'z, Murg'ob, Badxiz-Qorabel.

G'arbiy Turkmaniston neft-gaz mintaqasi G'arbiy Turkmaniston past tekisligida joylashgan. Yirik neft-gaz konlari CHEleken, Qoturtepa, Nebitdog', Qumdog', Qizilqum, Erdekli, Okarem, Keymir va boshqalar.

Markaziy Qoraqum gaz mintaqasida – Darvoza, Zeagli, Koyun, Midar kabi gaz konlari joylashgan. Bu mintaqada gaz qazib olish tannarxi qimmat bo'lganligi sababli to'liq foydalanilmaydi.

Beurda – Xiva gaz mintaqasida uchta rayon ajratiladi.: Noip, G'ishtli, Beurda. Eng yirik gaz konlari Achak, Naip, G'ishtli, SHimoliy va Janubiy Naip va boshqalar.

CHorjo'y gaz mintaqasidagi eng asosiy gaz konlari Gugurtli, Sakar, Somontepa, Farob, Narazim kabilardir.

Murg'ob gaz mintaqasida esa SHatliq, Dauletbod, Donmez, Bayramali, Kelif, SHaropli, Tedjen, Seyrob va boshqalar.

Badxiz-Qorabel gaz mintaqasida Qorabel, Islim, Qaragop kabi gaz konlari topilgan.

Bundan tashqari respublika hududida ko'mir konlari ham topilgan. Ulardan asosiylari Tuarqir qo'ng'ir ko'mir, YAgmon va Ko'hitang toshko'mir konlari bo'lib, mahsulotning tannarxi qimmat bo'lganligi sababli ko'mir qazib olinmaydi.

Respublikada temir rudalari kam, faqatgina Ko'hitang tog'larida rux va qo'rg'oshin konlari topilgan. SHuningdek G'arbiyKopetdog'da ham rangli metallar topilgan, lekin ularning sanoatda ahamiyati kam.

Turkmaniston respublikasi kimyoviy xom ashyolarga boy. Bu yerda oltingugurt, yod, brom, ozokyerit, osh tuzi, kaliy tuzi, sul'fat, natriy, magniy tuzlarining yirik zahiralari mavjud.

Hozirgi kunda mamlakatning yirik oltingugurt koni Gourdog hisoblanadi. Gourdag oltingugurti CHorjo'y supyerfosfat zavodining asosiy xom-ashyosi hisoblanadi.

CHeleken yarim oroli va Nebitdog'da yirik yodobrom suvlari topilgan. Ular asosida CHEleken va Nebitdog' yodobrom zavodlari ishga tushirilgan.

Respublikaning Qorabo'g'oz-go'l qo'ltig'i yirik mineral tuzlar markazi hisoblanadi. Bu yerdan ko'plab miqdorda mineral tuzlar qazib olinadi.

Turkmaniston qurilish xom ashyolariga boy. Yirik tsement xom-ashyolari Baharden, Katta Bolxon, Bezmeinda joylashgan (Bezmein tsement zavodi). SHuningdek mintaqada ko'plab kvartsl qumlar tarqalgan. Bular oyna sanoatining asosini tashkil etadi.

Respublika yer resurslariga boy. Lekin suv resurslarining etishmasligi ulardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Yer fondi 49 mln. ga atrofida bo'lib, shundan 6-7 mln. gasida sug'orib dehqonchilik qilish mumkin. Hozirgi kunda esa 1 mln. ga yer sug'oriladi xolos.

Mintaqa relefi asosan tekislik bo'lganligi sababli sanoat korxonalari qurilishi uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. CHo'llardan chorvachilikda yaylov sifatida foydalaniladi.

AHOLISI

Turkmaniston ko'pmillatli mamlakatlardan biri bo'lib bu yerda 80 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilishadi. Jami aholisi 4,5 mln kishi. Aholisining milliy tarkibida turkmanlar

ko'pchilikni tashkil etadi. Respublika aholisining 77% ini turkmanlar, 6,7%ini ruslar, 9,2% o'zbeklar, qozoqlar 2,0%, tatarlar 1,1%, ukrainlar 1%, undan tashqari armanlar, ozarbayjonlar, yahudiy va boshqalardan iborat. Respublika aholisi soni Markaziy Osiyo davlatlariga xos bo'lgan tabiiy o'sish hisobiga ortib bormoqda.(tug'ilish 28, o'lim 9. Tabiiy o'sish 19) Tabiiy o'sish turkmanlar va o'zbeklarda nisbatan yuqori. Boshqa millatlarda- evropa millatiga mansub kishilarda esa tabiiy o'sish deyarli sezilmaydi. Aholining yosh tarkibida 0-14 yoshdagilar 38% ni, 15-64 yoshdagilar 58% ni, 65 yoshdan yuqoridagilar atiga 45 ni tashkil etadi.

Jadval ma'lumotlari tahlil qilish shuni ko'rsatadiki 0-14 yoshdagilar orasida o'g'il bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. 15-64 yoshlilar o'rtasida esa ayollar erkaklarga nisbatan bir foiz ko'proqdir. SHuningdek bu nisbat respublika jami aholisi orasida ham kuzatiladi.

Turkmanlar respublikaning deyarli barcha hududlarida tarqalgan bo'lsa, rus va ukrainlar asosan yirik shaharlarda, o'zbeklar CHorjo'y Doshoguz viloyatlarida, kavkaz millatlari esa ko'proq g'arbiy Turkmanistonda—Kaspiy dengizi bo'yida istiqomat qilishadi. Respublika mustaqillikka erishgandan so'ng ko'plab evropa millatiga mansub kishilar ko'chib ketishdi. Respublika aholisining deyarli 45%i shaharlarda yashaydi. Aholi punktlari aholisining soni 5 mingdan ko'p bo'lsa va aholining 33%i sanoatda, xizmat ko'rsatishda band bo'lsa shahar deb ataladi.

Asosiy shaharlari Ashgabat, Turkmanboshi, Tedjen, Mari, CHorjo'y, Doshoguz, Bayram-Ali va boshqalar. SHahar aholisi soni mexanik o'sish hisobiga (migratsiya) ortib bormoqda. Eng urbanizatsiyalashgan mintaqa Turkmanboshi hisoblanadi. Bu yerda 80% aholi shaharda yashaydi.

SHahar aholisi eng kam mintaqa SHimoliy Turkmaniston bo'lib, bu yerda jami aholining 30%i shaharlik. Keyingi paytlarda sanoatning o'sishi bilan shahar aholisining soni ham ortib bormoqda.

Aholi hududlar bo'yicha juda notekis joylashgan. Ularning asosiy qismi vohalarda: Kopetdog' etaklarida, CHorjo'y-Turkmanboshi temir yo'li bo'yida hamda Murg'ob, Tajan vodiysida, Amudaryoning o'rta va quyi qismida yashashadi.

XO'JALIGI

Turkmaniston industrial-agrar respublika. Uning xalq xo'jaligida sanoat etakchi o'rinda turadi. Respublikada yangi sanoat tarmoqlari –neftni qayta ishlash, gaz, kimyo, mashinasozlik bilan bir qatorda eski sanoat tarmoqlari neft qazib olish, metallsozlik, paxta tozalash va boshqalar rivojlangan.

Ayniqsa respublikada yoqilg'i-enyergetika kompleksi, engil sanoat, mashinasozlik va agrosanoat komplekslari katta ahamiyatga ega.

YOqilg'i-enyergetika kompleksi. Respublikaning g'arbiy qismlaridan neft qazib olinadi.qazib olingan neft quvurlar orqali Turkmanboshiga (sobiq Krasnovodsk) keltiriladi. Keltirilgan neftning bir qismi dengiz yo'li orqali eksportga jo'natilsa, bir qismi mahalliy neftni qayta ishlash zavodlarida qayta ishlanadi.

Zavoddan chiqqan mazut va yo'ldosh gaz IESlarda yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Neft mahsulotlarining yana bir qismi ham eksportga ketadi.

Respublikaning sharqiy qismida CHorjo'y yaqinidagi Seydida 1980 yillarda qurilgan neftni qayta ishlash zavodi ishlab turibdi.(Sobiq Neftezavodsk).

Gaz deyarli barcha viloyatlar hududida bir necha o'nlab konlardan qazib olinadi(Doshoguzdan tashqari).

Gazning asosiy qismi O'rta Osiyo- Markaz magistral gaz quvurlari orqali eksport qilinadi. Bir qismi esa respublika ehtiyoji uchun ishlatiladi.(IESlarda) Mari shahrida gaz asosida ishlaydigan MARI GRESi qurilgan. Bundan tashqari shaharda tabiiy gaz asosida azotli o'g'itlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Respublikada neft va gaz konlari asosida neft gaz- kimyo enyergiya ishlab chiqarish tsikllari shakllangan.

Lekin neft va gazning ko'pchiligi eksportga jo'natilganligi sababli energiya ishlab chiqarish tsiklining boshlang'ich qismi yaxshi rivojlangan. Bu yerda yuqori texnologiyaga ega bo'lgan plastmassa ishlab chiqirish va polimyerlar kimyosi nisbatan kam rivojlangan.

Respublikada kiyoviy xom-ashyolar – mirabilit, yod, brom, oltingugurt qazib olish, hamda supyerfosfat zavodi asosida tog'-kimyo energiya ishlab-chiqarish tsikli tashkil topgan. Gourdak oltingugurti CHorjo'y kimyo kombinatiga keltiriladi va bu yerda supyerfosfat va oltingugurt kislotasi ishlab chiqariladi. Mintaqadagi Qora bo'g'oz go'l o'zining kimyoviy xom ashyolarga boyligi bilan ajralib turadi. SHuningdek respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda CHEleken va Nebitdog' kimyo korxonalari ahamiyati katta.

Turkmaniston respublikasida metallurgiya sanoati (qora va rangli) kam rivojlangan. Mashinasozlik sanoati korxonalarida neft sanoati uchun (Ashgobodagi neft mashinasozligi Mariy mashinasozlik zavodi) hamda oziq-ovqat uchun mashina va dastgohlar ishlab chiqarilgan.

Bundan tashqari elektrotexnika mashinasozligi (Ashgabad), maishiy xizmat ko'rsatish mashinasozligi (gaz plitalari ishlab chiqarish), kemasozlik zavodi (Turkmanobot(CHorjo'y)) metallni qayta ishlash, hamda qishloq xo'jalik texnikalariga xizmat ko'rsatish korxonalari ishlab turibdi.

Respublikada qurilish matyeriallari sanoati ham mahalliy qurilish xom-ashyolari asosida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa tsement xom-ashyolari, gips, ohaktosh kabi qurilish xom-ashyolari ko'plab topilgan.

Mamlakatdagi yirik tsement xom-ashyolari Kopettog' etaklarida, katta Balxan va Nebitdog'da topilgan.

Bezmein tsement xom-ashyosi asosida Markaziy Osiyodagi yirik tsement zavodi ishga tushirilgan.

Mamlakatning asosiy qurilish matyeriallari sanoati markazlari Ashgabad, Bezmein, Mari, Turkmanobot (CHorjo'y), Turkmanboshi, Nebitdog' va boshqalar.

Engil sanoat respublika iqtisodiyotida etakchi tarmoqlardan biridir. Engil sanoatning 2/3 qismini ip-gazlama mahsulotlari tashkil etadi. Respublikada etishtiriladigan paxtaning deyarli hammasi paxta tozalash zavodlarida qayta ishlanadi.

Respublikada engil sanoat tarmoqlari: - to'qimachilik, tikuvchilik, shoyi to'qish, jun, gilam, trikotaj, poyafzal va boshqalar yaxshi rivojlangan. SHuningdek, qorako'l tyerilari ishlab chiqarish ham katta ahamiyatga egadir.

Mamlakatda qo'lda gilam to'qish rivojlangan bo'lib, ularning yirik markazlari Ashgabad, Gasan-ko'li, Nebit-Dog', Bahorden, Syerdar (Qizil-Arvat), Mari, Doshoguz va boshqalardir.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ko'plab iste'mol mahsulotlari ishlab chiqariladi. Respublikada sabzavot, meva, go'sht-sut, baliq konsyervalari ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mamlakatda paxta yog'i ishlab chiqarish Turkmanobot (CHorjo'y), Doshoguz, Bayramali shaharlarida yaxshi rivojlangan. Ashgabad, Mari, Turkmanobot (CHorjo'y), Turkmanboshi kabi shaharlarda yirik go'sht kombinatlari ishlab turibdi.

Turkmaniston qishloq xo'jaligida sug'orib dehqonchilik qilish bilan bir qatorda cho'l-yaylov chorvachiligi rivojlangan.

Paxtachilik – dehqonchilik ekinlarining asosini tashkil etadi. Respublikada 1 mln. ga sug'oriladigan yer bo'lib, asosan Qoraqum kanali bo'ylariga to'g'ri keladi. Bu yerda respublikada etishtiriladigan paxtaning 50%, ingichka tolali paxtaning deyarli 100% i tayyorlanadi. Mari, CHorjoy, Doshoguz viloyatlarining ko'pchilik maydonlariga paxta ekiladi. So'nggi yillarda respublikada don, meva va uzum etishtirish ham ortib bormoqda.

Respublikada chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Unda etakchi tarmoq qo'ychilik bo'lib, asosan qorako'l qo'ylari boqiladi. Respublikaning cho'l mintaqalari qo'y boqiladigan yaylovlar hisoblanadi. SHuningdek, respublikada qoramolchilik, tuyachilik, yilqichilik (Axaltekin zotli) ham muhim chorvachilik tarmoqlaridir.

Qormolchilik respublikada sut-go'sht etishtirishga ixtisoslashgan.

CHO'l mintaqasining tipik chorvachiligi – tuyachilikdir. Tuyalar go'shti, tyerisi, transport maqsadida foydalanish uchun boqiladi. Ayniqsa, Turkmanboshi va Ashgabad viloyatlariga tuyaning ko'pchiligi (50%) to'g'ri keladi.

Yilqichilik – ham tuyachilik kabi go'shti, suti va transport vzifasida foydalanish uchun boqiladi. Respublikada Axaltekin, yovmud kabi zotdor otlar boqiladi. Bu otlar chet ellarda ham ancha mashhur. Axaltekin otlari ko'proq Mari va Ashgabad viloyatlarida boqiladi. Bu otlar juda chopqir bo'lib, qurg'oqchil mintaqalarga chidamlidir.

YOvmud zotdor otlari esa ko'proq yuk tashishda foydalaniladi. Ular asosan Turkmanboshi hamda Doshoguz viloyatlarida boqiladi.

Bundan tashqari, respublika chorvachiligida asalarichilik hamda pillachilik ham muhim ahamiyatga egadir.

TRANSPORTI.

Respublikada deyarli barcha transport turlari mavjud. Mamlakat maydonining 80% qismi cho'llar bo'lganligi uchun bu yerlarda transport xizmatini yo'lga qo'yish ancha qiyin.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini temir yo'l, avtomobil, suv va havo transportlari orqali olib borsa, ichki rayonlararo aloqalar avtomobil va havo yo'llari orqali olib boriladi.

Respublika transportlari orasida temir yo'l transporti etakchi o'rinda turadi. Uning hissasiga yuk tashishning 75%i, passajir tashishning esa 25% qismi to'g'ri keladi. Dastlabki temir yo'l Kaspiy orti temir yo'li bo'lib, 1880-86 yillarda qurilgan.

Bundan tashqari Mari-Kushka, Kogon-Kyerkichi-Tyermez, Toshkent-Turkmanboshi, CHorjoy-Doshoguz-Qo'ng'iro't-Beynov kabi yo'llar qurilgan. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqil bo'lganlaridan so'ng Tedjen-Syeraxs-Mashhad(Eron) temir yo'li ishga tushirildi.

Rayonlararo aloqalarni olib borishda avtomobil transporti etakchilik qiladi. Avtomobil yo'llarining uzunligi 13 ming km dan ortadi. Asosiy avtomagistrallar Turkmanboshi-Syerdar-Ashgabad-Mari-Turkmanobot, Mari-YOlaton-Syerxetobot, Turkmanobot-Darg'onota-Urganch-Doshoguz, NebitDog'-CHEleken-Ashgabad-Baharden-Erbent va boshqalardir.

Kaspiy dengizida suv transporti rivojlangan. Yirik portlari Turkmanboshi, Bekdash, Alacha. Turkmanboshidan – Bokugacha parom yo'li o'tkazilgan.

Suv yo'llari orqali paxta tolasi, qurilish matyeriallari, neft mahsulotlari va boshqalar tashiladi. Amudaryoda daryo kemachiligi rivojlangan. Daryo portlari Turkmanobot, Kyerki, Kelif.

Havo ttransporti - Respublikani xorijiy va MDH davlatlari bilan bog'laydi. Havo orqali asosan passajirlar, tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlari va qimmatbaho yuklar tashiladi.

Respublika iqtisodiyotining rivojlanishida quvur transportining ahamiyati katta. quvur transporti neft, gaz va ichimlik suv tashishda ancha qulay hisoblanadi.

Respublikada dastlabki neft quvuri 1946 yilda ishga tushgan bo'lib, u Qum-Dog'dan-Vishkachaga tortilgan (40 km). Keyinchalik Vishka-Turkmanboshi, Qoturtepa-Belek-Turkmanboshi, Qoturtepa-CHeleken va boshqalar ishga tushiriladi. Dastlabki gaz quvuri 1952 yilda Vishkadan – Nebit-Dog'ga tortilgan. Bundan tashqari Qumdog'-Nebit-Dog', Qoturtepa-Belek-Turkmanboshi-Beshdosh-YAngi O'zen gaz quvurlari ishga tushiriladi. Ayniqsa, Maysk-Ashgabad-Bezmein (396 km uzunligi) gaz quvuri respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Respublika gaz quvurlari uzunligi yildan-yilga ortib bormoqda.

TURKMANISTONNING ICHKI TAFOVUTLARI.

Turkmaniston respublikasida 5 ta iqtisodiy rayon ajratiladi. Bular Markaziy, G'arbiy, Janubiy-SHarqiy va SHimoliy rayonlardir. Barcha rayonlar aholisining joylashishi, sug'oriladigan yerlari va sanoat korxonalari yoki cho'llardan iboratligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Markaziy iqtisodiy rayon (Axal velayati) respublikaning janubiy qismida joylashgan. U respublika hududining 19,6%ini, aholisining esa 25%ini tashkil etadi.

Mintaqa hududida Kopetdog' tog'i va tog' oralig'i vodiylari hamda Markaziy Qoraqum cho'lining bir qismi joylashgan. Respublika aholisining asosiy qismi shu yerda bo'lib, aholi zichligi eng yuqori, ya'ni, 1km² ga 10 kishi to'g'ri keladi. Aholisining 3,5 qismi shaharlarda yashaydi.

Iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mintaqaga bo'lib, bu yerda zamonaviy mashinasozlik, engil va oziq-ovqat, qurilish matyeriallari va boshqa ko'plab korxonalar ishlab turibdi. Mintaqada respublika sanoat mahsulotining 25 %i tayyorlanadi. Ayniqsa, gilam to'qish katta ahamiyatga ega.

Markaziy rayon ingichka tolali paxta etishtirish bo'yicha Janubiy-SHarqiy rayondan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. SHuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzum etishtirish, chorvachilikda esa qo'ychilik (qorako'lchilik), hamda yirik shoxli qoramollar boqish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Mintaqaga respublikaning 23 % ekin maydoni to'g'ri keladi. Bu yerda Turkmanistonning 35 % bug'doyi, 11% paxtasi, 60% sabzavot ekinlari va boshqalar etishtiriladi.

Mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishiga Ashgabad temir yo'li katta ta'sir etadi. Temir yo'li bo'ylarida ko'plab aholi punktlari joylashgan.

Rayonning eng yirik sanoat va madaniyat markazi Ashgabad shahri bo'lib, shahar MDH davlatlarining eng janubida joylashgan. Hozirgi kunda Ashgabat Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlarini tutashtiruvchi muhim transport tuguni hisoblanadi. SHaharda engil va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik, elektrotexnika, metallsozlik va boshqa sanoat korxonalari ishlab turibdi.

Ashgabat yaqinida Bezmein shahri joylashgan. Bu shaharda og'ir sanoat tarmoqlaridan – tsement va boshqa qurilish matyeriallari, elektroenergetika kabilar rivojlangan. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlaridan vino ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Tajan – mintaqadagi yirik shaharlardan biridir. SHaharda gilam to'qish, g'isht zavodi, elektrostantsiyalar va boshqa sanoat korxonalari ishga tushirilgan. Ayniqsa, gilam to'qish qadimgi tarmoqlardan biridir. Aholisining asosiy qismi turkmanlar. Bulardan tashqari ruslar, qozoqlar, arman, ukrain va boshqalar istiqomat qilishadi.

Rayonning Kopetdog' etaklarida go'zal va xushmanzara dam olish maskanlari joylashgan (Fyero'za). Qoraqum kanali asosida paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik rivojlangan. CHo'l yaylovlarida esa qo'ychilik bilan shug'ullanishadi.

G'arbiy Turkmaniston (Bolxon velayati)- respublikaning katta hududini, ya'ni 28,5 %ini aholisining esa 11%ini tashkil etadi.

Rayon Kaspiy dengiz bo'yidan tortib sharqda Kopetdog' etaklari va G'arbiy Qoraqumgacha cho'zilgan. Bu Turkmanistonning eng issiq mintaqalaridan biridir.

Hududida oqar suvlar deyarli yo'q. SHuning uchun aholi soni kam. Lekin sanoat rivojlanganligi sababli aholining asosiy qismi (80%i) shaharlarda istiqomat qiladi. Bu mamlakatning eng urbanizatsiyalashgan mintaqasidir.

Aholining milliy tarkibida Evropa millatiga mansub kishilar (ruslar, ukrainlar, evreylar, armanlar, ozarbayjonlar va boshqalar) ko'pchilikni tashkil etadi.

G'arbiy Turkmaniston boshqa rayonlardan tabiiy resurslarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Respublikadagi asosiy neft konlari shu mintaqaga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, Turkmanboshidan shimolda yirik osh tuzi koni, Qorabo'g'ozgo'lda glaubyer tuzi, Xazar(ChEleken)da ozokyerit konlari topilgan. Rayonda tsement xom-ashyolari, ohaktosh kabi qurilish matyeriallari ham ko'p.

Mintaqada neft va kimyo sanoati, elektroenergetika qurilish matyeriallari sanoati yaxshi rivojlangan. Xo'jaligining rivojlanishida Kaspiy dengizidagi baliqchilik katta ahamiyatga ega. Turkmanboshi porti Markaziy Osiyo davlatlari va Kavkaz orti mamlakatlari orasidagi darvoza hisoblanadi.

Suvning yo'qligi sababli qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlanmagan. Ayniqsa, dehqonchilik. CHorvachilikda qo'ychilik hamda tuyachilik etakchi tarmoqlardandir.

Mintaqaning asosiy shaharlari Turkmanboshi, Bolxonobod(Nebitdog'), Xazar (CHEleken), Syerdar, qozonjiq va boshqalar. SHaharlarning ko'pchiligi temir yo'llar yonida yoki dengiz bo'yida lentasimon joylashgan.

Turkmanboshi (sobiq Krasnovodsk) G'arbiy mintaqaning eng qadimgi shaharlaridan biri bo'lib, 1896 yilda harbiy qal'a sifatida tashkil topgan. Turkmanboshi Kaspiy dengizining SHarqiy sohilidagi yirik port shahri bo'lib, neftni qayta ishlash va baliqni qayta ishlash sanoatlari yaxshi rivojlangan. Bu yerga neft neft quvurlari orqali Nebitdog' va boshqa konlardan keltiriladi.

Turkmanboshidan Janubiy SHarqda Katta Balxan etaklarida – Bolxonobod (Nebitdog') shahri joylashgan. Bolxonobod Turkmanistonning neft-gaz qazib olish markazi hisoblanadi. SHaharda oziq-ovqat sanoati, uysozlik kombinati, yod zavodi kabi korxonalar ishga tushirilgan. Ayollar gilam to'qish ishlari bilan band.

Iqtisodiy rayonning yana bir muhim shaharlaridan biri Xazar (CHEleken) dir. Xazar o'zining kimyoviy xom ashyolari bilan mashhur. Xazardan ko'plab miqdorda mirabilit, ozokerit kabi xom ashyolar olib ketiladi. Bu yerda kimyo zavodi mavjud.

SHu bilan birga CHEleken yarim orolida sog'lomlashtirish maskanlari uchun imkoniyatlari katta. Rayon aholisi mineral suvlardan revmatizm, tyeri va boshqa kasalliklarni davolashda foydalanadi.

Qorabo'g'ozgo'l ham o'zining kimyoviy xom ashyolari bilan ajralib turadi. Bu yerdan ko'plab miqdorda glaubyer tuzi, (mirobilit), natriy, magniy, brom, yod va boshqa mineral tuzlar qazib olinadi. Xom ashyolarni qayta ishlash maqsadida «qora-bo'g'oz-sulfat» kombinati ishlab turibdi.

Janubiy-SHarqiy Turkmaniston (Mari velayati)-Respublikaning 18%ga yaqin hududini, 23% aholisini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km.kv ga 9 kishi to'g'ri keladi. Urbanizatsiya darajasi nisbatan past bo'lib, 33%ni tashkil etadi.

Mintaqaning iqlim sharoiti qulay bo'lib, vegetatsiya davrida sutkalik harorat 10 gradusdan yuqori bo'lib, 240-250 kun quyoshli bo'ladi. Qoraqum kanalining o'tishi mintaqa iqlimining va xo'jaligining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi.

Janubiy-SHarqiy rayonga respublikaning 40% ekin maydoni to'g'ri keladi. Sug'oriladigan yerlarda ingichka tolali paxta etishtiriladi. SHuningdek bog'dorchilik, sabzovotchilik, pillachilik shahar atroflarida esa sut chorvachiligi rivojlangan (mintaqa sug'oriladigan yerlarida respublikaning 33% yirik shoxli qoramollari boqiladi.) CHo'llardan yaylov sifatida foydalaniladi. Bu yerda Respublikada boqiladigan qorako'l qo'ylarining 50%i to'plangan.

Janubiy-SHarqiy rayon respublikaning 35% paxtasini, 60% ga yaqin qorako'l tyerisini, 55% o'simlik yog'ini, 25% atrofida pillasini va boshqa mahsulotlarni etkazib byeradi. Rayonda zotdor Axaltekin otlari boqiladi.

Rayon xo'jaligi dastlabki vaqtlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga moslashgan edi. Hozirgi kunda yirik gaz konlarining topilishi (SHarapli, Qora-CHop, SHatlik) xo'jaligining rivojlanishiga imkon byeradi.

Asosiy sanoat markazlari Mari, Bayram-Ali. Mari - Mari viloyatining ma'muriy markazidir. Bu shahar Murg'ob-Tajan vohasining eng yirik sanoat va transport markazi. Ayniqsa, shaharda engil sanoat yaxshi rivojlangan. Bu yerda to'qimachilik, jun yuvish, paxta tozalash, tyeri zavodi hamda, oziq-ovqat sanoati korxonalari mavjud. SHuningdek, metallni qayta ishlash, motor remont zavodi, azot o'g'itlar zavodi kabi og'ir sanoat tarmoqlari ham rivojlangan. SHaharda mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydigan eng yirik GRES ishga tushirilgan.

Marining janubiy sharqida Bayram-Ali shahri joylashgan. Bu shahar Murg'ob deltasida, qulay tabiiy sharoitli bo'lib, o'zining sanatoriyalari bilan mashhur. Bu yerda MDH davlatlaridan kelgan dam oluvchi va davolanuvchilar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

SHaharda paxta tozalash va yog' ekstratsiya zavodi joylashgan.

SHuningdek, mintaqada YOloton, Tajan, Syerxetobot kabi boshqa sanoat markazlari ham bor.

SHarqiy iqtisodiy rayon (CHorjo'y velayati) respublika hududining 20%ga yaqinini, aholisining esa 21%ini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km.kv.ga 8 kishi to'g'ri keladi. Aholining 50%ga yaqini shaharlarda, mintaqaning bevosita 35%ga yaqin qismi aholisi Turkmanobot (CHorjo'y) va Kyerkida yashaydi. Rayon Amudaryoning har ikki sohilida joylashgan. CHorjo'y viloyatida ham sug'orib dehqonchilik qilish ustun turadi. Sug'orilalgan yerlarda paxtachilik rivojlangan. SHuningdek qorako'lchilik va pillachilik ham etakchi tarmoqlardir. Mintaqa respublikada etishtiriladigan paxtaning 25%ini, tayyorlanadigan shoyining esa 95%dan ko'pini tashkil etadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoati bilan birga, metallsozlik va tog'-kon sanoati rivojlangan. Rayonning janubidagi tog'larda turli foydali qazilmalar, mineral tuzlar, qurilish materiallari, mis, rux, oltingugurt va boshqalar topilgan. Mintaqada Respublikaning deyarli 60% gazi qazib olinadi. Ayniqsa bu yerda mineral o'g'itlar va oltingugurt ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Oltingugurt Gaurdak konidan qazib olinadi. Oltingugurt va boshqa mineral tuzlar asosida Gaurdak tog'-kimyo sanoati rivojlangan.

Ko'hitangdan uncha uzoq bo'lmagan masofadan rux, uning atrofida esa neft va gaz konlari topilgan. Bular asosida cho'lda kimyo sanoati markazi –Neftezavodsk(Seydi)shahri tashkil topgan. Mintaqa hududida MDHdagi yirik Korlyuk va Qorabel kabi kaliy tuzlari konlari topilgan.

Mintaqa boshqa rayonlarga nisbatan suv bilan yaxshi ta'minlangan. Bu kam suvli respublika uchun kamdan-kam uchraydigan hodisadir.

Amudaryo bo'ylarida qizilmiya o'simligi o'sadi. Bu o'simlikdan dori-darmon tayyorlashda, salqin ichimliklar, sigareta, kosmetika kabi ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bu o'simlikka jahon bozorida ham talab kattadir.

Turkmanobot sharqiy rayonning eng yirik shahri bo'lib, respublikada aholi soni bo'yicha Ashgabaddan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. SHahar daryo va temir yo'l bo'yida joylashgan bo'lib, muhim transport tugunini tashkil etadi. Qadimda CHorjo'y Buxoro amirligining muhim qal'alaridan bo'lgan.

Hozirgi kunda shahar yirik sanoati rivojlangan markazdir. Ayrim sanoat korxonalari qishloq xo'jalik mahsulotlarini (paxta) qayta ishlashga ixtisoslashgan. Bular paxta tozalash, trikotaj, to'qimachilik fabrikalaridir. SHuningdek pillachilik fabrikasi, qorako'l tyerilari ishlab chiqarish zavodi ham muhim ahamiyatga ega.

Turkmanobot shahri temir yo'l va daryo yo'li bo'yida joylashganligi sababli neftni qayta ishlash, kemasozlik, avtoremont, ekskavator remonti zavodi kabilar ishlab turibdi. Kimyo sanoatida yirik superfosfat zavodi alohida o'rinda turadi.

Turkmanobot shahri daryo bo'ylab cho'zilgan, o'simlikka boy go'zal manzarali shahardir. SHaharda bir qancha o'quv yurtlari, muzey va boshqa madaniyat maskanlari mavjud.

SHIMOLIY IQTISODIY RAYON

Doshoguz viloyatidan iborat. Rayon respublika hududining 13% ni, aholisining esa 20% ni tashkil etadi.

Aholi zichligi 1 km kv ga 9 kishini tashkil etadi. Rayon respublikaning shimoliy qismida Amudaryo deltasida, Sariqamish ko'li va SHimoliy Qoraqum cho'lining bir qismida joylashgan. Doshoguz respublikadagi qadimgi sug'oriladigan mintaqadir. Hozirgi kunda bu yerda paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik rivojlangan maydonlar ko'p. Bog'dorchilik ayniqsa, poliz ekinlaridan syershira qovunlari mashhur. Mintaqa yirik qishloq xo'jalik rayoni bo'lib, sug'orib dehqonchilik qilishga ixtisoslashgan. Mintaqa hududidan ko'plab sug'oruv kanallari o'tgan. (Tosh-Soqa, Qilich-Niyozboy, Qipchoq-Bozsu va boshqalar).

Iqlimi nisbatan quruq, qishi sovuq, yozi qisqa, lekin bu yerda o'rta pishar paxta etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan.

SHimoliy rayon respublikaning 1/5 foiz ekin ekiladigan maydoni, jumladan 1/4 foiz paxta maydonini tashkil etadi. Mintaqa sholi, oqjo'xori, kanop etishtirish bo'yicha esa ikkinchi o'rinda turadi. SHuningdek bu yerda makkajo'xori va uzum etishtiriladi.

Bu yerda respublikaning 20 foiz pillasi tayyorlanadi.. SHimoliy mintaqada so'nggi yillarda chorvachilik, ayniqsa qo'ychilik rivojlanib bormoqda. Qo'ylar asosan Sariqamish ko'li atroflarida boqiladi. Mintaqaning iqtisodiy va madaniy markazi Doshoguz shahri bo'lib, Amudaryoning quyi qismida, temir yo'l yoqasida joylashgan. SHahar 19-asrlarda Xiva xonligi qal'asi sifatida vujudga kelgan. Aholisi asosan o'zbeklardan iborat.

Sobiq sovetlar davrida Doshoguz yirik sanoat va transport markazi sifatida rivojlandi. CHorjo'y-Qo'ng'iro't-Beynov temir yo'lining qurilishi shaharning iqtisodiy aloqalarini kuchaytirdi. SHaharni SHovot magistral kanali ikki qismga eski va yangi shaharga bo'lib turadi. SHaharda bir qancha sanoat korxonalari – paxta tozalash, yog'moy, non, avtoremont, qishloq xo'jalik mashinalari remonti zavodi va boshqalar ishga tushirilgan. SHuningdek shaharda milliy hunarmandchilik – gilam to'qish va kulolchilik yaxshi rivojlangan.

TOJIKISTON RESPUBLIKASI

Reja:

1. Tojikistonning geografik o'rni va chegaralari.
2. Tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyati.
3. Aholisi va ularning joylashuvi.
4. Xo'jaligi. Uning ixtisoslashgan tarmoqlari.
5. Ichki tafovutlari.

Tojikiston Respublikasi O'rta Osiyo davlatlarining janubi sharqida joylashgan. Uning maydoni 143,1 ming km. kv. aholisi 6,8 million kishi. Poytaxti Dushanbe shahri. Aholi zichligi 1 km kv ga 47,9 kishidan to'g'ri keladi.

Respublika O'rta Osiyo davlatlarining 3,8 foiz hududini, 11 foiz aholisini tashkil etadi. Maydonining kattaligi bo'yicha oxirgi o'rinda turadi. Uning hududi shimoldan janubga 350 km ga g'arbdan sharqqa esa 700 km masofaga cho'zilgan. Respublika shimolda Qirg'iziston, g'arbda O'zbekiston, sharqda Xitoy va janubda Afg'oniston bilan chegaradosh.

TABIIY SHAROITI VA BOYLIKLARI.

Respublika hududining atigi 10 foiz qismining dengiz sathidan balandligi 1000 metrgacha, 50 foiz qismining esa balandligi 3000 metrdan oshadi. Respublika hududi asosan Pomir-Oloy va Tyan-SHan tog' sistemasida (Qurama tizmasi) joylashgan. Pomir tog'ligida O'rta Osiyoning eng baland nuqtasi hozirda Somoniy deb ataladigan cho'qqi mavjud(avvalgi Kommunizm), uning balandligi 7495 m. Bundan tashqari balandligi 7000 m dan oshadigan o'nlab cho'qqilar bor.

Pomir tog'idagi Fedchenko muzligi O'rta Osiyodagi eng yirik muzlik hisoblanadi. Baland tog'lar, tog' oraliq'i vodiylari, tekisliklar xilma-xil tabiat komplekslarini hosil qilgan.

Respublikaning janubidagi vodiylarda issiq subtropik iqlimi yuqoriga ko'tarilgan sari sovuq iqlim bilan almashinadi. Undan balandda esa doimiy qor va muzliklar joylashgan.

Tog'lardagi qor va muzliklardan ko'plab yirik daryolar boshlanadi. Tojikiston qo'shni respublikalarga nisbatan suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Hidroenergetika resurslari bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Yirik daryolari Amudaryo (uning irmoqlari Vaxsh, Panj), Zarafshon va boshqalar. Respublika tog'li o'lka bo'lganligi sababli daryolarida yirik GESlar ishlab turibdi. Ayniqsa bu yerdaga Norak GESi katta ahamiyatga egadir.

Xo'jaligi Hisor, Vaxsh, Farg'ona vodiylarida hamda Darvoz va Pyotr 1 tog' tizmalari etaklarida yaxshi rivojlangan.

Respublika huududida foydali qazilmalardan rangli metallar (surma, simob), shuningdek osh tuzi (Xo'ja Mo'min, Xo'ja Sartis koni), ohaktosh, polimetall rudalari (Oltintopgan, Adrasman, CHorux-Dayron va boshqalar), vismut, dala shpati kabilar topilgan.

Tojikistonning ayrim hududlarida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan neft (Nefteobod), ko'mir (SHo'rob) gaz va volfram konlari uchraydi.

AHOLISI.

Tojikistonda 6.863.800 kishi yashaydi (2003 yil). Respublika aholisining soni bo'yicha O'rta Osiyo davlatlari orasida uchinchi o'rinda turadi. Respublika aholisining tabiiy ko'payishi yuqori bo'lgan davr 1979-80 yillarga to'g'ri keladi. SHu yillarda respublika aholining tabiiy o'sishi bo'yicha sobiq Ittifoqda birinchi o'rinda bo'lgan. 20-asrning 90-yillarining boshida Tojikistonda ro'y byergan siyosiy beqarorliklar aholining tabiiy ko'payishiga birmuncha salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayni vaqtda respublikada aholi tabiiy ko'payishi 2,13% ni tashkil etadi. Tojikistonda barcha O'rta Osiyodavlatlaridagi singari ko'pfarzandlilik asosiy xususiyat kasb etadi.

Tojikistonda o'rtacha yosh 19,3 dir. Bu ko'rsatkich barcha O'rta Osiyo davlatlari orasida eng yosh bo'lib, aholi o'rtasida yoshlarning ko'pligini bildiradi. Aholining 42% ni 0-14 yoshgacha bo'lganlar tashkil etib, bu yoshdagilar orasida o'g'il bolalar ulushi 50,4% ga, qiz bolalar ulushi esa 49,6% ga to'g'ri keladi. 15-64 yoshgacha bo'lgan aholi esa 54% bo'lib, bularda ayollar 50,2%, erkaklar 49,8% ni tashkil etadi. 65 yoshdan yuqoridagilarga jami aholining 4% to'g'ri keladi. Bular orasida ayollar soni yuqori (56,9%). Respublika bo'yicha olganda erkaklar va ayollar deyarli teng(49,8 va 50,2).

Respublika ko'p millatli mamlakat bo'lib, aholiining milliy tarkibida tojiklar ko'pchilikni tashkil etadi. Jami aholining 64,9 % tojiklar, 25% o'zbeklar, 5% ruslar, 2% tatarlar va boshqalar tashkil etabdi. Mintaqada aholi juda notekis joylashgan. Respublika aholisining asosiy qismi past tekisliklardan va soylardan iborat bo'lgan Vaxsh, Hisor va Farg'ona vodiylarida joylashgan. Bunday hududlarda aholi zichligi 1 km kv ga 400-500 kishiga etadi. Bu yerlarda aholi qadimdan sug'orib dehqonchilik qilib kelishadi. Aholining notekis joylashishiga respublika huududining orografiyasi katta ta'sir ko'rsatgan. Respublika hududining 90 % i tog' oldi va tog'lardan iborat bo'lib, dengiz sathidan 1000 m dan balandda joylashgan. Tog' va babland tog' zonalarida xo'jalik yuritish qiyinchilik tug'diradi. Aholi manzilgohlari ham kam. Bu yerda aholi zichligi 1 km kv ga 1-2 kishi to'g'ri keladi.

Respublikadagi o'zbeklarning asosiy qismi Farg'ona vodiysida So'g'd (Leninobod) viloyatida joylashgan. Bu yerda jami aholining 40% o'zbeklardir. Tojiklar butun respublika hududida, ruslar yirik sanoat markazlarida, qirg'izlar esa asosan tog' yaylovlarida istiqomat qilishadi.

Respublikada urbanizatsiya darajasi O'rta Osiyo davlatlari ichida eng past, ya'ni jami aholining 36% ga yaqini shaharlarda yashaydi. Eng yirik shaharlari Dushanbe, Xo'jand, Regar (Tursunzoda), Qo'rg'ontepa va boshqalardir. Respublikaning asosiy shaharlari aholisi 50 ming kishigacha bo'lgan kichik shaharlardir. So'nggi yillarda shaharlarda yangi sanoat korxonalari bunyod qilinmoqda.

Aholining tabiiy o'sishi yuqori bo'lganligi sababli mehnat resurslariga boy. Mamlakat aholisining ko'pchiligini mehnatga layoqatli yoshlar tashkil etadi. Biroq respublikada ishsizlik muammosi mavjud.

XO'JALIGI.

Tojikiston agrar industrial mamlakatlardan biridir. Uning iqtisodiyoti yaqin vaqtlargacha bir tomonlama rivojlanishda bo'lgan. O'rta Osiyoning boshqa davlatlari kabi Tojikiston ham sobiq Ittifoqning asosiy xom-ashyo bazalaridan biri bo'lgan.

Respublika mustaqillikka erishgach uning iqtisodiyotida ham yangi o'zgarishlar ro'y byerdi. Mamlakat o'zi etishtirgan xom-ashyoni chetoga chiqarmasdan o'z hududida qayta ishlaydigan yangi korxonalar qurilishiga katta e'tibor byera boshladi.

Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'aligi etakchi o'rinda turadi. Milliy daromadning asosiy qismi hamda xalq xo'jaligida band bo'lgan aholining 45% qishloq xo'jaligiga to'g'ri

keladi. qishloq xo'jaligida sug'orib dehqonchilik qilish, tog'-yaylov chorvachiligi, meva va uzum etishtirish yaxshi rivojlangan.

Sanoatda etakchi tarmoq qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi – paxta tozalash, ipakchilik, yog'-moy, konsyerva va boshqa korxonalar hisoblanadi.

Ayniqsa bu tarmoq respublikaning shimoliy qismida Farg'ona vodiysida, hamda Dushanbe shahri atroflarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. SHuningdek qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mashinasozlik tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Respublikada topilgan foydali qazilmalar asosida tog' - kon sanoati, arzon gidroenergetika resurslari asosida esa rangdor metallurgiya va kimyo sanoatlari rivojlanib bormoqda.

Respublikada elektr energiya ishlab chiqarish katta ahamiyatga egadir. Vaxsh daryosida qurilgan GESlar kaskadi asosida Janubiy Tojikiston hududiy ishlab chiqarish majmuasi (HICHM) tashkil topgan. Vaxsh daryosidagi Norak GES i o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning arzon energiyasi asosida Tursunzoda alyumin zavodi ishga tushirildi. Bundan tashqari respublikada yirik issiqlik elektrostantsiyalari ham bunyod etilgan. Bular Dushanbe, YOvon va boshqa shaharlarda joylashgan. Mazkur IES va Vaxsh daryosidagi GES lar markaziy va janubiy Tojikistonni elektr energiyasi bilan ta'minlaydi.

Respublikada ko'plab rangli metall konlari topilgan. SHu sababli bu yerda tog'-kon metallurgiya kombinati bunyod etilgan. Keyingi yillarda yangi sanoat tarmog'i – alyuminiy zavodi nafaqat respublikada balki MDH davlatlari orasidagi eng yirik korxonalardan biridir.

Mamlakatda kimyo sanoati 1960 yillardan boshlab rivojlandi. Respublikadagi Vaxsh kimyo zavodida ishlab chiqarilgan azotli o'g'itlar respublikadan tashqari qo'shni davlatlarda ham ishlatiladi.

Arzon elektr energiya va yirik xom-ashyo (osh tuzi) koni asosida YOvonda elektrkimyo zavodi ishga tushirilgan. Zavodda kaltsiyli soda, suyuq xlor, xlorli ohak hamda maishiy kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Mamlakat iqtisodiyotida mashinasozlikning ham o'z o'rnini bor. Mashinasozlik korxonalari yirik shaharlar Dushanbe, Xo'jand, Qo'rg'ontepa va boshqalarda joylashgan. Mashinasozlik korxonalarida turli xil mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu korxonalarda qishloq xo'jaligi mashinalariga ehtiyot qismlaridan tortib, transformatorlar, to'quv stanoklari, elektr sanoati uchun detallar va boshqalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Xo'jand shahrida Rossiya bilan hamkorlikda PAZ avtobuslari yig'iladi. Bundan tashqari elektrotexnika, priborsozlik va boshqa ishlab chiqarish korxonalari qurilgan.

Tojikiston yoqilg'i sanoatining asosini ko'mir tashkil etadi. Respublikaning shimolida SHo'rob ko'mir koni joylashgan. Bu yerdan qazib olingan ko'mir mahalliy ehtiyojni qondirish uchun sarf bo'ladi, qisman qo'shni davlatlarga chiqariladi. Bundan tashqari Markaziy Tojikistondagi borish qiyin bo'lgan joyda Fan-YAg'nob koni joylashgan. Konda asosan kokslanuvchi toshko'mir olinadi.

Qurilish matyeriallari sanoatining asosini yirik tsement zavodlari, temir-beton konstruksiyalari, oyna ishlab chiqarish zavodlari tashkil etadi. Bular deyarli barcha hududlarda joylashgan. Qurilishning ortishi bu sanoatning yanada rivojlanishini taqozo etadi. Engil tva oziq-ovqat sanoati Tojikistonning ixtisoslashgan sanoat tarmoqlaridir. Bu tarmoq jami sanoat mahsulotining 2/3 qismini etkazib beradi, hamda sanoatda band aholining 50% ni tashkil etadi.

Engil sanoat tarmoqlaridan eng yiriklari paxta tozalash, to'qimachilik, tikuvchilik, oyoq kiyimi fabrikalari va boshqalardir.

Paxta tozalash zavodlari respublikada etishtiriladigan jami paxtani qayta ishlaydi. Dushanbe shahrida yirik ip-gazlama kombinati ishga tushirilgan. Dushanbe, Xo'jand shahrlarida shoyi kombinatlari, Qayroqqumdagi gilam to'qish kombinatlarida shoyi va gilam to'qish yo'lga qo'yilgan. Respublikada engil sanoat tarmog'i kelajakda yanada rivojlantiriladi.

Oziq-ovqat sanoatida vino va vino mahsulotlari, meva konsyervalari, mayiz, paxta va o'simlik (zig'ir, kunjut) moyi, un va un mahsulotlari, sut-go'sht mahsulotlari etishtirish rivojlangan.

QISHLOQ XO'JALIGI.

Respublika qishloq xo'jaligida paxtachilik etakchi tarmoqlardan biridir. Bundan tashqari pillachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, tog'li mintaqalarda esa donchilik, bog'dorchilik va chorvachilik rivojlangan.

Tojikiston tog'li o'lka bo'lganligi sababli haydaladigan yerlar ko'p emas. Qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar respublika hududining atigi 44% ini tashkil etadi. Haydaladigan yerlar 19% dan oshmaydi. SHunga qaramasdan respublika ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'z ehtiyojidan tashqari qo'shni mamlakatlarga ham eksport qiladi. CHetga asosan paxta tolasi, tamaki, sabzavot, poliz ekinlari meva, uzum va boshqalarni chiqaradi.

Respublikada 1 mln tonnaga yaqin paxta etishtiriladi. Farg'ona vodiysida oddiy, Vaxsh, Hisor vodiylarida esa ingichka tolali paxta ekiladi. Tojikiston Markaziy Osiyoda etishtiriladigan qimmatboho ingichka tolali paxtaning 50%i ni etkazib byeradi. Paxtaning bu navidan yuqori sifatli gazlamadan olinadi.

Sug'orish inshootlarining yaxshilanishi yangi yerlarning o'zlashtirilishi kelajakda paxtachilik va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini yanada rivojlantirish imkonini byeradi.

Tojikistonning agroiklim sharoiti bog'dorchilik va uzumchilik uchun ham qulay. Respublikada shaftoli, o'rik, olma, nok, olcha, gilos, behi, uzum, anjir, anor, bodom, xurmo kabi mevalar etishtiriladi. Bundan tashqari issiqsevar sabzavot va poliz ekinlari ham etishtiriladi. Ayrim sabzavotlardan yiliga 2-3 martagacha hosil olinadi.

CHorvachilik dehqonchilikdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Unda qishloq xo'jalik mahsulotlarining 30% i tayyorlanadi. CHorvachilik sut-go'sht chorvachiligi, qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik tarmoqlariga bo'linadi. Qoramolchilikda sutdan tashqari 50% ga yaqin go'sht etkazib byeriladi. Qoramolchilik paxtachilik majmuasi bilan chambarchas bog'liq ravishda rivojlanmoqda.

Qo'ychilik qoramolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Ular asosan respublikadagi tabiiy yaylovlarda boqiladi. Mamlakatda hitori zotdor qo'ylari boqiladi. Bu qo'ylar yirikligi, tez semirishi bilan dunyoga mashhur. Uning og'irligi 120-130 kg dan ortadi. Respublikada qorako'l qo'ylarini boqish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Qorako'l qo'ylari soni bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida Tojikiston oldingi o'rinlarda turadi.

Pomir tog'li xalqning asosiy chorvachiligi bo'lgan qo'toslar boqiladi. Bu hayvonlar sovuq iqlimga moslashgan bo'lib, ulardan sut olish bilan birga yuk tashishda foydalaniladi. Ulardan o'rtacha 300-350 litr yog'li sut sog'ib olinadi.

Respublikaning barcha hududlarida (Tog'li Badaxshondan tashqari) qadimgi qishloq xo'jalik tarmog'i-pillachilik rivojlangan. Pilla etishtirish bo'yicha Tojikiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida alohida o'rinda turadi.

TRANSPORTI.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda transportning ahamiyati beqiyosdir. Mintaqada barcha transport turlari – temir yo'li, avtomobil transporti, quvur, suv va havo transportlari mavjud. Respublika hayotida temir yo'l va avtomobil transportlari etakchi ahamiyatga ega.

Temir yo'l transporti respublikaning ichki hududlararo hamda uning tashqi aloqasida muhim o'rinni egallaydi. Mintaqa hududida tor izli va keng izli temir yo'llar o'tgan.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqasida Dushanbe-Tyermiz temir yo'lining ahamiyati katta. Bu yo'l orqali Tojikiston Markaziy Osiyo va boshqa MDH davlatlari bilan bog'langan. 1970 yillarda mamlakatning janubiy sharqiy qismida Tyermiz-Qo'rg'ontepa-YOVon, hamda Vaxsh bilan Ko'lob vodiylarini tutashtiruvchi yangi temir yo'llar qurilgan. Rayonlararo yuk tashishda tog'li respublika bo'lganligi sababli avtomobil transportining ahamiyati kattadir. Avtomobil

yo'llarining umumiy uzunligi 13 ming km dan ortadi. Ularning 80% idan ortig'i qattiq qoplamli yo'llardir.

Yirik avtomobil yo'llari Dushanbe shahridan boshlanadi. Dushanbe-Tyermiz, Dushanbe-Qo'rg'ontepa avtomagistralari mamlakat poytaxtini O'zbekistonning port shahri Tyermiz hamda Qo'rg'ontepa viloyatining markazi Qo'rg'ontepa bilan bog'laydi. Dushanbe-Xo'jand, Dushanbe-Xorug' kabi avtomobil yo'llari vaqtincha ishlaydi. Qishki mavsumda dovonda qor ko'p bo'lgan davrlarda transport qatnovi to'xtatiladi.

Tog'li Badaxshon oblastidan qo'shni Qirg'izistonning O'sh shahriga ochilgan avtomobil yo'li Farg'ona vodiysi bilan bog'laydi.

Yo'lovchilar temir yo'l, avtomobil va havo transportlarida tashiladi. Ayniqsa, ularni uzoq masofaga tashishda havo transportining ulushi kattadir. Havo transporti orqali mamlakat poytaxti barcha yirik shaharlari bilan bog'langan.

SHuningdek Dushanbedan MDH davlatlarining Moskva, Sankt-Petyerburg, Toshkent, Novosibirsk shaharlari, Kavkaz orti mamlakatlari hamda boshqa xorijiy mamlakatlarga havo transporti qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatda ichki suv transporti ham mavjud. Panj va Amudaryo orqali Markaziy Osiyoning ayrim davlatlari va Afg'oniston bilan iqtisodiy aloqa yo'lga qo'yilgan.

Respublika qo'shni davlatlar va xorijiy mamlakatlarga paxta tolasi, o'simlik yog'i, quruq meva, sabzavot va meva konsyervalari vino kabi mahsulotlar sotadi. Bundan tashqari mashinasozlik va elektrtexnika mahsulotlari: to'quv stanoklar, transformatorlar, ro'zg'or xolodilniklari, avtomobil va traktorlarga yordamchi qismlar, engil sanoat mahsulotlaridan ip va shoyi gazlamalar, gilam va boshqa ko'plab mahsulotlar etkazib byeradi.

IQTISODIY ZONALARI.

Uncha katta bo'lmagan respublika hududi 8 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi, bular o'z navbatida uchta iqtisodiy zonaga birlashtiriladi. Janubi-G'arbiy Tojikiston, SHimoliy Tojikiston, hamda janubi-sharqiy Tojikiston.

Janubi-g'arbiy Tojikiston (Respublikaga bo'ysinuvchi rayonlar va Xatlon viloyati) - respublika hududining 37% ini, aholisining esa 66% ini tashkil etadi. Mintaqada aholi zichligi 1 km² ga 40 kishi to'g'ri keladi. Hisor vodiysi respublikadagi qulay tabiiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarga egadir.

Vodiyda respublikaning qismidan ortiq sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlanadi.

Mintaqa tabiiy resurslarga ancha boy bo'lib, qurilish xom-ashyolari, volfram, ko'mir, neft, gaz va boshqalar topilgan.

Asosiy transport turlari avtomobil va temir yo'l transportlari hisoblanadi.

Sanoatida-mashinasozlik va metallni qayta ishlash, rangli metallurgiya, ip gazlama, trikotaj va boshqalar yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi paxta etishtirish (respublikaning 50% paxtasi) chorvachilik, bog'dorchilik va sabzavotchilikka ixtisoslashagn.

Rayonda respublikaning nisbatan yirik shaharlaridan Dushanbe, Tursunzoda, Norak va boshqalar joylashgan.

Respublikaning poytaxti Dushanbe - yirik sanoat va madaniyat markazi hisoblanadi. Yirik korxonalardan «Tojiktekstil mash», «Tojik qishloq xo'jalik mash», «Tojikgidroagregat» va boshqa ko'plab og'ir sanoat korxonalari bor. Qurilish matyeriallari ishlab chiqarishda tsement zavodi, uysozlik va yog'ochni qayta ishlash kombinatlari, temir-beton konstrukttsiyalari zavodlari ham muhim ahamiyatga egadir. SHuningdek, oziq-ovqat va engil sanoat tarmoqlari ham yaxshi rivojlangan.

Yirik sanoat markazlaridan biri Tursunzoda shahridir. SHahar alyuminiy zavodining qurilishi bilan yana ham rivojlandi. SHuningdek, shaharda chinni zavodi, paxta tozalash, efir moyi ishlab chiqarish, qurilish matyeriallari ishlab chiqarish kabi korxonalar ishga tushirilgan. Mintaqada Norak GES i qurilishi bilan Norak shahri ham bunyod etilgan. Hozirgi kunda Norak yirik gidroenergetika, oziq-ovqat va engil sanoat markazi hisoblanadi.

Vaxsh vodiysi (Xatlon viloyati) respublikaning eng issiq iqlimli hamda tekisliklardan iborat hududi hisoblanadi. Yanvar oyida ham o'rtacha havo temperaturasi 0° S dan yuqori bo'ladi. SHu sababli Vaxsh vodiysi respublikaning asosiy ingichka tolali paxta etishtiradigan va subtropik ekinlar markazi hamdir.

Vodiy gidroenergetika resurslariga ham boy. Bu yerda neft va gaz konlari ham topilgan. SHuningdek kimyoviy xom-ashyolardan osh tuzi (Tutbuloq), dolomit (YOvon), qurilish materiallaridan gips, tsement xom-ashyosi, ohaktosh va boshqalar topilgan.

Vodiy qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ko'ra Tojikistonda Hisor va SHimoliy mintaqalardan keyinda turadi. Bu yerda Respublikaning 20% dan yuqori sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Engil sanoat nisbatan yaxshi rivojlangan: bunda paxta tozalash sanoati asosiy o'rinda turadi. Vodiya ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmida engil sanoatning ulushi 70% ga yaqin, oziq-ovqat sanoati 20% ni, og'ir sanoat esa 15% ni tashkil etadi. Vodiy sanoatning ixtisoslashgan tarmoqlariga elektroenergetika, kimyo, paxta tozalash, yog'-moy tarmoqlari kiradi.

Vaxsh vodiysi qishloq xo'jaligi yuqori darajada rivojlangan. Mamlakatda etishtirilayotgan ingichka tolali paxtaning 1/3 qismi shu yerga to'g'ri keladi. Paxtachilik bilan birga bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va poliz ekinlari etishtirish ham rivojlangan. SHuningdek tsitrus mevalari ham etishtiriladi.

Vodiya respublikaning yirik sanoat va madaniyat markazlaridan biri - Qo'rg'ontepa shahri joylashgan. Bu yerda elektrotexnika, engil, oziq-ovqat sanoatlarining yirik korxonalarini mavjud, SHaharda ingichka tolali paxtaning yangi navlarini yaratadigan selektsiya markazi bor. SHahar va vodiy iqtisodiyotining rivojlanishiga Tyermiz-Qo'rg'ontepa-YOVon temir yo'li katta ta'sir ko'rsatadi. Mintaqadagi Vaxsh azot-tuk zavodi respublika qishloq xo'jaligi uchun mineral etkazib beradi.

Vaxsh vodiysining yuqori qismida Ko'lob zonasi joylashgan. Zona qulay tabiiy va iqlimiy sharoitga ega. Uning hududida respublikadagi yirik osh tuzi konlari (Xo'jamomin, Xo'jasartis) topilgan. Bu yerda qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan. Agroiqtisodiyotda paxtachilik va chorvachilik etakchi o'rinda turadi. SHuningdek don etishtirish va pillachilik ham yaxshi rivojlanmoqda.

Asosiy sanoat markazi Ko'lob shahri. SHahar atrofida yirik qishloq xo'jaligi rayonlari joylashganligi sababli, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Garm vodiysida baland tog'liklar ko'p. Uning xo'jaligida qishloq xo'jaligi etakchi o'rinda turadi. CHorvachilik, bog'dorchilik, kartoshka etishtirish, tamakichilik kabi sohalar yaxshi rivojlangan. qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning asosiy qismi yaylovlar bilan qoplangan. Sug'orib dehqonchilik qilish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sanoati mahalliy ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladi.

SHIMOLIY TOJIKISTON. (So'g'd viloyati)

Respublika hududining 19% ni, aholisining 31% ni tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km kv ga 60 kishi atrofida to'g'ri keladi.

Mintaqa tabiiy sharoiti ancha qulay. Uning katta qismi Farg'ona va Mirzacho'lda joylashgan. SHimol va janubga tomoni tog'lar bilan o'ralgan. SHimoliy Tojikiston foydali qazilmalarga boy. Bu yerda ohaktosh, gips, shag'al, kyeramzit xom-ashyolari va qurilish xom-ashyolarining zahiralari joylashgan. SHuningdek mintaqada rangli metallar - polimetall rudalari, volfram, molibden, vismut, rux, yonuvchi foydali qazilmalardan neft, gaz, va ko'mir konlari topilgan.

SHimoliy mintaqada transport yaxshi rivojlangan bo'lib, respublika ko'rsatkichidan 2 baravar yuqoridir. Bu yerda Tojikistonning 1/3 qism sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Sanoatning asosini qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi engil va oziq-ovqat sanoati tashkil etadi. Mintaqada gilam to'qish va ip-gazlama to'qish yaxshi rivojlangan. SHu

bilan birga tikuvchilik, trikotaj, un va un mahsulotlari, konsyerva ishlab chiqarish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu rayonda rangli metallurgiya, yoqilg'i elektroenergetika kabi sanoat tarmoqlari ham shakllangan.

Qishloq xo'jaligi paxtachilik, chorvachilikka ixtisoslashgan. SHu bilan birga bog'dorchilik, uzumchilik va pillachilik ham muhim tarmoqlardan hisoblanadi. Asosiy sanoat markazlari Xo'jand, Konibodom, Isfara, Qayroqqum va boshqalar.

Xo'jand – yirik sanoat va madaniyat markazi bo'lib, aholisi bo'yicha respublikada Dushanbedan keyingi o'rinda turadi. SHahar Farg'ona vodiysi kiravyerishida joylashgan. Mo'g'ultog' va Turkiston tog'lari orasida tor yo'lak hosil bo'lgan va bu yer Xo'jand darvozasi deb ataladi. Xo'jand O'rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan (eramizdan oldingi 3 –asr).

Hozir shaharda 20 dan ortiq turli sanoat korxonalari ishlab turibdi. Eng yirik korxonalardan shoyi to'qish kombinati(to'la tsikli), paxta tozalash, konsyerva zavodlari, mashinasozlik va boshqalardir.

SHuningdek Xo'jand orqali yirik avtomobil va temir yo'llar o'tgan. Toshkent-Andijon, Bishkek-Jalolobod temir yo'llari, Toshkent-Qo'qon, Xo'jand-Dushanbe avtomobil yo'llari shular jumlasidandir. Xo'jand-Dushanbe avtomobil yo'li bo'yida O'ratepa shahri joylashgan. SHahar 10-asrda Zarafshon va Farg'ona vodiysi o'rtasidagi qal'a sifatida tashkil topgan. O'ratepa o'zining milliy hunarmandchiligi bilan mashhur(pichoqchilik, so'zana, zargarlik buyumlari, yog'ochga ishlov byerish)

Xo'janddan sharqda Konibodom shahri joylashgan. SHahar o'zining bodomlari bilan qadimdan mashhur bo'lgan(9-10asr). Uning atrofida qishloq xo'jaligi rayonlari sababli, sanoati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan.

SHaharda paxta tozalash, konsyerva, yog'-moy kombinati, to'qimachilik fabrikasi kabi korxonalar joylashgan. Mashinasozlik sanoati paxta tozalash va tog'-kon sanoati uchun detallar tayyorlaydi.

Sirdaryoda Qayroqqum suv ombori qurilishi bilan shu nomli shahar tashkil topdi. Hozirgi kunda shaharda Qayroqqum gilam kombinati ishlab turibdi. Bu yerda tayyorlanadigan gilamlar xorijiy mamlakatlarga ham eksport qilinadi. Rayon xo'jaligini rivojlantirishda Qayroqqum GESining ham ahamiyati kattadir.

Mintaqadagi Isfara shahri ham o'zining go'zalligi bilan ajralib turadi. U tog' orasida Isfara daryosi bo'yida joylashgan qadimiy shahardir.(8-asr). SHahar atrofida dam olish maskanlari, dala hovlilar ko'p. Isfarada konsyerva, elektromexanika zavodlari ishlab turibdi.

JANUBIY-SHARQIY TOJIKISTON (TOG'LI BADAXSHON AVTONOM VILOYATI).

Respublika hududining 44% ni, aholisining esa atigi 3% ni tashkil etadi. Mintaqa asosan SHarqiy Pomirni o'z ichiga oladi. Bu yerda xilma-xil landshaftlar uchraydi.

Tog'li Badaxshon eng baland va aholisi eng kam mintaqalardan biridir. Ko'plab tog' muzliklari, O'rta Osiyoning deyarli barcha daryolariing manbai hisoblanadi. Iqlimi sovuq, keskin kontinental. Respublikadagi eng past havo harorati shu yerda kuzatiladi.

Mintaqa tabiiy resurslarga boy. Bu yerda nodir va qimmatbaho metallar, tog' xrutsali, temir, asbest, slyuda kabi ko'plab mineral resurslar topilgan. Bu yerda 50 dan ortiq issiq va sovuq mineral, shifobaxsh buloqlar mavjud. Tog'lardan ko'plab qimmatbaho toshlar olinadi. Ularni qayta ishlash uchun Dushanbe zargarlik zavodlariga olib ketiladi.

Mintaqa gidroenergetika resurslariga ham boy. Lekin iqlimining sovuqligi, transport noqulayligi tufayli ulardan to'liq foydalanilmaydi.

Bu yer tog'li o'lka bo'lganligi sababli faqat avtomobil transporti yaxshi rivojlangan. O'sh-Xorug' avtomobil trakti Tog'li Badaxshonni Qirg'iziston bilan bog'laydi.

Iqlimining sovuqligi tog'li o'lka bo'lganligi uchun uning iqtisodiyotida ko'proq qishloq xo'jaligi rivojlanishiga imkon byeradi. qishloq xo'jaligida etakchi tarmoq chorvachilik hisoblanadi. U jami qishloq xo'jaligi mahsulotining 70% ni tashkil etadi. Rayon uchun tog'-yaylov chorvachiligi xos bo'lib, asosan qo'toslar boqiladi. Rayonning g'arbida, uncha katta bo'lmagan hududlarda dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Asosan bo'g'doy, tariq, no'xat

etishtiriladi. Kartoshka etishtirish va tamakichilik ham muhim ahamiyatga ega. Aholisining ko'pchiligi Pomir tojiklari va qirg'izlaridir. Mintaqa ma'muriy va sanoat markazi Xorug' shahri bo'lib, u G'unt daryosi vodiysida joylashgan. SHaharda non zavodi, sut-go'sht kombinatlari, tikuvchilik fabrikasi, temir-beton konstruksiya zavodi va boshqa korxonalar ishlab turibdi.

Xorug' baland tog'da joylashgan Botanika bog'i bilan ham mashhur. Bu boqqa MDU professori I. V. SHukin asos solgan. Bog'da Evropa, Afrika, Avstraliya, Amyerikadan keltirilib, iqlimga moslashtirilgan buta va daraxtlar o'stiriladi.

Savollar.

1. Tojikiston tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyati nimada?
2. Respublika xo'jaligida etakchi tarmoqni ayting?
3. Mamlakat gidroEnergetika resurslariga ta'rif byering?
4. Respublika aholisi tabiiy o'sishining harakterli xususiyati nimada?
5. SHarqiy Pomirda qishloq xo'jaligining qaysi tarmog'i ustivorroq rivojlangan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI.

Reja:

1. O'zbekiston tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.
2. Aholisi va mehnat resurslari.
3. Xo'jaligi, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti.
4. Iqtisodiy geografik rayonlari.

O'ZBEKISTONNING TABIIY SHAROITI VA BOYLIKLARI.

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyo davlatlarining o'rtasida Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, g'arbiy qismi Turon pasttekisligi, janubi va SHarqiy qismi esa tog'li o'lkalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston maydoni 448,9 ming km² bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlari orasida uchinchi o'rinda (MDH davlatlari orsida beshinchi) turadi. Poytaxti Toshkent shahri. Uning maydoni shimoldan janubga 930 kmga, g'arbdan sharqqa esa 1400 kmga cho'zilgan. Respublika Markaziy Osiyo davlatlarining 11,2 % hududini, aholisi esa 45%ini tashkil etadi.

O'zbekistonning geografik o'rni ancha qulay. U shimolda va shimoli g'arbda Qozog'iston, g'arbda Turkmaniston, janubda Afg'oniston, sharqda esa Tojikiston va Qirg'iziston respublikalari bilan chegaradosh.

O'zbekistonning tabiati boy va juda xilma-xildir. Hududining katta qismini (78,7 %) tekisliklar egallaydi. qolgan qismi esa (21,3) tog'lardan va tog' oralig'i botiqlaridan iborat.

Respublika relefida tekisliklar, tepalik va tog'liklar o'ziga xos ravishda uyg'unlashib ketgan. Respublikamiz sharqiy qismlarida tog'lar oralig'ida bir qancha tog' oralig'i botiqlari joylashgan bo'lib, ayniqsa, Farg'ona botig'i alohida ajralib turadi. Bundan tashqari CHirchiq-Ohangaron vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylari o'ziga xosdir. Bulardan eng yirigi Farg'ona botig'i bo'lib, shimoldan janubga 190-200 km, g'arbdan sharqqa esa 370 km msofaga cho'zilgan. Vodiy hamma tomonidan tog'lar bilan o'ralgan bo'lib, bodomsimon shaklni hosil qilgan. Faqatgina g'arbiy qismidan Xo'jand darvozasi orqali Mirzacho'l va Dalvarzin tekisliklari bilan tutashgan. O'zining ajoyib tabiiy sharoiti bilan Farg'ona vodiysi «O'rta Osiyoning javohiri» degan nom olgan. O'zbekistonning tekislik qismlariga asosan Ustyurt platosi va Qizilqum cho'llari kiradi. Respublikaning eng past nuqtasi Mingbuloq botig'i bo'lib, u qadimgi emirilgan tog'lar orasida joylashgan. Uning mutloq balandligi dengiz sathidan –12 metrn tashkil qiladi. Eng baland nuqtasi esa Hisor tog'idagi Hazrati Sulton cho'qqisidir. Uning dengiz sathidan balandligi 4643metr.

O'zbekiston syerquyosh o'lkadir. Iqlimi quruq kontinental. Iqlimining tashkil topishiga geografik o'rni, quyosh radiatsiyasi, atmosferaga tsirkulyatsiyasi va yer yuzasining tuzilishi katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonning yozi juda issiq va uzoq bo'ladi. Iyul oyining o'rtacha harorati $+32^{\circ}\text{S}$, eng yuqori havo harorati Tyermizda $+50^{\circ}$ gacha etadi. Qishda havo harorati 0° dan pasayadi. YAnvar oyida Ustyurtda -10° , Toshkentda -1° , Tyermizda esa $+2,8^{\circ}\text{S}$ bo'ladi.

O'zbekiston iqlimiga shimoldan Arktika va G'arbiy Sibir, g'arbdan esa Atlantika okeanidan keladigan havo massalari katta ta'sir ko'rsatadi. Arktika havo massalari savuq va quruq bo'lsa, Atlantika okeani havo massalari esa nam va quruqdir. YOg'in miqdori hududlar bo'yicha notekis taqsimlangan. Respublikamizning g'arbiy qismlarida o'rtacha 100 mm dan janubiy sharqda 700-800 mm gacha yog'in tushadi. YOg'inlarning asosiy qismlari qish va bahor oylariga to'g'ri keladi, (40-30%).

Eng kam yog'in yoz oyida bo'ladi (7-10%).

Respublika hududida bir qancha mahalliy shamollar hosil bo'ladi. bular Farg'ona vodiysida qo'qon shamoli, Dalvarzin tekisligida Bekobod shamoli, Surxondaryo vodiysidagi Issiq garmisel «afg'on shamoli»dir.

Respublika daryolari byerk havzalarga kiradi va ular hudud bo'yicha notekis taqsimlangan. Daryolar asosan tog'lardan boshlanadi va ko'pchiligi tekisliklarga kelib sug'orishga ishlatilganligi sababli qurib qoladi. O'zbekiston hududining qariyb uchdan ikki qismini egallagan poyonsiz tekisliklarda suv manbalari juda ham kam. Ayni paytda respublika sharqiy qismida joylashgan tog'lardan ko'plab soy va daryolar boshlanadi. Yer usti suvlarining respublika hududi bo'ylab notekis taqsimlanishi mamlakatimiz tabiiy sharoiti natijasidir. Bu esa o'z navbatida mamlakat qishloq xo'jaligi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'rta Osiyodaryolari kabi O'zbekiston daryolari ham tog'lardagi qor va muzliklardan to'yinadi. YOg'inlar ham asosan bahor oylarida ko'pyog'adi. SHu sababli daryolar may-iyun oylarida ko'pyog'adi. Suvning bekorga oqib ketmasligi uchun daryolarga bir qancha suv omborlari qurilgan. Bu suv omborlarida to'plangan suvlardan yoz oylarida sug'orish uchun ishlatiladi.

O'zbekistonni suv bilan ta'minlashda O'rta Osiyoning eng yirik daryolari: Amudaryo va Sirdaryo katta ahamiyatga egadir. Eng uzun daryo Sirdaryo bo'lib, uning uzunligi 2981 km ni tashkil qiladi. Eng syersuv daryo esa Amudaryodir. Uning uzunligi 2660 km. ammo bu daryolar respublikaning suvga bo'lgan ehtiyojini qondirmaydi.

O'zbekiston dehqonchiligi sun'iy sug'orishga asoslangan mintaqalar qatoriga kiradi. SHu sababli daryolar mohiyati ularning roli mavjud dehqonchilik yerlari uchungina emas, badki yangi yerlarni o'zlashtirish uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Respublika hududida sug'orishni yaxshilash maqsadida qadimdan qadimdan daryolardan ko'plab kanallar qazilgan. Ayniqsa, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, CHirchiq daryolaridan, Farg'ona vodiysidagi qoradaryo, Norin, Isfara, So'x kabi soylardan ko'plab kanallar boshlangan. Bu kanallar asosan sug'orish maqsadida hamda gidroelektro tsantsiyalar qurilishida katta ahamiyatga egadir. Eng yirik kanallardan U.YUsupov nomli katta Farg'ona kanali, shimoliy Farg'ona, Namangan, Eski Anhor, Amu-Buxoro, Bo'zsuv va boshqalardir. Yirik suv omborlaridan Tuyamo'yin, CHorvoq, Kattaqo'rg'on, Tuyabo'g'iz va boshqalar bunyod etilgan.

O'zbekiston hududida 250 ga yaqin ko'llar bo'lib, ular asosan mayda ko'llardir. Bu ko'llardan eng yiriklari Orol, Aydarko'l hisoblanadi. Orol ko'li kattaligi sababli dengiz nomini olgan edi. Lekin uning sathi keyingi yillarda keskin pasayib ketdi. Kichik ko'llardan ayrimlari shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Bular jumlasiga Tuzkon, Axsikent, Dengizko'l, qurbonko'li, Baliqko'l va boshqalar kiradi. Oxirgi yillarda ko'plab yangi suv omborlari bunyod etildi. Bularga Ohangaron, Janubiy Surxon, CHimqo'rg'on va boshqalar misol bo'ladi. bu suv omborlari asosan daryo rejimini tartibga solib, bahorgi, qishki, kuzgi suvlarni to'plab, yozda suv tanqis bo'lgan paytda ekin dalalarini suv bilan ta'minlash maqsadida qurilgan.

Respublika yer osti suvlariga ham boy. Ayniqsa ularning zahiralari tekisliklarda va tog' oralig'i botiqlarda ko'plab topilgan. Artezian suvlaridan tashqari mineral suvlar ham ko'pbo'lib, ularning yirik zahiralari Farg'ona, Surxondaryo va CHirchiq vodiylarida topilgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda 70 ga yaqin shifobaxsh mineral suv manbalari topilgan. Bulardan eng asosiylari Toshkent, CHortoq, Farg'ona, Oltiariq, CHimyon, Jayronxona va boshqalardir. Bunday suvlar arkibida oltingugurt, vodorod, radiy, yod, brom kabilar ko'pbo'lganligi bois katta ahamiyatga

egadir va shifobaxsh suvlar sifatida keng foydalaniladi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi mineral suvlari kimyoviy tarkibiga ko'ra jahondagi ko'plab mineral suv havzalaridan qolishmaydi. Jumladan, CHortoq va CHimyon mineral suvlarining dovrug'i nafaqat O'zbekiston balki, qo'shni mamlakatlarda ham mashhurdir.

Respublikada xilma-xil o'simliklar o'sadi. Ayniqsa, tog'li mintqalarda dorivor o'simliklar ko'plab uchraydi. Ularning ayrim turlari faqat O'zbekistonda uchraydi xolos.

O'zbekiston hududida turli xil mineral resurslar tarqalgan. Respublika hududida yonuvchi, rudali va rudasiz foydali qazilmalar ko'p. Ayniqsa, oltin, volfram, mis, qo'rg'oshin, rux, tabiiy gaz va boshqalarning zahiralarining ko'pligi bo'yicha jahon mamlakatlarining orasida etakchi o'rinlarda turadi. Respublika hududida qurilish matyeriallari (ayniqsa marmar), oyna qumi, keyingi yillarda ochilgan yirik fosforit konlari ham alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston ayniqsa oltin qazib chiqarish bo'yicha ajralib turadi. MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi, jahonda esa sakkizinchi o'rinda turadi. Sifatligi darajasi ham yuqori. Oltinning yirik konlari Muruntog', Ko'kpatas, Uchquduq, bundan tashqari, Zarmiton, Marjonbuloq, CHodak, qo'ytosh va boshqalardir. Muruntog' oltin koni asosida qizilqumda yirik sanoat markazi Zarafshon shahri qad ko'targan.

Rangli metallar Toshkent viloyatida ko'plab topilgan. Bular orasida mis qazib chig'arish yaxshi rivojlangan. Rangli metallar qazib chiqarish asosida Olmaliq shahri rivojlandi. U respublika iqtisodiyotida muhim ahamiyatga egadir.

Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari hududi O'zbekistonning yirik gaz mintaqasi hisoblanadi. Yirik konlaridan Muborak, SHo'rtang, Jarqoq vaboshqalar shu yerda joylashgan. Ayniqsa SHo'rtang gaz koni itsiqboli porloqdir. Gaz faqat yoqilg'igina emas, balki qimmatbaho kimyoviy xom ashyosi hamdir.

Qashqadaryo viloyati gaz zahirolari jihatidan Respublikada etakchi o'rinni egallaydi. Keyingi paytlarda Ustyurt platosida ham yangi-yangi gaz konlaritopildi.

Respublika hayotida ko'mirning ham o'ziga xos o'rni bor. Respublikada qazib olinadigan ko'mirning 95%i Toshkent viloyatida-Angren ko'mir havzasiga to'g'ri keladi. Bu yerda ko'mir ochiq usulda qazib olinadi. SHu sababli mahsulotning tannarxi ancha arzonidir.

Surxondaryo viloyati tog'larida sanoatda katta ahamiyatga ega bo'lgan toshko'mir konlari topilgan. Bular SHarg'un va Boysun konlari bo'lib kokslanuvchanligi bilan ajralib turadi.

Respublikada ko'plab miqdorda neft qazib chiqaziladi. Dastlabki neft koni Farg'ona vodiysida 1904 yilda topilgan CHimyon konidir. Keyinchalik bu mintaqada Polvontosh, So'x, Janubiy Olamushuk, Andijon va boshqa konlar ochildi. Mustaqillik yillarida esa (1992) Namangan viloyatida Mingbuloq neft koni topildi. Neftni qayta ishlash maqsadida Farg'ona va Oltiariqda neftni qayta ishlash zavodlari qurilgan. Hozirgi kunga kelib, Surxon vodiysida, qashg'adaryo va buxoro viloyatlari hududida ham neft konlari ochilgan. Ayniqsa Ko'kdumaloq, qorovulbozor konlarining itsiqboli kattadir. 1990 yillarda 2 mln t atrofida neft qazib olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1998 yilga kelib, 8 mln t dan oshib ketdi. O'zbekiston o'z neft mustaqilligiga erishdi. Ayniqsa Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda O'zbekistonda xilma-xil neft mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Yer osti va yer usti boyliklari tabiatning eng buyuk in'omidir. Bu boyliklardan tejab-tyergab foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilish katta ahamiyatga egadir.

AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

O'zbekiston respublikasi ko'pmillatli mamlakatlardan biri bo'lib, 120 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilishadi. Jami aholisi 25 mln 210 ming kishidan ortiq. Aholisining somni bo'yicha O'rta Osiyodavlatlari orasida birinchi o'rinda turadi. (MDH davlatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi). Respublikada O'rta Osiyoaholisining 43% istiqomat qiladi.

Mamlakat aholisi tez ortib bormoqda. Aholi sonining ko'payishi asosan tabiiy o'sish hisobiga ro'y byermoqda. Respublika aholisi har yili o'rtacha 400-450 ming kishiga ko'paymoqda.

Aholining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil qiladi (78%). Bundan tashqari qozoqlar, tojiklar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, ruslar, ukrainlar va boshqalar istiqomat qilishadi.

Respublikada urbanizatsiya darajasi o'rtacha ko'rsatkichga ega, ya'ni jami aholining 38% i shaharlarda yashaydi. O'zbekistonda ayniqsa keyingi paytlarda qishloq aholisi tez ortib bormoqda. Buning asosiy sababi qishloqlarda tug'ilishning yuqoriligidir.

O'zbekistonda aholi hududlar bo'yicha notekis taqsimlangan. Aholining o'rtacha zichligi 1 km kv ga 54 kishini tashkil qiladi. Lekin bu ko'rsatkich viloyatlar o'rtasida bir-biridan farq qiladi. Masalan aholisi eng zich viloyatlar: Andijon, Farg'ona, Toshkent, Namangan viloyatlari bo'lib, bularda 300-500 kishini tashkil etgani holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy viloyatlarida eng past, ya'ni 8-10 kishiga to'g'ri keladi.

Respublika aholisining 45 foizdan ko'prog'ini 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. 55 va undan katta yoshdagilar esa jami aholining 8% ini tashkil etadi.

Aholining jinsiy tarkibida ayollar salmog'i yuqori bo'lib, jami aholining 50,5 foizini tashkil etadi. Keyingi yillarda ayollar bilan erkaklar orasidagi farq tobora kamayib bormoqda, masalan 1980 yilda ayollar erkaklarga nisbatan 268 kishiga ko'proq bo'lgan bo'lsa, 1990 yilga kelib 119 mingga tushib qoldi.

Aholining jinsiy va yosh tarkibiga oid bo'lgan xususiyatlar mehnat resurslarida ham namoyon bo'ladi. Mehnat resurslarining asosini mehnatga qobil aholi tashkil etadi. O'zbekistonda mehnat resurslariga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lga erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar kiradi. Respublika aholisining 50 foizga yaqini mehnat resurslariga to'g'ri okeladi.

Har yili o'rtacha 200-250 ming kishi mehnatga layoqatli aholi tarkibiga qo'shiladi. Bu esa o'z navbatida mehnat resurslaridan unumli foydalanish muammosini keltirib chiqaradi.

Mehnat yoshidagi ayrim aholi ma'lum ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra ishlab chiqarishda ishtirok eta olmaydi.

Ob'ektiv sabablarga – ishlab chiqarishdan ajralga holda o'qish. harbiy xizmatni o'tash kabilar kirs, sub'ektiv sabablarga ko'ra – ya'ni yosh bolali va ko'pfarzandli ayollarning bola tarbiyasi bilan, shaxsiy xo'jalik yumushlari bilan bandligi misol bo'ladi.

O'zbekistonda iqtisodiy faol aholining xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha bandligi bir-biridan farq qiladi. Respublika aholisining asosiy ko'pchiligi moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari – ya'ni qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, qurilish va boshqalarda band. Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga esa respublika aholisining 30 foizga yaqini to'g'ri keladi.

Hozirgi kunga kelib, ya'ni iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi jarayonida aholi bandligida zarur o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bilan yakka tartibda ish bilan band aholi soni ortib, davlat korxonalarida ishlayotganlar soni tobora kamayib bormoqda.

O'zbekistonda hozirgi kunda 120 shahar, 113 shaharcha mavjud. SHahar maqomini byerish davlatlarda bir-biridan farq qiladi. qo'shngi respublikalarda aholi soni 5 ming kishidan oshsa, O'zbekistonda esa 7 ming kishidan oshsa, aholisining 2/3 qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqlarda ishlasa shahar deb ataladi.

Respublikada aholisi yuz mingdan ortiq bo'lgan 17 ta shahar bo'lib, bularda shahar aholisining 59 foizi yashamoqda. Eng yirik shaharlari Toshkent (2149 ming), Namangan (397 ming), Samarqand (363 ming), Andijon (343 ming), qo'qon (202 ming), Marg'ilon va boshqalardir.

Respublikadagi barcha viloyat markazlari (Gulitsondan tashqari) yirik shaharlar hisoblanadi.

O'zbekistonda hozirgi kunda aniq shakllangan ikkita aglomeratsiyalar mavjud. Bular Toshkent va Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyalaridir.

SHuningdek Samarqand, Andijon, Buxoro kabi shahar aglomeratsiyalari ham shakllanmoqda.

XO'JALIGI.

O'zbekiston xo'jaligida qadimdan qishloq xo'jaligi etakchi tarmoq hisoblanib kelingan. Lekin so'nggi yillarda sanoatning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Respublika sanoati ko'ptarmoqli bo'lib, qishloq xo'jalik mashinasozligi, elektroenergetika, neft va gaz, ko'mir, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, avtomobilsozlik, engil va oziq-ovqat sanoati kabilardir.

Respublika sanoatida etakchi o'rinni og'ir sanoat egallaydi. Ma'lumki bunga yoqilg'i-Energetika, mashinasozlik, metallurgiya va qurilish materiallari sanoat tarmoqlari kiradi. Og'ir sanoat xalq xo'jaligining ko'plab tarmoqlarini yangi texnika jihozlari bilan ta'minlaydi. Hozirgi zamon iqtisodiyotining rivojlanishini elektroenergetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Respublikada ishlab chiqariladigan elektr energiya ko'pchiligi GRESlardan olinadi. Bularga Sirdaryo, Navoiy, Toshkent, Angren, Taxiotosh va boshqa GRESlar kiradi. SHuningdek GESlar ham katta ahamiyatga ega, ayniqsa CHirchiq-Bo'zsuv kaskadi GESlari alohida o'rin tutadi.

Mamlakat sanoatida etakchi tarmoqlardan biri – mashinasozlik. Mashinasozlik sanoatida paxta tyeruvchi mashinalar, chigit ekuvchi, yigiruvchi, sug'oruvchi mashinalar, avtomobillar, samolyotlar va hokozalar ishlab chiqariladi.

Ayniqsa respublikaning Andijon viloyatida (Asaka shahri) 1996 yilda Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda qurilib ishga tushirilgan O'zDEU avto qo'shma korxonasi katta ahamiyatga ega. O'zbekiston jahonda avtomobillar ishlab chiqaradigan 28 mamlakatning biriga aylandi.

1999 yil mart oyidan boshlab, yana bir avtomobil zavodi ishga tushdi. Samarqand shahrida Turkiya bilan hamkorlikda «Samkochavto» qo'shma korxonasi tashkil etilib, O'zOtoyo'l mikroavtobuslari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Respublika mashinasozlik tarmog'ida ko'plab korxona va birlashmalar ishlab turibdi. Bulardan asosiylari Toshkent «Agregat» zavodi, «TTZ», O'zbekiston qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi, CHirchiq kimyo mashinasozligi, «Andijonirmash» va boshqa zavodlardir.

Og'ir sanoatning muhim tarmoqlaridan yana biri yoqilg'i sanoati bo'lib, tabiiy gaz, neft, ko'mir qazib chiqarish, neftni qayta ishlashni o'z ichilga oladi. Gaz sanoati respublika yoqilg'i sanoatining eng yosh tarmog'i hisoblanadi. YAngi gaz konlari ochilishi bilan O'zbekiston tabiiy gazga boy va gaz sanoati rivojlangan mamlakatlardan biriga aylandi. Respublika gaz qazib chiqarishda MDH davlatlari orasida Rossiya va Turkmanistondan keyin uchinchi o'rinda turadi. Mamlakatda olinadigan tabiiy gazning 80% ni Qashqadaryo viloyati byeradi. Respublikada barcha yoqilg'ilar orasida gazning salmog'i 85% dan ortiqdir.

Neft sanoati hozirgi zamon yoqilg'i sanoatining samarali turlaridan biridir. Neft sanoati Respublika yoqilg'i sanoatining to'ng'ich tarmog'i hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillik yillarida neft mustaqilligiga ham erishdi. Asosiy neftni qayta ishlash zavodlari Farg'ona vodiysidagi Farg'ona, Oltiariq va Buxoro viloyatidagi qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodlari hisoblanadi.

O'zbekitsonda ko'mir zahiralari uncha katta emas. Asosiy konlari Toshkent viloyatidagi Angren va Surxondaryo viloyatidagi SHarg'un va Boysun konlaridir. Asosiy ko'mir Angren konidan olinadi (95%). Uning tannarxi ancha arzon. Ko'mir sanoati respublikada yana dham rivojlanib boravayeradi.

Respublika sanoat tarmoqlari orasida rangli metallurgiya ham o'ziga xos ahamiyatga egadir. Mintaqada mis, volfram, molibden, qo'rg'oshin, rux, oltin qazib chiqarish rivojlangan.

Rangli metallurgiya markazi Olmaliq hisoblansa, nodir metallar asosan Muruntovda (Zarafshon) topilgan. Yirik sanoat markazlari Olmaliq-tog' metallurgiya kombinati, CHirchiq o'tga chidamli va qiyin eriydigan metallar zavodi, Navoiy tog'-metallurgiya kombinatlari va boshqalardir.

Respublikada qora metallurgiya ham shakllangan. Uning markazi Bekobod shahri bo'lib, bu yerda 1946 yilda metallurgiya kombinati ishga tushirilgan. Bu korxona metallolom asosida ishlaydi.

Kimyo sanoati ham xalq xo'jaligida katta ahamiyatga egadir. Hozirgi zamon ishlab chiqarishini plasmassa, sun'iy tola, lak-bo'yoq, kislota va boshqa kimyoviy mahsulotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Kimyo sanoati markazlari Toshkent, Samarqand, Chirchiq, Andijon, Farg'ona, Navoiy, Olmaliq, Pop, Jizzax kabi qator shaharlar hisoblanadi. SHuningdek respublikada elektrotexnika, qurilish matyeriallari, engil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari ham ancha yaxshi rivojlangan.

QISHLOQ XO'JALIGI.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda qishloq xo'jaligi alohida ahamiyatga egadir.

Qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat bilan, sanoat tarmoqlarini esa qimmatbaho xomashyolar bilan ta'minlab turadi. Respublika aholisi qadimdan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanib kelgan va boy tajribaga egadir. qishloq xo'jaligida etakchi tarmoq dehqonchilik hisoblanadi.

O'zbekistonda dehqonchilikning etakchi tarmog'i bo'lgan paxtachilikda sug'orishdan keng foydalaniladi. Lekin respublikada sug'oriladigan yerlar salmog'i uncha katta emas. Yerlarning ko'pchiligini cho'llar va chala cho'llar egallagan. Dehqonchilik hududlarida barcha ekinlar ekiladi. Paxtachilik bilan almashlab makkajo'xori, bug'doy ekiladi. SHuningdek, sholikorlik, bog'dorchilik, uzumchilik ham taraqqiy etgan.

Respublikaning barcha hududlarida g'alla, asosan bug'doy ekiladi. Lekin yaqin vaqtlargacha chetdan ko'plab miqdorda don olib kelingan. Respublikada olib borilgan agrar siyosat tufayli bu narsa atsa –sekin barham topmoqda. Hozirgi kunda respublikada to'rt million tonnaga yaqin bug'doy etishtirilmoqda. Bu esa o'z navbatida g'alla mustaqilligiga erishishga olib kelmoqda. /allachilikda sholi etishtirish ham katta ahamiyat kasb etadi. SHoli etishtirishda Qoraqalpog'iston respublikasi va Xorazm viloyati etakchi o'rinda turadi.

SHuningdek respublikada kanop etishtirish (Toshkent viloyati), tamaki etishtirish (Samarqand viloyati), qandlavlagi (Xorazm viloyati), poliz ekinlari (Sirdaryo va Jizzax viloyati), kartoshka (Samarqand, Toshkent viloyatlari) etishtirish ham yaxshi rivojlangan.

O'zbekiston iqlim sharoiti bog'dorchilik uchun ham qulay. Bog'dorchilik va uzumchilik ixtisoslashgan tarmoqlardan biridir. O'rik etishtirish Farg'ona vodiysida, anor Qashqadaryo viloyati (Varganze), Farg'ona viloyati (Quva), Surxondaryo viloyati (Dashnobod) da ko'plab etishtiriladi.

Uzumchilik barcha viloyatlarda rivojlangan. Bu sohada ayniqsa Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari etakchi o'rinda turadi.

CHorvachilik dehqonchilikdan keyin turadi. CHorvachilikda etakchi tarmoq qo'ychilikdir. Ayniqsa respublikada qorako'l qo'ylarni boqish yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, xalqaro ixtisoslashgan tarmoqdir. Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda ko'plab qorako'l qo'ylari boqiladi. Surxondaryo, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida hisori qo'ylari ko'p bo'lib, ular asosan go'shti va yungi uchun boqiladi. Namangan viloyati esa mayin yungli angor echkilarni boqishda etakchi o'rinda turadi. qoramollar barcha viloyatlarda boqiladi. Eng ko'p Qashqadaryo, Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlariga to'g'ri keladi.

Yirik shaharlar atrofida sut-go'sht chorvachiligi, cho'l mintaqalarida esa go'sht-sut chorvachiligi rivojlangan. Mustaqillik yillaridan boshlab yilqichilik ham rivojlana boshladi. SHuningdek respublikada parrandachilik, darrandachilik ham rivojlanmoqda.

Iqtisodiy geografik rayonlar.

Respublikada 8 vta iqtisodiy rayonlar ajratiladi

Toshkent iqtisodiy rayoni (Toshkent viloyati)

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari)
Farg'ona iqtisodiy rayoni (Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari)
Samarqand iqtisodiy rayoni (Samarqand viloyati)
Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni (Buxoro va Navoiy viloyatlari)
Qashqadaryo iqtisodiy rayoni (Qashqadaryo viloyati)
Surxondaryo iqtisodiy rayoni (Surxondaryo viloyati)
Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati)

TOSHKENT IQTISODIY RAYONI.

Iqtisodiy rayon ma'muriy jihatdan Toshkent viloyatidan iborat bo'lib, uning maydoni 15,6 ming km kv. Aholisi 4560,3 ming kishi (2002 yil). Bu rayon respublika hududining 3,5 foizini, aholisining esa 18 foizini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km kv ga 292,3 kishi to'g'ri keladi.

Iqtisodiy rayon Respublikaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, shimolda Qozog'iston, shimoli-sharqda Qirg'iziston va Namangan viloyati, janubda Tojikiston va g'arbda Sirdaryo viloyati bilan chegaralangan.

Tabiiy sharoiti xilma-xil bo'lib, yer yuzasi g'arbdan sharqqa ko'tarilib boradi. Tabiiy resurslarga boy, ayniqsa mintaq hududida ko'mir, rangli metallar, qurilish xom-ashyolari ko'plab topilgan. Mintaqa xo'jaligining rivojlanganligi bo'yicha respublikada etakchi o'rinda turadi. Iqtisodiy rayon respublika yalpi sanoat mahsulotining 40 foizga yaqinini byeradi: sanoat mahsulotining 3/2 qismi og'ir sanoatga to'g'ri keladi. Respublikada ishlab chiqariladigan elektroenergiyaning 44 foizini, ko'mirning 95 foizini, qishloq xo'jalik mashinalarining 95 foizini, ko'n-poyafzalning 3/1 qismini, o'simlik moyining 30 foizini va boshqa ko'plab mahsulotlarni etkazib byeradi.

Iqtisodiy rayon aholisi hududlar bo'yicha notekis joylashgan. Daryo vodiylari sug'oriladigan yerlarda 1 km kv ga 400-450, tog' yonbag'irlarida esa 5-10 kishi to'g'ri keladi. Aholisining milliy tarkibi xilma-xil bo'lib, o'zbeklar ko'pchilikni – 45 foizni, ruslar 15 foizni, tatarlar 7 foizni, qozoqlar 6,3 foizni, koreyslar 3,2 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari ukrainlar, yahudiylar, tojiklar va boshqa millatlar ham istiqomat qilishadi.

Aholisining asosiy qismi shaharlarda yashaydi. Toshkent shahri bilan qo'shib hisoblanganda 71 foizdan ortadi. Mintaqada 17 shahar va 19 ta shaharcha mavjud. Eng yirik shaharlari Toshkent, Angren, Ollmaliq, CHirchiqdir. Bu yerda Toshkent aglomerasiyasi tashkil topgan bo'lib, u monotsentrik ahamiyatga ega.

Toshkent shahri – respublika poytaxti, yirik sanoat, transport markazidir. Aholisi 2149 ming kishi (2002 yil). Ma'muriy jihatdan 11 tumanga bo'lingan. U nafaqat O'rta Osiyo, balki MDH dagi eng yirik shaharlardan biridir. Shaharda respublika sanoat mahsulotlarining 25 foizga yaqini ishlab chiqariladi. Eng yirik korxonalari O'zbekiston qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi, Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodi, samolyotsozlik va boshqalar.

Asosiy temir yo'llar Toshkent-Orenburg-Moskva, Toshkent-Turkmanboshi, Toshkent-Andijon, Toshkent-Dushanbe va boshqalardir. Havo yo'llari – Toshkent-Dehli, Xanoy, Itsanbul, Manila, Dubay, Frankfurt-Mayn va boshqa ko'plab mamlakat shaharlari biyo'lan bog'langan bo'lsa, avtomobil yo'llari orqali O'rta Osiyodavlatlarining barchasi bilan bog'langan.

CHirchiq - aholisi soni (142 ming kishi) va sanoat hajmi bo'yicha Toshkentdan so'ng bikkinci o'rinda turadi. Shaharda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, kaprolaktam, qiyin eriydigan va o'tga chidamli metall qotishmalari, transformator ishlab chiqaruvchi va boshqa korxonalar ishlab turibdi.

Angren – (aholisi 130 ming kishi) yirik sanoat markazi bo'lib, ko'mir asosida ishlaydigan korxonalar ko'p. Angren GRESi, rezina, texnika buyumlari, tog'-kon, oltin boyitish va boshqalar joylashgan.

Olmaliq - (aholisi 114 ming kishi) rayonning asosiy rangli metallurgiya markazidir. Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida mis va rux boyitish, oltin quyish, sulfat kislotasi olish va boshqa sexlar ishlab turibdi. Shaharda kimyo sanoati ham yaxshi rivojlangan, bu yerda plasmassa idishlar, kir yuvish vositalari, ammos fosfor ishlab chiqarish va boshqalar yo'lga qo'yilgan.

Iqtisodiy rayonda yoqilg'i energiya majmuasi yaxshi rivojlangan. Mintaqada respublikaning 45% ga yaqin elektr energiyasini hosil qilinadi. Ular Toshkent, Angren, Yangi Angren GESlari va Chirchiq-Bo'zsuv kaskadidagi GESlardan olinadi.

Iqtisodiy rayon respublikada yagona qora metallurgiya markaziga ham ega. Bekobod metallurgiya zavodi respublikada to'plangan temir-tyetsak asosida ishlaydi.

Chirchiq shahrida qiyin eriydigan va o'tlga chidamli qotishmalar kombinati ishlab turibdi. Kombinatda volfram va molibden dan ko'plab turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Mashinasozlik eng rivojlangan tarmoqlardan biridir. Bu yerda qishloq xo'jalik mashinasozligi (Toshkent qXM, O'ZqXM, Chirchiq qXM), elektrotexnika (Toshkent kabel, Chirchiq transformator, Toshkent elektrotexnika zavodlari), kimyo mashinasozligi kabilar muhim ahamiyatga ega. SHuningdek rayonda samolyotsozlik, elektrotexnika (Al-Xorazmiy, Zenit, Mikond) va boshqa korxonalar ishlab turibdi.

Iqtisodiy rayonda engil va oziq-ovqat sanoati dham yaxshi rivojlangan. Ular qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Mintaqada yirik paxta tozalash zavodlari, lub zavodlari mavjud.

Engil sanoatning eng yirik korxonasi Toshkent to'qimachilik kombinati bo'lib, bu yerda ip-gazlama va boshqalar ishlab chiqariladi. SHuningdek «Malika», «Yo'ldoz», «qizil tong» ishlab chiqarish birlashmalari, «Orzu» charm galantereya, Olmaliq gilam fabrikasi, Toshkent, Chirchiq, Yangiyo'l poyafzal korxonalari ham katta ahamiyatga egadir.

SHu bilan birga mebel, tyermos, plasmassa mahsulotlar ishlab chiqarish o'ziga xos o'rinda turadi.

Iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligi ham yaxshi rivojlangan. Mintaqa sabzavot, meva, kanop hamda don etishtirish bo'yicha oldingi o'rinlarda turadi. Bu yerda sholining 11 foizi, sabzavotning 20 foizi etishtiriladi. Tog' yon bag'irlarida lalmikor dehqonchilik, tekisliklarda esa sug'orib dehqonchilik qilish rivojlangan.

Iqtisodiy rayon chorvachiligi go'sht-sut etishtirishga ixtisoslashgan. Yirik shaharlar atrofida sut-go'sht chorvachiligi ustun turadi. qoramollar, cho'chqa va parrandalar shahar atrofida boqilsa, qo'y va echkilar esa tog' yonbag'irlarida ko'plab boqiladi. Ayniqsa angor echkilarni boqish yaxshi rivojlangan.

MIRZACHO'L IQTISODIY RAYONI.

Bu iqtisodiy rayon ma'muriy jihatdan Sirdaryo va Jizzax viloyatlarini o'z ichiga oladi. Uning maydoni 25,5 ming km kv. aholisi 1,7(2000 yil) million kishi. Maydoni bo'yicha 4 o'rinda turadi. Aholi zichligi 1 km kv ga 63,9 kishiga to'g'ri kelgani holda, Jizzax viloyatida 47,7 kishiga to'g'ri keladi. Aholining milliy tarkibida o'zbeklar ko'pchilikni tashkil qiladi. Jami aholining 71% i o'zbeklar, bulardan tashqari ruslar, qozoqlar, koreyslar va boshqa millatlar ham ko'p. Urbanizatsiya darajasi ancha past. SHahar aholisi 30 foizni tashkil etadi. Mintaqada 12 ta shahar va 10 ta shaharcha mavjud bo'lib, ulardan eng yirigi Jizzax shahridir. SHaharda 134 mingdan ortiq aholi yashaydi. Guliston, Yangiyer shaharlari nisbatan kichikroqdir.

Mirzacho'l xo'jaligida qishloq xo'jaligi ustun turadi. Mintaqa O'zbekistonning asosiy paxtachilik markazlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda Respublika qishloq xo'jalik mahsulotining 16 foizi etishtiriladi. Keyinshgi yillarda sanoat ham ancha rivojlanib bormoqda. Ayniqsa Jizzax akkumulyator zavodi alohida o'rinda turadi.

Kimyo sanoati markazi Jizzax shahridir. Bu yerda irrigatsiya va melioratsiya maqsadlarida ishlatiladigan polietilen quvurlar ishlab chiqarish kombinati joylashgan.

Mintaqa qurilish matyeriallari sanoati ancha yaxshi rivojlangan. Yirik markazlari Jizzax va YAngiyer shaharlaridir. Mintaqa hududidan ko'plab marmar qazib olinadi.

Iqtisodiy rayonda engil va oziq-ovqat sanoati ancha tez rivojlanib bormoqda. Bu yerda yirik paxta tozalash zavodlari mavjud. Barcha shaharlarda oziq-ovqat korxonalari ishlab turibdi.

Iqtisodiy rayon respublikaning yirik paxtachilik markazlaridan biridir. Mintaqa hududining deyarli yarmiga paxta ekiladi. Paxta bilan almashlab bug'doy, makkajo'xori etishtiriladi. /alla etishtirish bo'yicha respublikada oldingi o'rinda turadi. SHuningdek Mirzacho'l o'zining poliz ekinlari bilan ham mashhur. Respublikada qovun-tarvo'z etishtirish bo'yicha birinchi o'rinda (26,2%)turadi.

Mintaqa qishloq xo'jaligida chorvachilikning ham ahamiyati kattadir. Rayonda respublika qorako'lining 10% ga yaqini etishtiriladi. SHuningdek parrandachilik, pillachilik ham yaxshi rivojlangan.

Mirzacho'l xo'jaligi bundan keyin ham rivojlanib boravyeradi. Buning asosiy sababi uning geografik o'rining qulayligidir. Uning huududidan asosiy avtomobil va temir yo'llar o'tgan bo'lib, respublikaning boshqa iqtisodiy rayonlari bilan aloqani yaxshilaydi.

FARG'ONA IQTISODIY RAYONI.

Mintaqa ma'muriy jihatdan Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlaridan iborat bo'lib, ularning hududi 18,3 ming km kv ga teng. Aholisi 6984 ming kishi(2002 yil). Aholi zichligi 1 km kv ga 363 kishidan to'g'ri keladi.

Mintaqa respublika hududining 4,3% ni, aholisining esa 25% dan ko'prog'ini tashkil etadi.

Farg'ona vodiysi tabiiy sharoitiga ko'ra respublika boshqa mintaqalaridan keskin farq qiladi. Uning barcha tomoni tog'lar bilan o'ralgan. Mintaqa g'arbdan sharqqa cho'zilgan. Vodiyning g'arbiy qismidagina ochiq joy bo'lib, Xo'jand darvozasi orqali Mirzacho'l va Toshkent iqtisodiy rayonlariga chiqish imkoniyatiga ega. Tabiiy resurslarga ancha boy. Neft, rangli metallar, qurilish xom-ashyolari va boshqalar alohida hamiyatga egadir. Respublikadagi dastlabki neft koni ham Farg'ona vodiysida topilgan (CHimyon).

Tabiy sharoitining qulayligi bu yerda qadimdan aholining zich yashashiga imkon byeradi.

Mintaqa xo'jaligining rivojlanganligi bo'yicha Toshkent iqtisodiy rayonidan keyin turadi. O'zbekistonda ishlab chiqariladigan yalpi sanoat mahsulotining 25% dan ko'prog'ini, qishlq xo'jalik mahsulotining 30% ni, shu jumladan paxtaning 27 %, pillaning 3/2 qismini shu iqtisodiy rayon etkazib byeradi.

Mintaqa aholisi hududlar bo'yicha notekis joylashgan. Aholi eng zich huudud Andijon viloyati bo'lib, 1km kv ga 536 kishidan ortiq to'g'ri keladi. Aksincha Namangan viloyati tog' yonbag'irlarida nisbatan kam. Mintaqada urbanizatsiya darajasi ancha past. Jami aholining 32 % ga yaqini shaharlarda yashaydi. Lekin shaharlar soni bo'yicha barcha iqtisodiy rayonlardan oldinda turadi. Bu yerda 28 ta shahar, 26 ta shaharcha bor.

Eng yirik shaharlari Namangan, Andijon, qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona va boshqalardir. Namangan shahri aholisi soni bo'yicha poytaxt Toshkent shahridan keyin ikkinchi o'rinda turadi (9397 ming kishi).

Mintaqada respublika sanoat mahsulotining 25% ishlab chiqariladi. O'z mahsulotining salmog'i bo'yicha mashinasozlik, engil va oziq-ovqat sanoati etakchi o'rinda turadi.

YAxshi rivojlangan sanoat tarmoqlaridan mashinasozlik katta ahamiyatga ega. Bu yerda irrigatsiya va melioratsiya mashinasozligi, qishloq xo'jaligi mashinalari qismlari, to'qimachilik mashinasozligi va boshqalar rivojlangan. SHuningdek mintaqada O'rta Osiyodagi dastlabki avtomobil zavodi qurilgan.

Mintaqada kimyo sanoati ham yaxshi rivojlangan. Farg'onada azot o'g'itlari, qo'qonda supyerfosfat zavoodi, Andijon gidroliz zavodi, Popda rezina teknika buyumlari ishlab chiqarish va boshqalar katta ahamiyatga egadir.

SHuningdek iqtisodiy rayonda engil sanoat va oziq-ovqat sanoati ham yaxshi rivojlangan. Yirik markazlari Namangan, Marg'ilon, Qo'qon va boshqalar.

Farg'ona iqtisodiy rayoni eng yirik qishloq xo'jalik mintaqasi hamdir. Uning asosini dehqonchilik tashkil etadi. Sug'oriladigan yerlarda paxtachilik bilan shug'ullanishadi. YOrdamchi tarmoq esa bug'doy etishtirishdan iborat. Bog'dorchilik va uzumchilik ham yaxshi rivojlangan. Ayniqsa Quva anorlari, Namangan olmalari, Oltiariq turpi va bodringlari juda mashhur. Keyingi paytlarda issiqxonalarda limon etishtirish rivojlanmoqda.

Mintaqada chorvachilik dehqonchilikka nisbatan ancha sust rivojlangan. Tog' yaylovlari qo'shni respublikalar hududiga to'g'ri keladi. qoramolchilik ham rivojlanib bormoqda.

Mintaqa transporti ham yaxshi rivojlangan. Vodiy bo'ylab yirik shaharlarni tutashtiruvchi halqa yo'li qurilgan. Bu yerdagi Toshkent-Namangan-Andijon, Toshkent-Marg'ilon-Andijon, Bishkek-Jalolobod temir yo'llari yuk va yo'lovchi tashishda katta ahamiyatga ega. Barcha yirik shaharlardan Toshkent shahriga havo yo'li ochilgan.

SAMARQAND IQTISODIY RAYONI.

Iqtisodiy rayon Samarqand viloyatidan iborat bo'lib, uning maydoni 16,8 ming km kv, aholisi 2,7 million kishi. Mintaqa respublika hududining 3 foizini, aholisining esa 10,7 foizini tashkil etadi. Iqtisodiy rayon respublikaning markaziy qismida Zarafshon vodiysida joylashgan.

Tabiiy sharoiti o'ziga xos. SHimolda Nurota, shimoliy sharqda Turkiston, sharqda va janubiy sharqda esa Zarafshon tizma tog'lari biyo'lan o'ralgan. Respublikada eng ko'pyog'in miqdorda shu yerga tushadi (900 mm). Tabiiy resurslarga ancha boy. Bu yerda rangli metallar, marmar, ohaktosh, kyeramzit va boshqalar uchraydi.

Mintaqada aholi zichligi nisbatan yuqori bo'lib, 1 km kv ga 100 kishi to'g'ri keladi. Aholining milliy tarkibida o'zbeklar, tojiklar ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari ruslar, evreylar, eroniylar, tatarlar, ozarbayjonlar va boshqalar ham istiqomat qilishadi. Aholisining 28 foizi shaharlarda yashaydi. Mintaqada 11 ta shahar va 12 ta shaharcha bor. Iqtisodiyotning turli sohalarida 33,8 foiz aholisi band.

Iqtisodiy rayon xo'jaligida sanoat etakchi o'rinda bo'lib, tog'-kon, mashinasozlik, kimyo, engil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Samarqand shahri (aholisi 363 ming kishi. 2002 yil)eng qadimiy shaharlardan biridir. Tarixiy va me'morchilik yodgorliklari ko'pbo'lganligi sababli jahonning ko'plab mamlakatlaridan turitslarni o'ziga jalb qiladi. Ayniqsa Ulug'bek, Tillakori, SHyerdor madrasalari, Ulug'bek rasadxonasi, Go'ri Amir, Bibixonim machiti va boshqalar juda mashhurdir.

SHaharda ko'plab mashinasozlik korxonalari qurilgan. «Krasniy dvigatel. Kinap», Liftsozlik, «Sino» sovutgichlari ishlab chiqarish zavodlari ishlab turibdi. Mintaqa respublikaning ikkinchi avtomobil markazi hamdir. Bu yerda Turkiya bilan hamkorlikda «Samkochavto» qo'shma korxonasi qurilib, mikroavtobuslar (O'zOTOyo'l) ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Kimyo sanoatida Samarqand supyerfosfat zavodi etakchi o'rinda turadi.

Iqtisodiy rayonda engil sanoat yaxshi rivojlangan.Yirik paxta tozalash zavodlari, shoyi lgazlama ishlab chiqarish, chinni zavodi va boshqalar katta ahamiyatga ega. Respublika trikotaj buyumlarining 20 foizi shu mintaqaga to'g'ri keladi.

Oziq-ovqat sanoati mahalliy xom-ashyolar asosida ishlaydi. Konsyerva, o'simlik moyi, tamaki, choy qadoqlash, broylyer korxonasi yaxshi rivojlangan.

Mintaqada qishloq xo'jaligi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hududning katta qismi sug'orilib dehqonchilik qilishga yaroqli. Asosan paxtachilik rivojlangan. Bundan tashqari texnika ekinlaridan zig'ir, kunjut, maxsar kabilar ekiladi. Urgut respublikaning tamaki etishtirishga ixtisoslashgan tumanidir.

Paxta bilan almashlab makkajo'xori, bug'doy ekiladi. Lalmikor yerlarda bug'doy, arpa etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. SHuningdek mintaqada sabzavot (16%), ayniqsa kartoshka ko'plab etishtiriladi. Kartoshka etishtirish bo'yicha respublikada (23%) birinchi o'rinda turadi.

SHu bilan birga bog'lar va uzumzorlar ko'p. Mayiz etishtirish bo'yicha ham respublikada oldingi o'rinlarda turadi.

Iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligida chorvachilik ham katta ahamiyatga ega. qoramollarning umumiy soni bo'yicha birinchi o'rindadir. qoramollar barcha hududlarda boqiladi. Rayonda qo'ychilik, qorako'lchilik ham yaxshi rivojlangan. qorako'lchilik bo'yicha Buxoro-Navoiy va Qashqadaryo iqtisodiy rayonlaridan so'ng uchinchi o'rinda turadi. Narpay tumani qorako'lchilikka ixtisoslashgan.

SHuningdek pillachilik ham yaxshi rivojlangan bo'lib, Farg'ona va Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayonlaridan keyinda turadi. Mintaqada cho'chqachilik va parrandachilik ham rivojlanib bormoqda.

Rayon xo'jaligi bundan keyin ham rivojlanib boravayeradi. Samarqand hozirgi paytda yirik ilm-fan, transport va rekreatsiya markazi hisoblanadi. SHahar aeroporti xalqaro aeroport maqomiga ega bo'lib, MDH davlatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan havo yo'li orqali bog'langan.

BUXORO-NAVOIY IQTISODIY RAYONI.

Iqtisodiy rayon Buxoro va Navoiy viloyatlaridan iborat. Uning maydoni 153,3 ming km². Aholisi 2,2 mln kishi (2002 yil). Iqtisodiy rayon respublika hududining 34% ni tashkil etgani holda, aholisi atigi 8,1% ga to'g'ri keladi.

Mintaqa hududi asosan tekisliklardan iborat (90%). Faqatgina uning sharqiy qismida Nurota tog'lari, Markaziy qismlarida esa qadimgi qoldiq tog'lar (Bo'kantog', Tomditog', Ovminzatog' va boshqalar) joylashgan.

Iqtisodiy rayon foydali qazilmalarga boy. Ayniqsa tabiiy gaz, rangli metallar, mineral tuzlar, qurilish matyeriallari katta ahamiyatga egadir.

Mintaqa eaholisi juda notekis joylashgan. O'rtacha zichligi 1km² ga 10-12 kishini tashkil etgani holda, sug'oriladigan yerlarda bu ko'rsatkich 45-50 kishi bo'lsa, cho'llarda 2-3 kishiga to'g'ri keladi. Jami aholining 41,2 foizi iqtisodiy faol aholi hisoblanadi.

Urbanizatsiya darajasi nisbatan yuqori. Bu yerda jami aholisining 35 % ga yaqini shaharda yashaydi. Yirik shaharlari Buxoro (240 ming), Navoiy (141 ming) Zarafshon, Uchquduq.

Aholining milliy tarkibi xilma-xil. Jami aholining 74% o'zbeklar, bundan tadshqari ruslar, tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, ukrainlar va boshqa millat vakillari tashkil etadi. O'zbeklar barcha hududlarda, ruslar va ukrainlar sanoat

Iqtisodiy rayon xo'jaligi qadimdan yaxshi taraqqiy etgan. Hozirgi kunga kelib zamonaviy sanoat tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Mintaqa elektroenergetika. Rangdor metallurgiya, kimyo sanoati, qurilish matyeriallari, engil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari etakchi o'rinda turadi.

Iqtisodiy rayon respublika elektroenergiyasining 18% ga yaqinini ishlab chiqaradi. Bu yerda eng yirik GRESlardan biri Navoiy GRESI ishlab turibdi. Gaz sanoati ham yaxshi rivojlangan. YAqin vaqtlargacha respublikada etakchi o'rinni egallab kelgan bo'lsa, hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Iqtisodiy rayonning eng rivojlangan sanoat tarmog'i rangdor metallurgiyadir. Bu yerda respublikaning asosiy oltin zahirasi to'plangan. Yirik oltin konlari asosida (Muruntov, Ko'kpotas) Zarafshon, Uchquduq shaharlari rivojlandi.

Kimyo sanoati o'ziga xos ahamiyatga ega. Uning asosiy markazi Navoiy shahri hisoblanadi.

Mintaqada neft sanoati ham rivojlanib bormoqda. qorovulbozor neftni qayta ishlalsh zavodining qurilishi Respublikaning neft mustaqilligiga erishishiga katta hissa qo'shdi. Iqtisodiy rayonda ko'plab xorijiy davlatlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Ulardan asosiylari Buxoro – Omega (O'zbekiston – Gretsiya), Zarafshon-Nyuyumond (O'zbekiston-AQSH) va

boshqalardir. SHuningdek mintaqada engil va oziq-ovqat sanoati ham yaxshi rivojlangan. Ular asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan.

Iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligida dehqonchilik va qorako'lchilik etakchi o'rinda turadi. Dehqonchilikda paxtachilik yaxshi rivojlangan. Ingichka tolali paxta etishtirish katta ahamiyatga ega. Paxta bilan almashlab makkajo'xori, bug'doy ekiladi. Bahorikor yerlarda bug'doy. Arpa etishtirish va bog'dorchilik bilan shug'ullanilshadi. SHuningdek mintaqada poliz ekinlari ko'plab ekiladi.

Mintaqa hududining katta qismi cho'llardan iborat. SHu sababli cho'l yaylov chorvachiligi bo'yicha etakchidir. Bu yerda respublikaning asosiy qorako'l qo'ylari, tuyalari boqiladi. Yniqsa tuyachilik Tomdi tumanida yaxshi rivojlangan.

Qorako'l tyerilari ishlab chiqarish uchun mintaqada Buxoro-Omega (O'zbekiston-Gretsiya) qo'shma korxonasi tashkil etilgan. Bu yerda har yili 700 mingga yaqin turli sifatli qorako'l tyerilari ishlab chiqariladi.

Iqtisodiy rayon hududidan yirik temir yo'l, avtomobil va quvur transportlari o'tkazilgan. YAngi qurilgan Uchquduq - Sulton Uvays temir yo'li mintaq xo'jaligining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

QASHQADARYO IQTISODIY RAYONI.

Iqtisodiy rayon Qashqadaryo viloyatidan iborat. Uning maydoni 28,6 ming km kv. aholisi 2 mln 57 ming kishi (2002). U respublika hududining 6,3% ni, aholisining esa 10% ga yaqinini tashkil etadi.

Mintaqa O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan. Uning hududida ko'plab mineral resurslar topilgan. Ayniqsa tabiiy gaz zahiralari ko'p. Ularning yirik konlari Ko'kdumaloq, Muborak, Zevordi, SHo'rtan va boshqalardir. Gaz qazib chiqarish bo'yicha respublikada birinchi o'rinda turadi. SHuningdek bu yerda neft, ohaktosh, yonuvchi slanets, mineral tuzlar va boshqa ko'plab qurilish matyeriallari konlari topilgan.

Aholisi tez o'sib bormoqda. Aholi zichligi 1 km kv ga 78 kishidan to'g'ri keladi. Kitob-SHahrisabz botig'ida esa eng yuqori 250-300 kishi to'g'ri kelsa, cho'llar va baland tog'larda 2-3 kishini tashkil etadi. Aholining milliy tarkibida o'zbeklar ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari ruslar, tojiklar, tatarlar, turkmanlar va boshqa millatlar yashashadi.

Urbanizatsiya darajasi uncha yuqori emas. Jami aholining 23% shaharlarda yashaydi. Asosiy shaharlari kichik shaharlardir. Eng yirigi Qarshi shahri (207 ming kishi) va SHahrisabz (89 ming kishi). Mintaqa aholisining 32,1% iqtisodiy faol aholi hisoblanadi.

Iqtisodiy rayon xo'jaligida sanoat alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa gaz sanoati yaxshi rivojlangan. Hozirgi paytda Respublikadagi eng yirik gaz konlari iqtisodiy rayon hududida joylashgan. Gaz faqat yoqilg'i bo'libgina qolmay kimyo sanoatida qimmatli xom-ashyo hamdir. Bu yerda Muborak gaz-kimyo majmuasi, SHo'rtan gaz-kimyo majmualari shakllangan.

Engil sanoat iqtisodiy rayonning etakchi tarmog'i hisoblanadi. SHahrisabz, Kitob, YAKkabog', Qarshi shaharlarida yirik paxta tozalash zavodlari ishlab turibdi. SHuningdek SHahrisabzda yirik pillakashlik fabrikasi, «Hujum» badiiy buyumlar fabrikalarida ipak kalavalar, paloslar, do'ppi va boshqa milliy buyumlar ishlab chiqarilmoqda.

Iqtisodiy rayonda oziq-ovqat sanoati ham yaxshi rivojlangan. Rayonda paxta yog'i, go'sht-sut, sharob, konsyerva, qandolat va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Qurilish matyeriallari sanoati rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Mintaqa qishloq xo'jaligida dehqonchilik etakchi o'rinda turadi. Paxtachilik ixtisoslashgan tarmoqlardan biri bo'lib, ingichka tolali paxta etishtirish bo'yicha Surxondaryo iqtisodiy rayonidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Qishloq xo'jaligida don etishtirish muhim ahamiyatga ega. Sug'oriladigan yerlarda paxta bilan almashlab makkajo'xori, bug'doy ekiladi. Lalmikor yerlarda esa bug'doy, arpa ko'plab etishtiriladi.

Mintaqada bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan.

Iqtisodiy rayondagi uzum, anjir, anorlari o'zining shiraliligi bilan ajralib turadi. Bu yerda anor etishtirishga ixtisoslashgan «Varganza» xo'jaligi joylashgan.

Dehqonchilikdan tashqari chorvachilik ham katta ahamiyatga egadir. CHo'l mintaqalarida qorako'lchilik, adir-tog' mintaqalarida esa qo'y va echkichilik, barcha mintaqalarda qoramolchilik yaxshi rivojlangan. Keyingi paytlarda yilqichilik rivojlanib bormoqda. Mintaqada respublikaning 23% qorako'l tyerisi, 17% ga yaqin juni tayyorlanadi.

Rayon xo'jaligining rivojlanishida transport katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa temir yo'l transporti, quvur va avtomobil transportlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. YAngi qurilgan G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li Surxondaryo viloyati bilan aloqani yaxshiladi.

SURXONDARYO IQTISODIY RAYONI.

Surxondaryo iqtisodiy rayoni ma'muriy jihatdan Surxondaryo viloyatidan iborat. Surxondaryo O'zbekistonning eng janubida joylashgan. U 3 ta tomondan xorijiy mamlakatlar bilan o'ralgan. SHarqda Tojikiston Respublikasi, g'arb va shimoli-g'arbda Turkmaniston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati, janubda esa Afg'oniston bilan chegaradosh.

Maydoni 20,1 ming km kv. Aholisi 1800 ming kishi. Minvtqa Respublika hududining 4,6% ni, aholisining esa 7,2% ni tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km kv ga 89 kishiga to'g'ri keladi.

Surxondaryo viloyati Surxon-SHYerobod vodiysida joylashgan. Mintaqaning hududi uncha katta bo'lmasa ham tabiiy sharoiti boshqa rayonlardan keskin farq qiladi. Relefi shimoldan janubga tomon pasayib boradi. Iqlimi quruq subtropik. Surxondaryo shimol, g'arb va sharq tomonlardan tog'lar bilan o'ralgan. Bu yerda O'zbekistonning eng baland nuqtasi Hazrat Sulton cho'qqisi (4626 m) joylashgan. YOg'in miqdori 150 mm dan 600 mm gacha tushadi. Tekisliklarda sug'orib, tog' yonbag'irlarida lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullanishadi.

Mineral resurslarga ancha boy. Ayniqsa neft, gaz, toshko'mir, mineral tuzlar, oltingugurt hamda mineral tuzlar ko'plab topilgan. Yirik neft va gaz konlari Xovdog', Uchqizil, Ko'kaydi, Lalmikor va b. Boysun va SHarg'un konlarida toshko'mir, Xo'jaipokda tuz qazib olinadi.

Mintaqa mineral resurslariga boyligi sababli tog'-kon, rangdor metallurgiya, enyergetika, kimyo, qurilish matyeriallari sanoatini rivojlantirilsh imkoniyatlari mavjud.

Aholisi tabiiy o'sish hisobiga ortib bormoqda. Aholi milliy tarkibida o'zbeklar ko'pchilikni tashkil etadi. YA'ni 82% o'zbeklar, 1,5% ruslar, 1,7% tojiklar. Bulardan tashqari turkmanlar tatarlar va boshqa millatlar yashaydi.

Surxondaryo iqtisodiy rayoni shahar aholisi eng kam % ni tashkil etadigan rayondir. Jami aholining 20% ga yaqini shaharlarda yashaydi. Eng yirik shaharlari Tyermiz (117 ming kishi), Denov (66,1 ming kishi) bundan tashqari tumanga bo'ysinuvchi 6 ta shahar bor.

Mintaqa xo'jaligida qishloq xo'jaligi etakchi o'rinda turadi. Iqlimi issiq bo'lganligi sababli ingichka tolali paxta, shakarqamish kabi issiqsevar o'simliklar etishtiriladi. SHuningdek mintaqada anjir, anor, pitsa, bodom, xurmo kabi o'simshliklar etishtiriladi. Surxondaryoning Angor, Jarqo'rg'on, qumqo'rg'on, Tyermiz, SHyerobod tumanlari ingichka tolali paxta etishtirishga ixtisoslashgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin don etishtirishga ham katta e'tibor byerilmoqda. Mintaqada 1 yilda 270,6 ming tonna don etishtirilmoqda, bu respublikada etishtiriladigan hosilning 6,9% ni tashkil etadi.

Surxondaryoda sabzavot va poliz ekinlari etishtirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. 2000 yilda 56,2 ming tonna kartoshka etishtirildi, bu respublikaning 7,6% ga to'g'ri keladi.

CHorvachilik dehqonchilikdan keyin turadi. Ayniqsa mintaqada qorako'lchilik yaxshi rivojlangan. Tog'li mintaqalarda zotdor hisori qo'ylari boqiladi. Aholining sut va sut mahsulotlariga ehtiyojlarini qondirish uchun qoramolchilik ham yaxshi rivojlantirilgan. Keyingi paytlarda parrandachilik, pillachilik, yilqichilik va boshqalar ham rivojlantirilmoqda. Mintaqa sanoatining asosini yoqilg'i enyergetika, qurilish matyeriallari, engil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari tashkil etadi. Mashinasozlik sanoati mintaqada juda sust rivojlangan.

YOqilg'i-enyergetika sanoati 1950 yildan boshlab, mintaqada neft, gaz ko'mir konlarining ishga tushishi bilan rivojlandi. Mintaqada ayniqsa neft qazib chiqarish yildan yilga ortib bormoqda. SHuningdek gaz va ko'mir qazib chiqarish ham ortib bormoqda.

Surxondaryoda qurilish matyeriallari va kimyo sanoatini rivojlantirishga imkoniyatlar etarli.

Mintaqada qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi engil va oziq-ovqat sanoati yaxshi rivojlangan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng viloyatda ip gazlama, trikotaj, tikuvchilik, poyafzal, gilam to'qish va boshqalar rivojlantirilmoqda. SHu bilan birga oziq-ovqat mahsulotlari, un va un mahsulotlari, yog', sut va sut mahsulotlari, sharbatlar, meva va uzum konsyervlari ishlab chiqarilishi o'smoqda. Mintaqa tashqi iqtisodiy aloqasini rivojlantirish uchun barcha tabiiy va iqtisodiy omillar etarli. SHu sababli bu yerda Hindiston, Tojikiston va boshqa mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Viloyat hududidan avtomobil, temir va havo yo'llari o'tkazilgan. Hozirgi kunda Surxondaryo-Qashqadaryo viloyatlari o'rtasida G'uzor-Boysun temir yo'li qurilgan. Bu yo'lning qurilishi Surxondaryoni respublika poytaxti bilan qilinadigan aloqasini ancha qisqartiradi.

QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONI.

Iqtisodiy rayon Qoraqalpog'iston respublikasi va Xorazm viloyatidan iborat. Maydoni: 172,7 ming km², aholisi 2,9 mln. kishi. Iqtisodiy rayon respublika hududining deyarli 38% ga yaqinini tashkil etgan holda aholisining atigi 10% to'g'ri keladi. Rayon respublikaning eng chekka g'arbida joylashgan. Relefi tekisliklardan iborat. Har joy har joyda qirlar va qoldiq tog'lar uchraydi. Foydali qazilmalardan qurilish matyeriallari ko'p tarqalgan. Bundan tashqari Ustyurtda tabiiy gaz konlari tarqalgan. Sulton Uvays tog'ida fosforit, temir rudasi, mineral tuzlar va hakovzolar uchraydi.

Aholi mintaqada hududida notekis joylashgan. Xorazm viloyatida aholi zichligi 1 km² ga 175 kishi to'g'ri kelgani holda Qoraqalpog'iston respublikasida 8 kishini tashkil etadi. Aholi o'rtacha zichligi 10-12 kishiga to'g'ri keladi. Qoraqalpog'iston respublikasi urbanizatsiya darajasi nisbatan yuqori bo'lib, jami aholining 37,1% shaharlarda yashaydi. Bu ko'rsatkich Xorazm viloyatida 23,4% ga tushib qoladi.

Yirik shaharlari Nukus (214 ming kishi), Urganch (138 ming kishi), Xo'jayli (70 ming kishi) va boshqalar. Bu shaharlar mintaqaning yirik sanoat va transport markazlari hamdir.

Aholining milliy tarkibida o'zbeklar ko'pchilikni tashkil etadi. 50% ga yaqin o'zbeklar, 20% qoraqalpoqlar, 10% qozoqlar tashkil etadi. Bundan tashqari turkmanlar, ruslar, koreyslar, tatarlar, ukrainlar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Jami aholisining 32,7% iqtisodiy faol aholi hisoblanadi.

Mintaqa xo'jaligida qishloq xo'jaligi etakchi tarmoq hisoblanadi. Ayniqsa, dehqonchilik yaxshi rivojlangan bo'lib, qishloq xo'jalik mahsulotining 75% ga yaqinini byeradi. Dehqonchilikning asosini paxtachilik, sholikorlik, sabzavotchilik va poliz ekinlari etishtirish tashkil etadi. Qoraqalpog'iston respublikasi jahonda eng shimolda paxta etishtiradigan yagona hudud hisoblanadi.

Mintaqa O'zbekistonning asosiy sholikorlik rayoni hamdir. SHuningdek, beda etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Urug'lik beda etishtirish bo'yicha 1-o'rinda turadi. Xorazm qovunlari qadimdan mashhur. Aksincha bu mintaqada bog'dorchilik va uzumchilik yaxshi rivojlanmagan.

Iqtisodiy rayonda chorvachilik ham katta ahamiyatga ega. qoramolchilik boshqa iqtisodiy rayonlarga nisbatan yaxshi rivojlangan bo'lib, bu yerda respublika 15% qoramollari boqiladi. Bundan tashqari yilqichilik, tuyachilik, qorako'lchilik ham ancha taraqqiy etgan. Keyingi paytlarda Amudaryo to'qaylarida parrandachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat byerilayapti. Bu yerlarda suvsar, nutriya, norka, qoratulki kabi hayvonlar boqilmoqda.

Mintaqa xo'jaligida sanoat ham rivojlanib borayapti. Ayniqsa, sanoat Qoraqalpog'iston respublikasida yaxshi rivojlangan. Asosiy sanoat tarmoqlari engil va oziq-ovqat sanoatlaridir. Mintaqada ko'plab paxta tozalash zavodlari ishlab turibdi. Nukus, Ellikqal'ada to'qimachilik kombinatlari, Xivada gilam to'qish yaxshi rivojlangan.

Rayon oziq-ovqat sanoat korxonalarida paxta yog'i, sholi oqlash, sut, konsyerva ishlab chiqarish rivojlangan.

Qurilish matyeriallari sanoati, elektroenergiya ishlab chiqarish hali to'liq rivojlanmagan. Kelgusida bu tarmoqlarni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

QIRG'IZISTON RESPUBLIKASI.

Reja:

1. Geografik o'rni, tabiiy sharoiti va boyliklari.
2. Aholisi. Jinsiy yosh va milliy tarkibi.
3. Xo'jaligi, xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlari.
4. Ichki tafovutlari.

GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY SHAROITI VA BOYLIKLARI.

Qirg'iziston respublikasi Markaziy Osiyo davlatlarining sharqiy qismida joylashgan. Uning maydoni 198,5 ming km² bo'lib, mintaqa davlatlari orasida 4 o'rinda turadi.

Aholisi 4,8 mln kishi. Aholi zichligi 1 km² ga 24 kishi to'g'ri keladi. U Markaziy Osiyo davlatlarining 4,9% hududini, 8% aholisini tashkil etadi. Poytaxti Bishkek shahri.

Respublika shimolida Qozog'iston, g'arbida O'zbekiston, janubiy g'arbda Tojikiston, janubi va sharqida Xitoy bilan chegaradosh. Ma'muriy jihatdan 6 qismga bo'linadi.

Qirg'iziston respublikasi tog'li respublika sifatida ajralib turadi. Bu yerda Tyanshan va Pomir-Oloy tog' sistemasidagi tog' tizmalari joylashgan. Balandligi 7 ming metr dan ortadigan (G'alaba 7439 m), cho'qqilari ko'p. YUksak tog' zanjirlarining cho'qqilari abadiy qor va muzliklar bilan qoplangan. Respublika hududining 1/3 qismi dengiz sathidan 3 ming m va undan balandda joylashgan. Hududining yarmiga yaqini 1000-3000 m balandda joylashgan. Tog' vodiylari va yaylovlar xalq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga ega. Hududining 30% ga yaqinini o'rmonlar tashkil etadi.

Qirg'iziston tog'lari Markaziy Osiyo davlatlari uchun katta ahamiyatga ega. G'arbdan keladigan nam havo massalarini to'sib, ko'plab yog'in yog'ishiga sabab bo'ladi. YOg'inlarning bir qismi yer ostiga singib ketadi, bir qismi esa Norin, CHuv, Talas havzalari daryolari to'yinishiga sabab bo'ladi. respublika hududida O'rta Osiyoning 50% suv oqimi hosil bo'lgani holda, uning 1/5 qismi sug'orishga sarf bo'ladi, qolgan qismi esa qo'shni O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston respublikalarida ishlatiladi.

Daryolarining asosiy qismi tog' daryolari bo'lganligi uchun sug'orish va gidroEnergetika sifatida katta ahamiyatga ega. Gidrogenetika resurslari bo'yicha MDH da Rossiya va Tojikistondan keyin 3 o'rinda turadi. (Norin kaskadlari).

Iqlimi quruq, keskin kontinental. YOg'in miqdori 100-120 mm dan ayrim joylarda 700-1000 mm gacha tushadi.

Tabiat Respublika hududida ko'plab go'zal manzaralarni yaratgan. Bulardan asosiylari Issiqko'l bo'lib, jahonda baland tog'dagi eng katta va chuqur ko'llardan biri hisoblanadi. Respublika hududida O'rta Osiyoda kattaligi bo'yicha 2 o'rinda turadigan Inilchek muzligi joylashgan. Uning uzunligi 60 km dan ham ortiq. Tog'lardagi daryolar daralari chiroyliligi bilan ajralib turadi. Respublikada davlat muhofazasiga olingan hududlar bo'lib, ularda Issiqko'l, Sarichelak, Beshorol kabi qo'riqxonalar tashkil etilgan.

Respublikada ko'plab foydali qazilma konlari topilgan. Yirik oltin konlari (Issiqko'l viloyatida) surma va simob (qadamjoy, Haydarkent) rudalari, toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir konlari (Toshko'mir, O'zgan, Ko'kyong'oq), volfram (Moylisoy) hamda Farg'ona vodiysida qisman kneft va gaz konlari topilgan. Rangdor metadllurgiya Qirg'izistonning ixtisoslashgan tarmoqlaridan biridir.

AHOLISI.

Respublikaning aholisi 4,8 mln kishi bo'lib, aholining milliy tarkibida qirg'izlar ko'pchilikni tashkil etadi (60% dan ortiq). Respublika ham shu millat nomi bilan ataladi. Inqilobgacha ular qoraqirg'izlar deb atalgan.

Qirg'iziston aholisi dinamikasi.

yillar	Jami aholisi Ming kishi	SHu jumladan shahar aholisi Ming kishi	%
1913 yil (yil oxiri)	863,9	105,8	12,3
1926 yil	1001,7	122,3	12,2
1939 yil	1458,5	270,1	18,5
1959 yil	2066,1	696,2	33,7
1970 yil	2933,2	1097,5	37,4
1979 yil	3529	1366,3	38,4
1989 yil	4290,5	1640,9	38,2
1999 yil	4850,7	1713,8	35,3

Manba: «Naselenie i Obshestvo» ma'lumotlari. 2001 yil.

Aholisi milliy tarkibi bo'yicha ayrim rayonlari bir-biridan farq qiladi. Farg'ona vodiysining O'sh viloyati sug'oriladigan yerlarida o'zbeklar istiqomat qilishadi. Ruslar, ukrainlar asosan CHuy vodiysida hamda Issiqko'l bo'ylarida, qozoqlar esa Tolos vodiysida yashashadi. Bundan tashqari tatarlar, uyg'urlar, tojiklar, dunganlar, nemislar va boshqalar yashashadi.

Milliy tarkiblar bo'yicha eng yuqori o'sish qirg'izlarda kuzatilgan, ya'ni 1979 yil aholi ro'yxati bo'yicha 1687 ming qirg'izlar yashagan bo'lsa, 1989 yilda 2230 ming kishi, 1999 yil ma'lumoti bo'yircha esa 3128 ming kishini, yoki jami aholining 64,9% ni tashkil etgan, yoki 1979 yilda 25,9% dan 1999 yilda 12,5 % ga tushib qolgan. SHuningdek nemis, tatar, ukrain millatlariga mansub aholi sonining kamayishi ham kuzatilgan. Respublikada urbanizatsiya darajasi mustaqillik yillarida nisbatan pasaydi.

XO'JALIGI.

Qirg'iziston xo'jaligi O'rta Osiyodavlatlari xo'jaligidan farq qiladi. Respublikada mashinasozlik sanoati ayniqsa ko'pmehnat talab qiladigan elektronika, radiotexnika, priborsozlik hamda qishloq xo'jalik malshihnasozligi yaxshi rivojlangan. Bishkekdagi avtoyig'uv va fizika priborlari zavodlari, «qirg'izkabel», qirg'izelektrodvigatel», Moylisoy lampa zavodi va boshqalar yirik korxonalar hisoblanadi.

Respublika sanoati mahalliy yoqilg'i va mineral xom-ashyolar asosida rivojlanib bormoqda. Sanoat korxonalarining 2/3 qismi Bishkek, O'sh, To'qmoq, Jalolobod shaharlarida joylashgan. Oxirgi yillarda sanoatni kompleks rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Kichik va o'rta shaharlarda ham bir qancha yangi sanoat korxonalari tashkil etilmoqda. Prjevalsk, Norin, Ribachye, Qorabolta, Toshko'mir, Qizilqiya va boshqa ko'plab shaharlar va qishloqlar shular jumlasidandir. Qirg'iziston O'rta Osiyoda surma, simob, o'ruv-yig'uv mashinlarini ishlab chiqarish, jun gazlamalar ishlab chiqarish, hayvon yog'i va boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha alohida o'rinda turadi.

Mehnat resurslarining ortib borishi Respublikada mehnat resurslarini ko'p talab qiluvchi mashinasozlik tarmoqlarini rivojlantirishga imkon yaratdi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

hajmi bo'yicha mashinasozlik etakchi tarmoqlardan (30%) biridir. Mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublika mintaqa davlatlari orasida etakchi o'rinlarda turadi.

Respublika mashinasozlik korxonalarida xilma-xil mahsulotlar – metall qiruvchi stanoklar, qishloq xo'jalik mashinalari, avtosamosvallar, elektr mashinalari va elektrodvigatellar, fizik o'lchov asboblari, elektron hisoblash mashinalari, elektronasoslar, kir yuvish mashinalari, elektr lampalari va boshqalar ishlab chiqariladi. Bu mahsulotlar respublika ehtiyojidan tashqi ko'plab xorijiy mamlakatlar ga eksport qilinadi.

Mamlakatda rangdor metallurgiya sanoati ham yaxshi rivojlangan. 1970 yillarda Janubiy G'arbiy Qirg'izistonda tog' metallurgiya kombinati qurilgan. Kombinatda surma mahsulotlari ishlab chiqariladi. (Surma qazib olish bo'yicha MDH da 1-o'rin). SHuningdek janubi-g'arbiy Qirg'izistonda Haydarkent to'la tsikli simob zavodi ishga tushirilgan. Bu yerda qazib olishdan tortib simob ishlab chiqarishgacha yo'lga qo'yilgan.

Urushdan keyingi yillarda CHuy vodiysining sharqiy qismlarida ham rangdor metallurgiya sanoati rivojlandi. Bu yerda qalay qazib oladigan va boyitadigan tog'-boyitish kombinati ishga tushirilgan. Respublika huududida topilgan oltin va ruh rudalari kombinatlari talshkil etilgan.

Qirg'iziston iqtisodiyotining etakchi tarmoqlaridan biri engil sanoatdir. (Bu tarmoqda respublikaning 1/4 qism ishlab chiqarish kuchlari band). Ayniqsa to'qimachilik, tikuvchilik, charm-mo'yna, poyafzal ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Engil sanoat uchun xom-ashyo respublikaning o'zida tayyorlanadi (paxta, jun, tyeri, ipak va boshqalar). Qirg'izistonda tayyorlanadigan engil sanoat mahsulotlari qo'shni respublikalarga eksport qilinadi.

Respublikadagi yirik engil sanoat korxonalaridan O'sh paxtani qayta ishlash kombinati, To'qmoq jun qayta ishlash fabrikalari bo'lib, bular asosiy mahsulotlarni ishlab chiqaradi.

Oziq-ovqat sanoati asosini un va un mahsulotlari, non kombinatlari, kondityer, qand-shakar, vinochilik, sut, go'sht, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish tashkil etadi. Bu tarmoqlar respublikaning barcha hududlarida rivojlangan. Respublika qo'shni mamlakatlarga qand-shakar, o'simlik moyi, tamaki mahsulotlarini sotadi.

Og'ir sanoat tarmoqlari orasida ko'mir sanoati ham etakchi o'rinda turadi. Ko'mir respublikada uncha katta bo'lmagan, qadimdan taniqli bo'lgan Qizilqiya, Sulyukta, Ko'kyong'oq, Toshko'mir kabi konlardan qazib olinadi. Katta ahamiyatga ega bo'lgan konlardan Qovoq va O'zgen ko'mir havzalari bo'lib, ulardan kokslanuvchi toshko'mir ochiq usulda qazib olinadi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida qurilish matyeriallari sanoati ham o'ziga xos o'rinda turadi. Sanoat korxonalari, uy-joy, yo'llar qurilishi uchun xizmat ko'rsatadigan temir-beton kombinatlari, uy-qurilish kombintlari, tsement, oyna, marmar, granit ishlab chiqarish zavodlari bunyod qilingan.

Respublika qishloq xo'jaligi ham yaxshi rivojlangan. qishloq xo'jaligi ko'ptarmoqli, mexanizatsiyalashgan tarmoqlardan bo'lib, chorvachilikka ixtisoslashgan. Ayniqsa qo'ychilik etakchi tarmoq hisoblanadi. Qirg'iziston jun etishtirish bo'yicha O'rta Osiyoda etakchi o'rinlarda turadi.

Respublikada 1,3 mln. ga haydaladigan yerlar (1mln. ga sug'oriladigan yerlar) va 10 mln gektarga yaqin tog' va tog' olid yaylovlari mavjud.

Qirg'iziston tog'lari va tog' oldi yaylovlarida yaylov chorvachiligi rivojlangan. Bu yerlarda arzon go'sht va mayin yunglar tayyorlanadi. Daryo vodiylari va tog' oralig'i botiqlarida sug'orib dehqonchilik qilish rivojlangan.

Respublika sug'oriladigan yerlarida 85-90% dehqonchilik mahsulotlari tayyorlanadi. Bu yerlarda asosan qimmatbaho texnik ekinlar hamda chorvachilik uchun em-xashak mahsulotlari ekiladi. Keyingi yillarda tamaki etishtirish rivojlanib bormoqda.

Sug'orishni yaxshilash maqsadida bir qancha kanallar va suv omborlari bunyod etilgan. Ayniqsa CHuy kanali, Toxtog'ul, Kirov, Nayman, Norin kabi suv omborlari sug'orishda katta ahamiyatga egadir. Qirg'iziston agroiklim resurslari o'ziga xos va xilma-xildir. Janubiy Qirg'izistonda respublikaning asosiy paxta ekiladigan maydonlari joylashgan.

Farg'ona va Talas vodiylari tog' yonbag'irlarida yuqori sifatli sariq tamaki etishtiriladi. O'sh viloyatining janubi-g'arbiy qismlari uzumchilik, bog'dorchilik, anor kabi o'simliklar etishtirish uchun qulay. CHuy vodiysida pista, uzum, qand lavlagi etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Issiqko'l bo'ylarida esa olma, shaftoli, qora smorodina, malina kabi o'simliklar ekiladi.

So'nggi yillarda chorvachilik yana ham rivojlanib bormoqda. Jumladan mayin yungli qo'ychilik sut va go'sht chorvachiligi, cho'chqachilik, broilyer jo'jachiligi, parrandachilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yildan yilga qo'y va echkilar soni ortib bormoqda. Mahalliy seleksionerlar yordamida yangi qo'y zotlari yaratilgan. Jumladan qirg'iz mayin yungli qo'ylari, Tyan-SHan yarim mayin yungli, Oloy dag'al yungli, Olatov yirik shoxli qoramollari, yangi zotdor qirg'iz otlari shular jumlasidandir.

Respublikada barcha zamonaviy transport turlari mavjud. Tashqi iqtisodiy aloqalar olib borishda temir yo'l transporti etakchi o'rinda turadi. Temir yo'l transportining asosiy markazlari SHimoliy Qirg'iziston va Janubiy Qirg'iziston hisoblanadi. Tog'li respublika bo'lganligi sababli mamlakat ichki aloqalarini olib borishda avtomobil transporti katta ahamiyatga ega. Avtomagistrallar orqali CHuy vodiysi – Tolos vodiysi, Issiqko'l, Norin viloyatlari hamda O'sh viloyatlari bilan bog'langan. Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 35 ming km dan ortadi. Yirik avtomobil traktlari Bishkek-Ribache-Norin-Torugart-O'sh-Bishkek, O'sh-Gulcha-Syeriton-Xorog, Bishkek-Toshkent, Bishkek-Almati va boshqalar.

Ushbu avtomagistrallar respublikada ichki yuk va passajirlar tashishdagina emas, balki O'rta Osiyo davlatlari hamda Xitoy bilan ham iqtisodiy aloqalar qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Ayrim avtomobil yo'llari tog' yaylovlarigacha cho'zilgan. Iqtisodiy zonalarga ichki havo liniyalari o'tkazilgan. Yirik shaharlar Bishkek, O'sh, CHo'lpon ota va boshqalardan qo'shni respublikalarga to'g'ridan-to'g'ri havo yo'llari ochilgan.

Keyingi yillarda quvur transporti ham rivojlanib bormoqda. Bularda O'zbekistondan olinadigan tabiiy gaz tashiladi. Qirg'izistonda barcha aloqa vositalari ham yaxshi rivojlangan. Hattoki eng uzoq masofada joylashgan vodiylarda ham telegraflar radio, televizor programmalar va boshqalar mavjud.

Qirg'iziston transport tarmoqlari orqali xorijiy davlatlar bilan har tomonlama aloqa qiladi. Ayniqsa O'rta Osiyodavlatblaridan O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston bilan yaxshi aloqalar yo'lga qo'yilgan. Mazkur davlatlar bilan mavjud bo'lgan temir yo'l va avtomobil transportlaridagi aloqa, O'rta Osiyoda yagona transport tizimining yaratilishiga katta imkon byeradi.

Mamlakatdan xorijiy mamlaktlarga ko'mir, rangli va nodir metallar, mashina va dastgohlar, jun, gazlama, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar chiqariladi. O'z navbatida respublika xorijiy mamlakatlardan, ma'lum miqdorda mineral o'g'itlar, neft mahsulotlari, don va boshqa mahsulotlarni sotib oladi.

ICHKI TAFOVUTLARI.

Respublika relefining, iqlimining o'ziga xosligi asosida ettita rayon ajratilgan. Bular o'z navbatida uchta iqtisodiy zonani tashkil etadi. SHimoliy (CHuy, Issiqko'l, Talas), Markaziy (Norin), Janubiy (O'sh, Jalolobod, quyi Norin, Qadamjoy-Haydarkent).

SHIMOLIY QIRG'IZISTON (CHUY, ISSIQKO'L, TALAS VILOYATLARI)

CHuy vodiysi Qirg'izistonning shimolida joylashgan bo'lib, Qozog'iston bilan chegaradosh. Mintaqa tabiiy resurslarga unchalik boy emas. Asosiy boyliklari polimetall rudalari, qurilish matyeriallari va boshqalardir. SHuningdek, bu yerda issiq mineral buloqlar ham topilgan bo'lib, ular asosida Issiq ota kurorti ishga tushirilgan. CHuy vodiysi respublikaning qulay transport geografik o'rnini egallaydi. Uning hududi orqali muhim transport magistrallari – Lugovoy – Bishkek – Ribache temir yo'li, Toshkent-Bishkek-Alamati avtomobil yo'llari o'tkazilgan. CHuy vodiysi respublikaning asosiy sanoat va qishloq xo'jalik mintaqasi hisoblanadi. Asosiy sanoat tarlmoqlaridan mashinasozlikda – fizik priborlar, elektrotexnika

mahsulotlari, qishloq xo'jalik mashinalari, avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. SHuningdek engil va oziq-ovqat va qutqirish materiallari sanoati ham yaxshi rivojlangan. CHuy vodiysi – mamlakatning asosiy sug'oriladigan mintaqasidir. Bu yerda respublika sug'oriladigan yerlarining 1/3 qismi joylashgan. Haydaladigan yerlarda qand lavlagi, don, poliz ekinlari, asbavotlar ekiladi. Don etishtirish bo'yicha CHuy vodiysi etakchi o'rinda turadi. Respublikada etishtiriladigan donning 40% shu yerga to'g'ri keladi. Donli ekinlardan bug'doy ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari tariq, makajo'xori etishtirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bishkek, To'qmoq, qorabolt kabi sanoat markazlari atroflarida sabzavotchilik rivojlangan. CHuy vodiysida respublikaning 60% dan ortiq sabzavotlari etishtiriladi. Bog'dorchilik va uzumchilik ham sug'oriladigan yerlarda joylashgan. Vodiya sut-go'sht chorvachiligi ustun turadi. SHuningdek qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik ham yaxshi rivojlandi.

CHuy vodiysi boshqa rayonlarga nisbatan yuqori darajada urbanizatsiyalashgan. Jami aholisining 55% ga yaqini shaharlarda yashaydi.

Uning hududida respublika aholisining 1/3 qismi istiqomat qiladi. Vodiya aholi zichligi 1 km kv da 75 kishidan ortadi.

Vodiyning markaziy qismida mamlakat poytaxti Bishkek shahri joylashgan. SHaharda xilma-xil sanoat korxonalari qurilgan. Bulardan yirik qishloq xo'jalik mashinasozligi, avtomobil yig'ish, elektron hisoblash mashinasi, charm-poyabzal, trikotaj va boshqa sanoat korxonalari ishlab turibdi.

Bishkek yirik madaniyat markazi hamdir. Bu yerda ko'plab oliy o'quv yurtlari, texnikumlar va umumta'lim maktablari mavjud. SHaharda barcha zamonaviy transport turlari rivojlangan. SHahar o'zining ko'kalamzorligi, zamonaviyligi bilan ajralib turadi. Bishkekdan tashqari vodiya To'qmoq va Qorabolt shaharlari joylashgan.

To'qmoqda yirik korxonalardan to'qimachilik fabrikasi, oyna zavodi, junni qayta ishlash fabrikalari ishlab turibdi. SHuningdek shaharda shakar, sut, go'sht, un va un mahsulotlari, konsyerva ishlab chiqarish va boshqa oziq-ovqat korxonalari bor.

Mashinasozlikning asosini ikkita avtoremont zavodi tashkil qiladi.

Qorabolt shahri Bishkekdan 60 km g'arbda joylashgan yosh shaharlardan biridir. SHahar yirik transport markaziga aylangan. Uning hududidan Bishkek-O'sh, Bishkek- Toshkent avtomagistrali o'tgan. SHaharda shakar, spirt, sut zavodlari, un va un mahsulotlari sanoati, elektrotexnik o'yinchoqlar zavodi va boshqa korxonalar ishlab turibdi.

Issiqko'l vodiysi respublikaning 12% hududini tashkil etadi. Issiqko'l botig'i shimoldan Kungey Olatov, janubda Tyerskey Olatovi bilan o'ralgan. Tabiiy resurslaridan toshko'mir, qalay rudalari, turli qurilish materiallari va boshqalar topilgan. SHuningdek vodiya mineral buloqlar va shifobaxsh balchiqlar ham topilgan bo'lib, ular asosida Jetiog'iz, Oqsu, Jyergalan kabi kurort sanatoriylar ishlab turibdi.

Vodiy xo'jaligida mayin yungli qo'ychilik, go'sht va sut chorvachiligi, yilqichilik etakchi o'rinda turadi.

Dehqonchilik asosan vodiyning sharqiy qismida rivojlangan. Bu yerlarda donchilik, kartoshka etishtirish, hamda chorva mollari uchun ozuqabop ekinlar etishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bog'dorchilikda olma, shaftoli, qora smorodina kabilar ekiladi.

Mintaqa sanoati qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Bundan tashqari qurilish materiallari, ayrim mashinasozlik tarmoqlari, tikuvchilik, yog'ochsozlik, ko'mir, baliq sanoati va boshqalar rivojlangan. Issiqko'l vodiysi rekreatsion resurslarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu yerga nafaqat MDH davlatlaridan balki, boshqa xorijiy davlatlardan ham dam oluvchilar tashrif buyurishadi.

Vodiyning 70% dan ortiq aholisi qishloqlarda yashashadi. Asosiy shaharlari Prjevalsk(Qorako'l), Ribache, CHo'lponota.

Talas vodiysi shimoliy Qirg'izistondagi eng kam rivojlangan rayondir. Bu yerda asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishadi. Vodiy chorvachiligida mayin yungli qo'ychilik,

qoramolchilik, yilqichilik, dehqonchilikda esa tamaki etishtirish, makkajo'xori, bug'doy, sabzavot va mevalchilikka ixtisoslashgan.

Sanoati mahalliy qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydi. Oxirgi yillarda elektroenergetika sanoati ham rivojlanib bormoqda. Tog'-kon sanoati shakllanmoqda.

Markazi Talas shahri. SHaharda poyafzal va tikuvchilik fabrikalari, sut zavodlari, qurilish materiallari va boshqa sanoat korxonalari joylashgan. Talasdan tashqari qorako'l shahri ham bor. U Toxtog'ul suv omborining qurilishi bilan tashkil topgan.

MARKAZIY QIRG'IZISTON. (NORIN VILOYATI.)

Respublika hududining 26% ni, aholisining esa 6% ni tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km kv ga 5,5 kishi to'g'ri keladi. Mintaqa baland tog'lardan iborat bo'lib, boshqa iqtisodiy zonalar va asosiy temir yo'llardan olisda joylashgan. Mintaqani shimoliy Qirg'iziston bilan dovon orqali o'tgan Norin-Ribache-Bishkek avtomobil yo'li bog'lab turadi. Iqtisodiy rayonning asosiy boyligi Norin daryosi va uning irmoqlaridagi gidroEnergetika resurslari hamda bepoyon yaylovlardir. Mintaqaning foydali qazilmalari qo'ng'ir ko'mir, temir rudasi, oltin, mineral tuz va boshqalar bo'lib, hali to'liq o'rganilmagan.

Rayon xo'jaligida yaylov chorvachiligi ustun turadi. Aholisi chorvachilik bilan shug'ullanishadi. Bu yerda ko'plab mayin yungli qo'ylar boqiladi. Respublikada etishtiriladigan junning 1g'5 qismini etkazib beradi. Dehqonchilik yaxshi rivojlanmagan.

Mintaqaning ayrim hududlarida don etishtirish, dorivor ko'knori va chorva uchun ozuqabop ekinlar ekiladi.

Aholi manzilgohlari daryo vodiylarida va tog' oralig'i botiqlarida joylashgan bo'lib, bir-biridan ancha o'zilib qolgan. Rayonning ma'muriy markazi Norin shahri bo'lib, Norin daryosining chap qirg'og'ida, dengiz sathidan 2037 m. balandda joylashgan. SHaharda go'sht-sut kombinatlari, sut zavodi, tikuvchilik fabrikasi va boshqa korxonalar ishlab turibdi.

JANUBIY QIRG'IZISTON (JANUBIY NORIN, O'SH, JALOLOBOD, BATKEN VILOYATLARI)

Respublika hududining 33% ni, aholisining esa 43% ni tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km kv ga 30 kishi to'g'ri keladi.

Mintaqaning katta qismi Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi. Baland tog'lar shimoliy Qirg'izistondan ajratib turadi. SHimoliy Qirg'iziston bilan Janubiy Qirg'iziston Bishkek-O'sh avtomobil yo'li bilan aloqa olib borishadi.

Reliefda tekisliklar bilan bir qatorda tog'oldi va baland tog'liklar ham bor.

Janubiy Qirg'iziston tabiiy resurslarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa bu mintaqada yoqilg'i-energetika resurslari va rangdor metall konlari ko'p. Jumladan, qo'ng'ir va toshko'mir konlari, neft, gaz, surma, simob, rux, qalay, oltingugurt, mineral tuz va boshqalar. SHuningdek mintaqada shifobaxsh buloqlar ham ko'p.

Iqtisodiy rayonda to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, kon-qazlov sanoati, rangdor metallurgiya, mashinasozlik sanoatlari yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida paxta va tamaki etishtirish ustun turadi. SHuningdek rayonda donchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mintaqada chorvachilik sut-go'sht etishtirishga moslashtirilgan. CHorva mollari sug'oriladigan yerlarda hamda tog' yaylovlarida boqiladi.

Aholisining asosiy qismi mintaqaning sharqiy qismida istiqomat qilishadi. Bu yerda mamlakatning ikkinchi yirik shahri O'sh joylashgan. O'sh viloyati aholi zichligi bo'yicha respublikada birinchi o'rinda turadi (1 km kv ga 110 kishi).

O'sh shahri O'rta Osiyodagi qadimgi shaharlardan biri bo'lib (3 ming yil), uning iqtisodiy geografik o'rni juda qulay. SHahar Oqbura daryosining har ikki sohilida joylashgan bo'lib Janubiy Qirg'izistonning sanoati rivojlangan markazi hisoblanadi.

SHahardan Tyanshan, Pomir tog'lari orqali qashqar, Hindiston va Afg'onistonga karvon yo'llari boshlangan.

Zamonaviy O'sh shahrida ko'plab sanoat korxonalari, oliy o'quv yurtlari joylashgan. To'qimachilik kombinatlari, ipakchilik kombinati, nasos zavodi, temir-beton kontsruktsiyalari zavodi, pedagogika intsituti, politexnika intsituti va boshqalar shular jumlasidandir.

O'sh shahridan so'ng ikkinchi yirik sanot markazi Jalolobod shahridir. SHaharda 20 dan ortiq sanoat korxonalari ishga tushirilgan. Bular:qurilish matyeriallari kombinati, paxta tozalash zavodi, mebel fabrikasi, tikuvchilik fabrikalari, tamaki fabrikasi va boshqalardir. Jalolobod o'zining mineral issiq suvlari va shifobaxsh balchiqlari bilan yana ham mashhur. SHahardagi kurort sanatoriyalarda tyeri, suyak, asal va boshqa kasalliklar davolanadi.

Viloyatning sharqiy qismida Qoradaryo vodiysida O'zgan shahri joylashgan. O'sh kabi O'zgan ham qadimiy shaharlardan biridir. qadimda bu yerdan O'rta Osiyoni Qashqar bilan tutashtiruvchi savdo yo'li o'tgan. SHaharda qadimgi tarixiy obidalar ko'p. SHahar qadimda Qoraxoniylar davlatining poytaxti bo'lgan. SHahar yaqinida ko'plab mineral buloqlar topilgan. Eng mashhuri Qora-SHo'ra bo'lib, bu yerda mineral suvlar shishalarga quyiladi. O'zganga nafaqat respublika balki ko'plab xorijiy mamlakatlardan sayyohlar tashrif buyurishadi.

Tog'-kon sanoatining rivojlanishi natijasida janubiy Qirg'izistonda bir qancha ishchi posyolkalar tashkil topdi. Moylisoy- respublikaning eng yosh shaharlaridan biri bo'lib, neft koni asosida bunyod etilgan. Hozirgi kunda shaharda elektrotexnika sanoati yaxshi rivojlangan. (elektrolampa, yoritish priborlari, elektroizolyatsiya mahsulotlari).

Mintaqadagi Qizil-qiya, Sulukta, Toshko'mir, Ko'kyong'oq kabi shaharchalar ko'mir konlari yaqinida joylashgan va asosiy ko'mir qazib oluvchi markazlar hisoblanadi. Bulardan eng yirigi Qizil-qiya bo'lib, Farg'ona vodiysiga eng ko'p ko'mir chiqaradi. SHuningdek shaharda o'tga chidamli mahsulotlar, yirik tamaki fabrikasi kabi sanoat korxonalari ishlab turibdi.

Qizil-qiya yaqinidagi simob va surma konlari asosida qadamjoy, Haydarkent kabi ishchi posyolkalari tashkil topgan. Hozirgi kunda Moylisoy, Haydarkent, qadamjoy rangli metallar qazib olish va boyitish markazlari hisoblanadi.

Savollar:

1. Respublika relefining o'ziga xos xususiyati nimada?
2. Respublika iqtisodiyotidagi etakchi tarmoqlarni ayting.
3. Qirg'iziston qanday foydali qazilmalar bo'yicha MDH davlatlari orasida oldingi o'rinda turadi?
4. Respublikaning qaysi viloyatida aholi zichligi yuqori.

